

ISSN 2010-703X

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnal



EKOLOGIYA

№1 [9],
2024

XABARNOMASI | SINCE 1995

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ
ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА

ECOLOGICAL HERALD
OF UZBEKISTAN



BMTNING YOVVOYI HAYVON-
LARNING KO'CHIB YURUVCHI
TURLARINI SAQLASH BO'YICHA
KONVENTSIYASI (CMS COP14)
ISHTIROKCHILARI KONFERENSI-
YASI 14-YIG'ILISHI TAFSILOTLARI
4-25-SAHIFALAR

EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA
IQLIM O'ZGARISHI VAZIRINING
AXBOROTI TINGLANDI
30-SAHIFA

O'ZBEKISTONDA MARKAZIY
OSIYODAGI BIRINCHI
EKO-UNIVERSITET –
«GREEN UNIVERSITY»
RASMAN OCHILDI
38-SAHIFA

TAHRIR HAY' ATI TARKIBI:

Abduhakimov Aziz Abdukaxarovich – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, kengash raisi

Alimov Zikrilla Bobamuratovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Atmosfera havosini muhofaza qilish» laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori

Allaberdiyev Rustamjon Xamrayevich – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya fakulteti dekani, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Aminov Xamza Xusanovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinosari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Arabov Saidqul Amirovich – O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti direktori, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Buriyev Salimjan Samedjanovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha o'rinosari, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi

Juliyev Muxiiddin Komilovich – "TIQXMMI" MTU tabiiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Karimov Farxod Isomiddinovich – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy ishlari bo'yicha direktor o'rinosari, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Kazbekov Jusipbek Sdikbekovich – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri o'rinosari, texnika fanlari nomzodi

Madrimov Rajabboy Masharipovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Yer resurslarini muhofaza qilish» laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mirzayeva Adolat Usmonboyevna – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Umumiy parazitologiya laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Murodov Shuxrat Odilovich – Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti professori, texnika fanlari doktori

Muxsimov Nurillo Po'latovich – O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nishonov Bahriiddin Erkinovich – Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti «Yer usti suvlari sifati tadqiqoti» laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari nomzodi

Radkevich Mariya Viktorovna – "TIQXMMI" MTU Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrasi professori, texnika fanlari doktori

Salixov Jasur Shavkatovich – Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishi universiteti (Central Asian Green University) rektori, iqtisod fanlari doktori, dotsent

Samiyev Luqmon Nayimovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori

Urinova Adolat Abdivasiyevna – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Bioxilmassilkni saqlash» laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich – O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Sherimbetov Xalilulla Satimovich – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi boshqarma boshlig'i, texnika fanlari nomzodi

Erkaboyev Furqat Ilyasovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti "Suv resurslarini muhofaza qilish texnologiyalari" laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori



1/2024

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza
qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

Tahririyat kengashi raisi:

Abduxakimov Aziz Abdukaxarovich,
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vaziri

Ilmiy muharrir:

Pulatov Baxtiyor Alimovich,

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish
texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
texnika fanlari doktori

Mas`ul muharrir:

Mamirov Suyundik Maxammamatovich

Dizayner:

Mamajonov Ulug'bek Rustam o'g'li

**Jurnal har chorakda kamida
bir marta chop etiladi.**

Jurnal 1995-yildan chiqa boshlagan.

**Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2021-yil 8-oktabrda
0515-sonli guvohnoma bilan
qayta ro'yxatga olingan.**

Jurnalga qabul qilingan ilmiy maqolalar
o'zlashtirilgan matnlarni aniqlaydigan
"Antiplag.uz" tizimida tekshirilgan.

Obuna indeksi: 910

Bosmaxonaga topshirildi: 16.05.2024-yil
Offset bosma usulida bosildi.
Hajmi 11,6 bosma taboq.
Bichimi 60x84 1/8. Buyurtma №
Adadi 450 nusxa.

«SMARTPACK PRINT» MCHJ QK
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri,
Taraqqiyot ko'chasi, 2-uy.

MUNDARIJA

- 04** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi Tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi ishtirokchilariga
- 06** Tabiat chegara bilmaydi
- 08** Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar migratsiya turlarini himoya qilish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirmoqda
- 09** Samarqand global ekologik muloqot markaziga aylanmoqda
- 10** Markaziy Osiyoning uch davlati xalqaro memorandumga qo'shildi
- 10** O'zbekiston va Qozog'iston Ustyurt platosining hayvonot dunyosini asrab-avaylash borasida hamkorlik qiladi
- 11** Beshinchi tabiiy meros ob'yekti xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvli-botqoqli yerlar ro'yxatiga kiritildi
- 12** O'zbekiston ekologiyasining holati to'g'risidagi Milliy hisobot taqdim etildi
- 14** "Yagona salomatlik": Markaziy Osiyoda 11 million yevrolik loyiha boshlandi
- 15** Tojikiston bilan mintaqada transchegaraviy hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib olindi
- 16** O'zbekistondagi noyob ko'chmanchi hayvonlar ko'rgazmasi ochildi
- 16** "COP14 – Yashil jamoat parki"da daraxt ko'chatlari c'tqazildi
- 17** GEF Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida ekotizimlarni tiklash sohasida hamkorlikni mustahkamlash uchun 26 million dollar grant ajratadi
- 18** O'zbekistonda suvli-botqoqli yerlarni muhofaza qilish bo'yicha Milliy strategiya ishlab chiqiladi
- 19** Osiyo gepardlarini O'zbekistonga qaytarish va ko'paytirish borasida Milliy reja ishlab chiqish masalasi muhokama qilindi
- 20** O'zbekistonda 6 ta transchegaraviy muhofaza hududini barpo etish masalasi muhokama qilindi
- 21** Tojikiston ekologiya sohasida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston tajribasini o'rganishdan manfaatdor
- 22** Ko'chib yuruvchi turlarning holati va ularni saqlab qolish bo'yicha tavsiyalarga bag'ishlangan hisobot taqdim etildi
- 24** BMTning global konferensiyasida yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash bo'yicha asosiy chora-tadbirlar majmui qabul qilindi

CONVENTION ON MIGRATORY SPECIES
2024
14
SAMARQAND
12-17 FEBRUARY 2024

- 26** Atrof-muhitni asrash va chiqindilarni boshqarishga oid loyihalar taqdimot qilindi
- 28** BMT O'zbekistonning yana bir tashabbusini e'tirof etdi
- 29** Qurilish maydonlarida havoni ifloslantirmaslik uchun majburiy talablar joriy qilinadi
- 30** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining axboroti tinglandi



- 32** Orol dengizi tubida cho'lga chidamli o'simliklar ekish boshlandi
- 33** Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha rejalar belgilab olindi
- 34** Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va Harakatlar dasturining maqsadlari tasdiqlandi
- 35** Chiqindini qayta ishslash va undan muqobil energiya olish masalasi muhokama qilindi
- 36** "Yashil" energetikani rivojlantirish bo'yicha Sian va Chendu tajribasi o'rganildi
- 37** Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida iqlim o'zgarishi bo'yicha hamkorlik mustahkamlanmoqda
- 38** O'zbekistonda Markaziy Osiyodagi birinchi eko-universitet – «Green University» rasman ochildi
- 39** Hamid Puran: «Green University – yashil kelajak uchun qo'yilgan muhim qadamdir»
- 40** Toshkentda «IUCN»ning Markaziy Osiyodagi birinchi ofisi ish boshladi



ILMIY MAQOLALAR

49 **B.Alikhanov, B.Pulatov, L.Samiev.**

Analysis of climate change in Ugam-chatkal national park, Bostanliq district, during the post-soviet period using Mann-Kendall test and Sen's Slope statistical analysis

56 **U.Uzbekov, A.Arifjanov, Sh.Akmalov.**

Temporal dynamics of precipitation variation in the Shahrisabz district during 2000-2020

60 **M.Juliyev, L.Gafurova, M.Xolmurodova, B.Abdikairov.**

Ugam-Chotqol milliy bog'ining iqlimi va gidrologik sharoiti

64 **Sh.Imyaminova, S.Buriyev.**

Toshkent viloyatida atmosfera havosi ifloslanishi tahlili

68 **N.Raximova, E.Temirov.**

Toshkent botanika bog'i genofondidan respublikamizning turli tarmoqlarida foydalanish uchun yangi assortimentni tavsiya etish

72 **X.Aminov, A.Xodjiyev, O'.Xo'janazarov, N.Xakimova, B.Jo'rayev.**

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv sathi dinamikasining o'simlik qoplamiga ta'sirini baholash

77 **Н.Паттахов, Ф.Эркабаев.**

Экологические и почвенно-мелиоративные условия Джизакской степи

82 **Ф.Юлдашев, Х.Юлдашева.**

Наноудобрение «Органика» органо-минеральный стимулятор роста растений

84 **Б.Усмонов, В.Арипов, Ф.Игитов.**

Эффективность зеленой экономики и достижения устойчивого развития

89 **Ю.Шадиметов, Д.Айрапетов.**

Опыт США в решении глобальных и региональных экологических проблем

EKOLOGIK SANALAR

94 11-yanvar – Qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni

13-14-yanvar – Suv-botqoq qushlarining xalqaro sanoq kunlari

95 20-yanvar – Pingvinlar haqida xabardorlik kuni

26-yanvar – Xalqaro toza energiya kuni

96 2-fevral – Butunjahon suvli-botqoqli yerlar kuni

3-fevral – Xalqaro qushlarni oziqlantirish kuni

97 19-fevral – Butunjahon dengiz sutevizuvchilarini muhofaza qilish kuni (kitlar kuni)

27-fevral – Xalqaro qutb ayig'i kuni

EKOOLAM

98 1. Iqlim o'zgarishi sababli daraxtlarning "nafas olishi" qiyinlashmoqda

2. Afrikadagi yirtqich qushlar soni kamayib bormoqda

99 3. Yer osti suvlarining kamayishi dunyoning ko'p hududlarida tezlashmoqda

4. Guardian: tabiiy boyliklarini qazib olishning ortishi halokatli oqibatlarga olib keladi

100 5. Amazonka ekotizimi "keskin o'zgarish nuqtasi"ga yetishi mumkin

6. Populyatsiyaning qisqarishi: ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarning
1189 turidan 44 foizi xavf ostida



BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING YOVVOYI HAYVONLARNING KO'CHIB YURUVCHI TURLARINI SAQLAB QOLISHGA DOIR KONVENTSIYASI TOMONLAR KONFERENSIYASINING 14-YIG'ILISHI ISHTIROKCHILARIغا

Hurmatli delegatlar!

Xonimlar va janoblar!

Atrof-muhit va bioxilma-xillikni saqlash yo'lidagi muhim xalqaro tadbir – Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi yig'ilishining baracha ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy tabriklayman.

Avvalambor, Konvensiya kotibiysi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha dasturiga ushbu nufuzli anjumanni mamlakatimizda o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatlagani uchun chuqr minnatdorchilik izhor etaman.

Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, beba-ho me'morchilik durdonasi hisoblangan ko'hna Samarqandga xush kelibsiz!

So'nggi yillarda ushbu qadimiy va betakror shahar qator dolzarb muammolar bo'yicha mu-loqlarning global markaziga aylanib bormoqda.

Mazkur forum Samarqandning ekologik diplomatiyaning ta'sirli markazlaridan biri sifatida maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda 2023-yilning dekabr oyida bu yerda cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro anjuman o'tkazilganini, joriy yil aprel oyida esa Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan yirik forum tashkil etilishini alohida ta'kidlamoqchiman.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Barchangizga yaxshi ma'lumki, hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari sayyoramiz ekotizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Afsuski, hozirgi kunda ular iqlim o'zgarishi, yashash joylarining yaroqsiz holga kelishi, noqonuniy ov va savdo kabi jiddiy tahdidlar bilan to'qnash kelmoqda.

Natijada hayvonlarning genetik resurslari qisqarmoqda, ularning nodir va noyob turlari, tabiiy uyg'unlik va ekotizimlar yo'qolib bormoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, Yer yuzidan so'nggi 50 yilda ularning 100 dan ortiq turlari, Markaziy Osiyoda esa 26 turdag'i qushlar, 12 turdag'i sut emizuvchilar, jumladan, Turon yo'lbarasi, Osiyo qoploni va boshqa endemik turlar butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Bioxilma-xillikni kelajak avlodlar va barqaror rivojlanish uchun saqlash, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligini ta'minlash – bizning umumiyligini maqsadimizdir. Bu butun xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini birlashtirishni, muvofiglashtirilgan va kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O'zbekistonda ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar turlarini saqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda eng avvalo, sohaning huquqiy bazasi takomillashtirildi, yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ularning samarali ijrosi ta'minlanmoqda. Davlat boshqaruv organlari, biznes va fuqarolik jamiyatlarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirishni qamrab olgan institutional tizim mustahkamlanmoqda.

Mazkur sohada fundamental va amaliy tadqiqotlarning eng ilg'or maktabi bo'lgan Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti o'z faoliyatini qayta tikladi. Qisqa muddatda ko'chib yuruvchi turlarni ishonchli himoya qilishni ta'minlovchi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar uch karraig'a oshirilib, mamlakatimiz umumiyligini maydonining 14 foiziga yetkazildi. O'zbekistonning nodir tabiat landshaftlari YUNESKOning Butunjahon tabiiy meros ro'yxati, Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog'iga va Ramsar konvensiyasi obyektlari ro'yxatiga kiritildi.

Yovvoyi hayvonlarni parvarish qilish uchun yangi pitomniklar tashkil etildi. Noyob qush turlari va sut emizuvchilarini o'z yashash makonlarida ko'payishini qayta tiklash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million hektar maydonda o'rmonlar yaratilgani o'simliklar xilma-xilligini va hayvonot dunyosini qayta tiklash imkonini bermoqda.

O'zbekiston 2024-2027-yillarda Konvensiyaga raisligi davrida ko'chib yuruvchi hayvon

turlarini himoya qilishga o'zining butun kuch va salohiyatini to'liq safarbar qilishga tayyordir. Biz Samarqandda bu borada kelgusidagi ishlari-mizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradigan 2024-2032-yillarga mo'ljallangan Yangi strategik reja tasdiqlanayotganini olqishlaymiz.

Shuningdek, Hayvonlarning ko'chishiga to'siqlardan xoli ekologik yo'laklarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va qabul qilishni qo'llab-quvvatlaymiz.

Infratuzilma obyektlari – avtomobil va temir yo'llar, gaz quvurlari va chegara inshootlarining qurilishi yovvoyi hayvonlar migratsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini kamaytirish uchun ekologik baho berilishi bo'yicha talabni kuchaytirish muhim, deb hisoblaymiz.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston transchegaraviy tabiiy parklar yaratish bo'yicha mintaqalar bilan yaqin hamkorlik qilmoqda va ular sonini keskin ko'paytirish niyatidamiz.

Bir vaqtlar Ustyurt platosi kengliklarida yashagan va inson omili ta'sirida yo'qolib ketgan Osiyo qoploni populyatsiyasini qayta iqlimashtirishni boshlash niyatidamiz. Olimlar va ekspertlarni bu yo'nalishda hamkorlikka chorlab qolamiz.

Fursatdan foydalanim, Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Toshkentda o'z vakolatxonasini ochish bo'yicha qarori uchun alohida tashakkur aytmoqchiman. Biz tashkilotning mintaqamiz flora va faunasini saqlab qolishdek xayrli faoliyatiga har tomonlama ko'mak ko'rsatishga tayyormiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bugungi konferensiyada qabul qilinayotgan qarorlarning hayotga tatbiq etilishi ko'chib yuradigan yovvoyi hayvonlarni saqlash bo'yicha xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu yo'ldagi sharafla va mas'uliyatli ishlaringizda sizlarga katta omadlar, kuch-g'ayrat va yangi muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Tabiat chegara

12-fevral kuni Samarqanddagi Kongress markazida BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash bo'yicha konvensiyasi (CMS COP14) ishtirokchilari konferensiyasi 14-yig'ilishining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

1979-yilda Germaniyaning Bonn shahrida qabul qilingan va 1983-yilda kuchga kirgan mazkur konvensiyaga dunyoning 133 davlati a'zo hisoblanadi. O'zbekiston 1998-yilda konvensiyaga qo'shilgan va shundan buyon uning ishida faol qatnashib kelmoqda. Shu bois ham Markaziy Osiyo davlatlari orasida ilk bor yurtimizda konvensiya ishtirokchilari konferensiyasining yig'ilishi o'tkazilmoqda. Bundan avvalgi 13-yig'ilish pandemiyadan oldin Hindistonda tashkil etilgan. O'tgan davr mobaynida yig'ilib qolgan ko'plab masalalarga ishtirokchilar bu gal Samarqandda yechim topishga, muhim mavzular yuzasidan yuzma-yuz fikr almashishga ahd qilgan.

"Tabiat chegara bilmaydi" shiori ostida o'tkazilayotgan yig'ilishda xalqaro tashkilotlar vakillari, 130 mamlakatdan 1800 dan ortiq ishtirokchi qatnashmoqda.

Dastlab Prezident Shavkat Mirziyoyevning forum qatnashchilariga tabrigini O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov o'qib eshittirdi.

Shuningdek, tadbirda BMT Bosh kotibi o'rinnbosari, tashkilotning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrosi direktori Inger Andersen xonim, Ko'chib yuruvchi turlar bo'yicha konvensiya ijrachi kotibi Emi Frankel, Global ekologik jamg'arma bosh direktori Karlos Rodriges, Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi direktori Gratel Agilar va boshqalar so'zga chiqib, mazkur tadbir dunyoda iqlim o'zgarishlari kuchayib borayotgan bugungi sharoida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar.



“

- Biz bugun migratsiya turlari kelajagi uchun hal qiluvchi pallada turibmiz, - dedi Ko'chib yuruvchi turlar bo'yicha konvensiya ijrachi kotibi Emi Frankel.
- Markaziy Osiyoda ilk bor o'tkazilayotgan ushbu uchrashuv ko'chib yuruvchi turlarni saqlashga sodiq bo'lgan hukumatlar va jahon hamjamiyatini birlashtirgan holda transchegaraviy hamkorlik muhimligini ko'rsatmoqda. Yig'ilishimiz kun tartibi keng qamrovli va ko'plab masalalarni muhokama etish, bir qator muhim hujjatlar qabul qilish ko'zda tutilgan. Har yili milliardlab hayvonlar yerda, okeanlarda va osmonda ko'chib yurishadi, milliy chegaralar va qit'alarni kesib o'tadi. Ba'zilari esa oziqlanish va ko'payish uchun dunyo bo'y lab minglab kilometrlar yo'l bosadi. Ular yaxshi ishlaydigan ekotizimlarning ajralmas qismi, jumladan, oziq-ovqat manbai, turizmdan olinadigan iqtisodiy foyda va o'simliklarni changlatish, asosiy ozuqa muddalarini tashish, zararkunandalarni yo'q qilishda ahamiyati katta. Shuning uchun ularga e'tibor shunga yarasha bo'lishi kerak. Konvensiyaga a'zo davlatlar vakillari, vazirlar, xalqaro tashkilotlar mas'ullari bilan bugun yo'qolib ketish xavfi oshib borayotgan turlar bo'yicha fikr almashamiz, o'zimizning xulosalarimizni taqdim etamiz. Va albatta, kelgusidagi vazifalarni belgilab olamiz.

bilmaydi



O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov davlatimiz rahbarining alohida e'tibori bilan atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishining oldini olish borasida zarur chora-tadbirlar ko'rيلayotganini ta'kidladi. Muhofaza etiladigan hududlar maydonini 6 million gektarga yetkazish bo'yicha sa'y-harakatlar, respublika bo'ylab har yili 200 million tup ko'chat ekish ko'zda tutilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilayotgani, Orolbo'yи hududi ekotizimlari yaxshilanayotgani shular jumlasidandir.

“ - Ushbu hafta davomida biz migratsiya turlari bilan bog'liq qator masalalarni, jumladan, iqlim o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarini muhokama qilamiz, – dedi A. Abduhakimov. - Maqsadimiz – ekotizimlar va sog'lom sayyorani saqlashda muhim rol o'ynaydigan ko'chib yuruvchi turlarni saqlash bo'yicha yechim topish va samarali rejalar ishlab chiqish.

CMS COP14ning bir haftalik kun tartibida yuzdan ortiq masalalarni ko'rib chiqish ko'zda tutilgan.

Jumladan, birinchi kungi tadbirlar doirasida ko'chib yuruvchi yovvoyi tabiat turlarining holati to'g'risidagi birinchi global hisobot taqdimoti bo'lib o'tdi. Shuningdek, ko'chib yuruvchi turlar va Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik, ko'chib yuruvchi turlarni saqlash bo'yicha transchegaraviy va mintaqaviy hamkorlik masalalari muhokama etildi.

Tadbirlar doirasida O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov BMT Bosh kotibi o'rinosari, tashkilotning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen xonim va boshqa nufuzli mehmonlar, delegatsiyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI VA XALQARO TASHKILOTLAR MIGRATSIYA TURLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA HAMKORLIKNI KUCHAYTIRMOQDA



Joriy yilning 11-fevral kuni "Silk Road Samarkand" kongress zalida "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risida"gi Konvensiya (CMS COP14) ishtirokchilari konferensiyasining 14-yig'ilishi doirasida "Tabiat chegara bilmaydi: ko'chib yuruvchi turlar va Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik qilish" mavzusida yuqori darajadagi tadbir o'tkazildi.

Tadbirda O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, Ko'chib yuruvchi turlar to'g'risidagi konvensiya (CMS) ijrochi kotibi Emi Frenkel, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen, Suvli-botqoqli yerlar bo'yicha Ramsar konvensiyasining Bosh kotibi Musonda Mumba, Markaziy Osiyo davlatlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat sektori rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy doiralar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

"Keyingi besh kun ichida biz migratsiya turlari bilan bog'liq qator masalalarni, jumladan, iqlim o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni muhokama qilamiz. Maqsadimiz - ekotizimlar va sog'lom sayyora ni saqlashda muhim rol o'ynaydigan ko'chib yuruvchi turlarni saqlash bo'yicha yechim topish va samarali rejalar ishlab chiqish", — dedi A. Abduhakimov.

"Markaziy Osiyoda ko'chib yuruvchi turlarni saqlash bo'yicha transchegaraviy va mintaqaviy hamkorlik" birinchi sessiyasi doirasida Markaziy Osiyo davlatlari vazirlari o'rtaida ko'chib yuruvchi turlarni saqlash bo'yicha transchegaraviy va mintaqaviy hamkorlik yuzasidan muloqot bo'lib o'tdi. Ikkinchi sessiyada xalqaro tashkilotlar rahbarlarining Markaziy Osiyodagi ko'p tomonlama munosabatlar va hamkorlik masalalari bo'yicha muloqoti o'tkazildi. Uchinchi sessiyada esa davlat sektori rahbarlari ko'chib yuruvchi turlarni saqlash sohasida xalqaro va transchegaraviy hamkorlik bo'yicha o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.

Uchrashuv davomida Markaziy Osiyo davlatlari vazirlari va xalqaro tashkilotlar rahbarlari o'rtaida migratsiya turlari va transchegaraviy yo'laklarni himoya qilish bo'yicha birgalikdagi harakatlarga qaratilgan qator kelishuvlar imzolandi.

SAMARQAND

GLOBAL EKOLOGIK MULOQOT MARKAZIGA AYLANMOQDA



Samarcanda bo'lib o'tayotgan COP14 xalqaro konferensiysi doirasida O'zbekiston ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov BMT Bosh kotibi o'rinosari va tashkilotning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen bilan uchrashdi.

Aziz Abduhakimov yuqori marta-bali mehmonga Samarcandga tashrifi va CMS COP14 da ishtirok etayotgani uchun minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, Samarcand global ekologik muloqotlar markaziga aylangani, o'tgan yilning kuzida oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya (ICFS, FAO), so'ng CRIC21 sessiyasi (UNCCD) ga mezonlik qilganini ta'kidladi. Aprel oyida esa aynan Samarcandda xalqaro iqlim forumi o'tkazilishini aytib, UNEP vakillarini tadbirga taklif qildi.

Qolaversa, vazir COP14 xalqaro konferensiysi katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etdi.



"Ushbu tadbir 130 mamlakatdan 1800 dan ortiq ishtirokchilarni, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha konvensiyalarini va butun dunyo bo'ylab yetakchi mutaxassislarini birlashtirdi. Konferensiya shiori "Tabiat chegara bilmaydi", chunki rostdan ham ko'chib yuruvchi hayvonlar uchun hech qanday chegara bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham transchegaraviy hamkorlikni kuchaytirish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish tarafborimiz. Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligini rivojlantirish ustuvor vazifamizdir, chunki ekologik muvozanat, ekotizim va migratsiya turlari mintaqaviy va global hamkorlikni talab qiladi", — dedi u.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari tomonidan ekologiyani asrash borasida qilinayotgan ishlar, xususan, "Yashil makon" loyihasi, Orol dengizi tubida keng ko'lamli o'rmonzorlar barpo qilinayotgani alohida e'tirof etildi. Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish mexanizmlarini yanada qattiqroq qo'llash, muqobil energiya manbalariga o'tish va ekologik ta'limni kuchaytirish muhim ekanligi ta'kidlandi.

Vazir 2024–2032-yillarga mo'ljalangan ko'chib yuruvchi turlar bo'yicha CMS strategik rejasining qabul qilinishini qo'llab-quvvatladi. Uchrashuv yakunida UNEP bilan havo sifati monitoringi, ekologik standartlarni takomillashtirish, cho'llanish va yer degradatsiyasiga qarshi kurash, plastik ifloslanish va og'ir pestisidlarni bosh-qarish, ekologik ta'lim va xabardorlikni oshirish kabi yo'naliishlarda hamkorlik qilish muhim ekanligi qayd etildi.



MARKAZIY OSIYONING UCH DAVLATI XALQARO MEMORANDUMGA QO'SHILDI

O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Afrika va Yevroosiyoda ko'chmanchi yirtqich qushlarni saqlash bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumiga qo'shildi.

Memorandum 11-fevral kuni CMS COP14 "Markaziy Osiyoda ko'chib yuruvchi turlarni saqlash bo'yicha transchegaraviy va mintaqaviy hamkorlik" sessiyasi doirasida imzolandi.

Hujjatni O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, Qirg'iziston Respublikasi tabiat resurslari, ekologiya va texnik nazorat vaziri Melis Turg'unboyev, Qozog'iston ekologiya va tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari Nurken Sharbiyev imzolashdi.

«Mazkur memorandum ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar oldidagi to'siqlarni bartaraf etish, ularning bir hududdan boshqa hududga ko'chib o'tishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishni ko'zda tutadi. Bu esa ko'chmanchi hayvonlarni muhofaza qilish va bu orqali bioxilma-xillikni saqlashga imkon yaratadi. Qolaversa, Markaziy Osiyo davlatlarining bu boradagi birdamligini mustahkamlaydi», — dedi Aziz Abduhakimov.

Ma'lumot uchun

Mazkur memorandum yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq tuzilgan xalqaro shartnomadir. O'zaro anglashuv memorandumini imzolagan davlatlar yirtqich hayvonlar turlarini butun tarqalish zonasida qulay saqlash maqomiga erishish va ularning kamayishiga yo'l qo'ymaslik uchun muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar va harakatlarni amalga oshirish majburiyatini oladilar.

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON USTYURT PLATOSINING HAYVONOT DUNYOSINI ASRAB-AVAYLASH BORASIDA HAMKORLIK QILADI

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan CMS COP14 yalpi majlisi doirasida O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov va Qozog'iston Respublikasi ekologiya va tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari Nurken Sharbiyev o'rtasida memorandum imzolandi.

Memorandum doirasida Ustyurt platosida yovvoyi hayvonlarning transchegaraviy populyatsiyalari va ularning ko'chib yuruvchi turlarini saqlashni ta'minlash bo'yicha ishchi guruh tuziladi va chora-tadbirlarning "Yo'l xaritasi" ishlab chiqiladi. Hujjat quydagilarni ta'minlaydi:

- ko'chib yuruvchi turlarning muvofiqlashtirilgan monitoringi, tadqiqi va inventarizatsiyasi;
- yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash;
- transchegaraviy muhofaza qilinadigan hududlar va migratsiya koridorlarini yaratish;
- hayvonot dunyosi resurslaridan barqaror foydalananish va ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish;
- mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish;
- ko'chib yuruvchi turlarni saqlash sohasida zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni tanlash va qo'llash bo'yicha maslahatlashuvlar;
- ko'chib yuruvchi hayvonlarni noqonuniy va/yoki asossiz tutishga, shu jumladan, brakonerlik va yovvoyi hayvonlar hamda ularning hosilalari kontrabandasiga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish va kuchaytirish;
- qo'shma ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalar o'tkazish;
- qo'shma ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarni tayyorlash va chiqarish;
- yashash muhitining parchalanishi va degradatsiyasining oldini olish choralar;
- "Yo'l xaritasi"ning tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun investisiyalar va mablag'larni jaib qilish.

Ta'kidlash joizki, kelishuv 2023-yilda Butunjahon tabiiy merosi ob'yektlari ro'yxatiga kiritilgan "Turon mo'tadil cho'llari" transmilliy Butunjahon tabiiy merosi ob'yektini saqlash bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlarining majburiyatlarini bajarish maqsadida imzolangan.



Qoraqalpog'istonidagi Jiltirbas ko'li xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvli-botqoqli yerlar ro'yxatiga kiritildi.

Bu haqda Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov CMS COP14 matbuot anjumanida ma'lum qildi.

BESHINCHI TABIIY MEROS OB'YEKTI XALQARO AHAMIYATGA EGA BO'LGAN SUVLİ-BOTQOQLI YERLAR RO'YXATIGA KIRITILDİ

"Ramsar konvensiyasi kotibiyati bizga O'zbekistonning beshinchi tabiiy ob'yehti - Qoraqalpog'istonidagi Jiltirbas ko'li xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvli-botqoqli yerlar ro'yxatiga kiritilgani to'g'risidagi sertifikat berdi. Yaqinda ro'yxatga to'rtinchı ob'yekt - Sudochye ko'llari tizimi kiritilganini hisobga olsak, bu barchamiz uchun katta voqeа, — dedi A. Abduhakimov. — Bu O'zbekiston hukumati va davlatimiz rahbari tomonidan ekoliya va tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasidir".

A. Abduhakimov, shuningdek, beshinchi ob'yekti Ramsar ro'yxatiga kiritish bo'yicha ishlar Ekoliya vazirligi tomonidan 1,5 yil davomida amalga oshirilganini ta'kidladi. Tabiiy ob'yektning o'zi 15 yil davomida o'r ganilgan.

Ma'lumot uchun

Jiltirbas ko'li — Orol dengizining sobiq qo'lting'i. Dengiz sathi keskin pasaygach, u ajralib chiqdi va tabiiy manba — Amudaryo suvlari bilan oziqlandi, bu esa Janubiy Orol dengizining mahalliy faunasini saqlab qoldi. So'nggi yillardayoq qo'shimcha sug'orish kanallari qazilgan bo'lib, ular faqat suv sathini faunaning o'zgarishiga ta'sir qilmasdan ushlab turadi. Ko'l mintaqadagi Orol dengizining qurigan tubida hosil bo'ladigan tuz va chang bo'ronlarini ushlab turuvchi to'siqlardan biri hisoblanadi.

Orolbo'yi mintaqasida Jiltirbas xalqaro miqyosda kam uchraydigan qushlar uchun ham, O'rta Osiyo cho'llarining biologik xilma-xilligi, shu jumladan, zikh qamish va butalar, sho'r botqoqliklar, kanallar va cho'llar uchun ham uya qurish va migratsiya davrlarida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ko'l Orolbo'yi hududiga xos noyob baliq turlarining yashash joyi hisoblanadi.

Eslatib o'tamiz, bugunga qadar O'zbekistonning 4 ob'yehti: Dengizko'l ko'li (2001), Arnasoy ko'llar tizimi (2008), To'dako'l va Quyimozor suv omborlari (2020), Sudochye ko'llari tizimi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Ramsar suvli-botqoqli yerlar ro'yxatiga kiritilgan edi. Bu hududlarning umumiy maydoni 674,4 ming hektarni tashkil etadi.



O'ZBEKISTON EKOLOGIYASINING HOLATI TO'G'RISIDAGI MILLIY HISOBOT TAQDIM ETILDI

Joriy yilning 13-fevral kuni Samarqandda o'tkazilayotgan CMS COP-14 doirasida barqaror rivojlanish tashabbuslari, aholining xabardorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan yordamchi tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, BMT Bosh kotibi o'rinosari, BMT Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha Bosh direktori o'rinosari Viorel Gutu, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining (YeIK) mintaqaviy maslahatchisi Sara Radnaaragchaa, hukumat va xalqaro tashkilotlar, ilmiy jamoalar, ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqalar ishtirok etdi.

Tadbirning ochilishida nutq so'zlagan Aziz Abduhakimov iqlim o'zgarishining oldini olish va tabiatni muhofaza qilish

borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbuslar, jumladan, "Yashil makon" milliy loyihasi doirasidagi yoshlar marafoni, konferensiya va davra suhbatlari, ko'chat ekish, Toshkent universitetida "Central Asian Green University" ochilishi va boshqalar haqida gapirdi.

Vazir, shuningdek, hamkorlikdagi loyiha uchun hamkorlar, ekspertlar va muharrirlarga minnatdorlik bildirdi.

Biz atrof-muhitga oid kitoblar, hisobotlar, ko'rgazmali materiallar va qo'llanmalar ishlab chiqishga sarmoya kiritmoqdamiz. UNEP, FAO, YeIK, Zoi Environment, CEPF va "Zamin" jamg'armasi bilan hamkorligimiz natijasida oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish, ekoturizm bo'yicha tavsiyalar, atrof-muhit holati hisoboti uchun vizual hisobot va infografika tayyorladik, — dedi vazir.

Tadbir davomida Eko- logiya vazirligining yangi nashrlari – O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhit holati to'g'risidagi Milliy hisoboti va uning tasvirlangan sharhi, G'AOning oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish bo'yicha yo'riqnomasi hamda Ekoturizmni rivojlan- tirish va ta'minlash, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlan- tirish va ekologik barqaror- likni ta'minlash bo'yicha taqdimot: turoperatorlar, mahalliy hokimiyat organlari va tashrif buyuruvchilar uchun maslahatlar taqdim etildi.

Atrof-muhit holati to'g'risidagi Milliy hisobot mam-



lakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kontekstida mavjud ekologik vaziyat va tendensiyalarni aks ettiruvchi keng qamrovli hujjatdir. Shuningdek, u tegishli siyosat ustuvorliklari, strategiyalari va atrof-muhit muammolarini hal qilish bo'yicha harakatlar yo'nalishini belgilash uchun mo'ljallangan boshqa hujjatlarning umumiy ko'rinishini taqdim etadi. Hisobot Barqaror rivojlanish maqsadlarida, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'p tomonlama shartnomalarda va atrof-muhit sifati nuqtai nazaridan inson salomatligi va farovonligi bilan bog'liq muammolarini hal qilishga qaratilgan boshqa xalqaro hujjatlarda belgilangan respublikaning xalqaro majburiyatlarini aks ettiradi. Hisobot UNECE, UNEP, Xalqaro Barqaror rivojlanish instituti, G'AO va Zoi Ekologik tarmog'i ko'magida tayyorlangan.

G'AOning Oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish bo'yicha qo'llanmasida oziq-ovqat isrofgarchiligining oldini olishga qaratilgan maslahat va tavsiyalar berilgan. Ushbu nashr oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishdan tortib to iste'mol qilishgacha bo'lgan yo'lda hammani qo'llab-quvvatlaydi. Infografik formatda taqdim etilgan mazkur amaliy maslahatlar va tavsiyalarga amal qilgan holda, har bir kishi o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishi va kundalik odatlarini ko'rib chiqish uchun tegishli qarorlar qabul qilishi mumkin.

O'zbekiston Ekologiya vazirligining yana bir tashabbusi – O'zbekistonda eko-turizmni rivojlantirish va tabiat barqarorligini ta'minlashga bag'ishlangan yangi nashr. U turizm operatorlari, mahalliy hokimiyat organlari va sayyohlar uchun rang-barang tasvirlangan qo'llanma shaklida taqdim etilgan. Unda o'quvchi respublikamizning tog'li zonasining tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylari, turistik fasllar, eng muhimi turizmning tabiat uchun foydalari va xavf-xatarlari haqida ma'lumot va odamlarning tog' ekotizimiga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun nima qilish kerak, degan savolga javob topishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, mazkur nashrlar barqaror rivojlanish yo'lidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan.

Milliy hisobotning elektron nashri bilan tanishish uchun skannerlang



o'zbek tili



rus tili



ingliz tili

DUNYODA HAYVONLAR MIGRATSİYASI SOHASIDAGI VAZİYAT BO'YICHA TARİXDAGI BİRİNCHİ HISOBOTNING TAQDIMOTI BO'LİB O'TDI

Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiya (CMS) Kotibiysi tomonidan ilk bor tayyorlangan «Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarining holati to'g'risida global hisobot» taqdimoti bo'lib o'tdi.

Hujjat CMS COP14 tomonlar konferensiya-sining 14-yig'ilishi doirasida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida taqdim etildi.

Hisobotda xavf ostida qolgan va shuning uchun e'tiborga loyiq, ammo konvensiyaga kiritilmagan 400 ga yaqin turlar qayd etilgan.

Yashash joylarining yaroqsiz holga kelishi va migratsiyadagi to'siqlar hayvonlar duch keladigan asosiy tahdid bo'lib qolmoqda, – deyiladi hujjatda. – Garchi dunyodagi 49 foiz joylar himoya qilinadigan CMS ro'yxatiga kiritilgan turlar uchun muhim ekanligi aniqlangan bo'lsa-da, bunday yovvoyi tabiat uchun juda muhim bo'lgan ko'plab hududlar hali xaritada qayd etilmagan.

Ushbu hujjat dunyodagi hayvonlarning migratsiya holati to'g'risidagi birinchi hisobot hisoblanadi. U to'rt bobdan iborat bo'lib, ularda ko'chib yuruvchi turlar, uzoq muddatli qolish tendensiyalari, asosiy tahidilar hamda paydo bo'ladigan muammolarga javoblar va boshqa muhim xususiyatlar haqidagi ma'lumot berilgan.

"Dunyo" AA.

“YAGONA SALOMATLIK”:

MARKAZIY OSIYODA 11 MILLION YEVROLIK LOYIHA BOSHLANDI

13-fevral kuni Samarqand shahrida CMS COP14 doirasida “Markaziy Osiyoda yagona salomatlik” loyihasi ishga tushirildi. Germaniya xalqaro iqlim tashabbusi(IKI) tomonidan qo'llab-quvvatlangan 11 million yevro miqdoridagi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining (IUCN) qo'shma tashabbusi olti yil davomida amal qiladi.

Loyihaning ochilishiga bag'ishlangan tadbirda davlat sektor va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, diplomatik korpus, no davlat notijorat tashkilotlari, ilmiy doiralar, soha ekspertlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirot etdi.



“Mintaqada yagona sog’liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish o’rtasidagi bog’liqlik katta. Tabiy yashash joylari va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlar ekotizim muvozanatini saqlash, yovvoyi tabiatning sog’lom populatsiyasini rag’batlantirish va zoonoz kasalliklar xavfini kamaytirish uchun kalit hisoblanadi. IUCN global maqsadlarga hissa qo’shish bilan birga tabiatni muhofaza qilish bo'yicha milliy

maqsadlarga erishishda hokimiyat organlarini qo'llab-quvvatlashda davom etadi. Biz IUCN vositalari va standartlarini, jumladan, IUCN Yangi ro'yxatini, turlarni boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni hamda zoonoz kasalliklarni tadqiq qilish va texnologiya sohasidagi so'nggi yutuqlarni qo'llash bo'yicha mintaqaviy salohiyatni oshirishda davom etamiz”, – dedi IUCN bosh direktori Gretel Aguilar.

“So'nggi bir necha yil ichida biz COVID-19 kabi zoonotik kasalliklarning tarqalishi global ta'sirga ega bo'lishi mumkinligini ko'rdik. Bu butun mammalatlarning demobilizatsiyasiga, transport aloqalarining uzilishiga, oziq-ovqat xavfsizligi muammolarining keskinlashishiga va ulkan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keldi, – dedi O'zbekiston Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov. – Qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni barqaror boshqarish, noyob biologik xilma-xillikni saqlash va Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik muvozanatni mustahkamlash bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish tarafdomiz”.

Markaziy Osiyoda zoonoz kasalliklar xavfi biologik xilma-xillikning yo'qolishi va inson hamda yovvoyi tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi o'zgarishlar tufayli kuchaymoqda. Yangi tashabbusga ko'ra, IUCN hamda milliy va xalqaro hamkorlar, jumladan, barcha beshta Markaziy Osiyo davlati zoonoz kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi. Mutaxassislar qo'riqlanadigan hududlarningadolatli va samarali mintaqaviy tarmog'ini birlashtirish, kasallik xavfini kamaytirish uchun tabiatni muhofaza qilish va yovvoyi tabiatni boshqarishni kuchaytirishga e'tibor qaratadi.

Yirik mintaqaviy tashabbus Markaziy Osiyoda “Yagona salomatlik” yondashuvini amalga oshirishga yordam beradi. “Markaziy Osiyoda tabiatni muhofaza qilish tizimini mustahkamlash orqali paydo bo'layotgan zoonoz kasalliklarga landshaftning chidamliligini oshirish” to'liq sarlavhali tadbirdarda inson, hayvonlar va atrof-muhit salomatligining o'zaro ta'siriga e'tibor qaratiladi va murakkab muammolarni hal qilishda yaxlit yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

“Yashash joylarining yo'q bo'lishi biologik xilma-xillik yo'qolishining asosiy sababi bo'lib, yovvoyi hayvonlarni ekspluatatsiya qilish va ularning yashash joylarini yo'q qilish bilan bog'liq inson salomatligi uchun ko'plab xavflar mavjud. “Yagona salomatlik” yondashuvi Markaziy Osiyo uchun muhim, chunki yovvoyi hayvonlar, chorva mollari, odamlar va ularning ekotizimlari salomatligi bir-biriga bog'liq”, – dedi Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash bo'yicha konvensiyaning ijrochi kotibi Emi Frankel.

Kelgusida IUCN, milliy va xalqaro hamkorlar, jumladan, Markaziy Osiyoning barcha beshta davlati zoonoz kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha “Markaziy Osiyoda yagona salomatlik” loyihasini amalga oshiradi. Mutaxassislar qo'riqlanadigan hududlarningadolatli va samarali mintaqaviy tarmog'ini mustahkamlash, kasallik xavfini kamaytirish uchun tabiatni muhofaza qilish va yovvoyi tabiatni boshqarishni kuchaytirish, zoonoz kasalliklarni tadqiq qilish va texnologiya sohasidagi so'nggi yutuqlarni ilgari surish ustida ish olib boradi.



TOJIKISTON BILAN MINTAQADA TRANSCHEGARAVIY HAMKORLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASHGA KELISHIB OLINDI

Samarqanda bo'lib o'tayotgan CMS COP14 xalqaro konferensiysi doirasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Tojikiston Respublikasi Hukumati huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi Bahodur Sheralizoda bilan uchrashdi.

Uchrashuv avvalida vazir yuqori martabali mehmonga "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risida"gi konvensiya ishtirokchilari konferensiyasining 14-yig'ilishiga tashrif buyurgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Shuningdek, yurtimizda 2018-yildan buyon Orol dengizining qurigan tubida o'rmon ekish dasturi amalga oshirilayotgani, bugungi kunga qadar qariyb 2 million hektar maydonda ishlar olib borilgani, 2021-yil kuzida "Yashil makon" umummilliy tashabbusi boshlangani, uning doirasida har yili 200 million tupdan ortiq daraxt ekilib, yashil maydonlar maydonini 30 foizga yetkazish ko'zda tutilgani haqida ma'lumot berildi.

"Biz qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tarmoqlarini kengaytirish bo'yicha faol siyosat olib boryapmiz, ularning hududi so'nggi yillarda butun respublika hududining 14 foizini tashkil etdi. Ishonchimiz komilki, bu sa'y-harakatlardan BMTning ekotizimlarni tiklash bo'yicha o'n yilligining maqsad va vazifalariga mos keladi", – dedi Aziz Abduhakimov.

Shuningdek, uchrashuvda transchegaraviy hamkorlikni mustahkamlash masalasiga e'tibor qaratildi. Aziz Abduhakimov O'zbekistonda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi

(IUCN) ofisining ochilishi transchegaraviy ob'yektlarni boshqarish bo'yicha uzoq muddatli chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ochilish marosimidagi tabrigida ta'kidlanganidek, biz Markaziy Osiyoda mintaqaviy muloqotni yaxshilash va transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirish tarafdiriz. Mamlakatlarimizning transchegaraviy hududlarida Markaziy Osiyoda transchegaraviy muhofaza qilinadigan tabiiy hududni yaratishdan manfaatdormiz», – dedi u.

Qolaversa, Tojikistonning ham Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston qatorida "Raptors" memorandumiga qo'shilishi quvonarli ekanligini qayd etildi.

Ma'lumot uchun, "Raptors" ("Yirtqich qushlar") Afrika va Yevroosiyoda ko'chmanchi qushlarni saqlash bo'yicha CMS memorandumi bo'lib, xalqaro muvofiqlashtirilgan harakatlarni rag'bathantirishga qaratilgan. "Raptors" memorandumi yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risidagi konvensiyaga (CMS) muvofiq ishlaydigan hujjatlardan biridir.

Uchrashuv yakunida mintaqada qulay ekologik vaziyatni ta'minlashda yanada faol hamkorlik qilishga kelishib olindi.



O'ZBEKISTONDAGI NOYOB KO'CHMANCHI HAYVONLAR KO'RGAZMASI OCHILDI

Joriy yilning 13-fevral kuni Samarqand shahridagi "Buyuk Ipak yo'li" san'at qarorgohida Yovvoyi tabiatning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash bo'yicha konvensiya ishtirokchilari konferensiyanining 14-yig'ilishiga (CMS COP14) bag'ishlangan "Ko'chib yuruvuchi noyob hayvonot olami" nomli rasmlar ko'r gazmasi ochildi.

Tadborda O'zbekiston Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, Tojikiston Respublikasi Hukumati huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi Bahodur Sheralizoda, BMT Bosh kotibi o'rribosari, BMT Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen, Suvli-botqoqli yerlar bo'yicha Ramsar konvensiyasi Bosh kotibi Musonda Mumba, rassomlar, talabalar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

"Ijodiy plenerdan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan noyob ko'chmanchi jonivorlarga mehr-muhabbat tuyg'usini kuchaytirish, mamlakatimizning noyob tabiiy merosini namoyish etish, yosh avlodning ekologik madaniyati va ongini yuksaltirishdan iborat, — dedi Aziz Abduhakimov."



Ko'r gazmada 2024-yil yanvar oyida Ekoliya vazirligi, Badiiy akademiya va O'zbekiston Davlat san'at muzeyi hamkorligida tashkil etilgan plener natijasida 40 nafar yosh rassomning 100 ga yaqin rasmlari namoyish qilindi.

Ko'r gazma natijalariga ko'ra, eng yaxshi asarlar nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan tanlab olinadi va ularning mualiflari pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

"COP14 - YASHIL JAMOAT PARKI"da daraxt ko'chatlari o'tqazildi

CMS COP14 xalqaro konferensiysi doirasida Samarqand tumani "Yangijoy" mahallasi hududida "COP14 - Yashil jamoat parki" barpo qilindi.

Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Aziz Abduhakimov, BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risidagi konvensiyasi ijrochi kotibi Emi Frenkel, xalqaro delegatsiyalar vakillari va xorijlik mehmonlar ishtirokida bog'da shumtol, zarang, yapon saforasi, Qrim qarag'ayi va boshqa daraxt ko'chatlari o'tqazildi.



"Yurtimizda daraxt ko'chatlari o'tqazish yaxshi an'anaga aylandi. Har bir xalqaro darajadagi tadborda, albatta, xorijlik mehmonlarni daraxt ekishga jalb qilyapmiz. Natijada ko'plab parklar, bog'lar barpo bo'lmoqda, — dedi Aziz Abduhakimov. — "COP14 — Yashil jamoat parki" 4,5 hektar maydonni egallaydi, bu yerda ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni asrash to'g'risidagi konvensiya, tadbir davomida erishilgan natijalar, kelishuvlar, umuman, COP14 haqida tushuncha va boshqa kerakli ma'lumotlar joylashtiriladi. Eng muhim, ushbu park havoni tozalashga xizmat qiladi".

Parkda jami 2500 tup turli daraxtlar eklidi. Shuningdek, savdo do'konlari, avtoturargoh, shaxmat maydonchalar quriladi. Park aholi uchun har tomonlama qulay bo'lgan madaniy hordiq maskaniga aylanadi.

Ma'lumot uchun, Samarqandda o'tkazilgan BMTning Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi (CRIC-21) ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 21-sessiyasi doirasida "CRIC-21 yashil bog'i" yaratilgandi.





GEF MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI O'RTASIDA EKOTIZIMLARNI TIKLASH SOHASIDA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH UCHUN 26 MILLION DOLLAR GRANT AJRATADI

13-fevral kuni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov va Global ekologik fond (GEF) rahbari Karlos Rodriges o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Vazir GEF rahbarini joriy yilning fevral oyi boshida Vashingtonda (AQSH) Global ekologik fond kengashining 66-yig'ilishi muvaffaqiyatlari o'tkazilgani bilan tabrikladi va mintaqaviy loyi-halarni rivojlantirishdagi hamkorlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Markaziy Osiyo vazirlari ekotizimlarni tiklash va iqlim o'zgarishining oldini olish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikka tayyor. Beshta davlat bir-biriga bog'langan, Markaziy Osiyo mintaqasi esa bir ekotizimdir, — dedi Aziz Abduhakimov.

Ma'lumot uchun, GEF Kengashining 66-yig'ilishi doirasida Ekotizimni tiklash, tabiiy resurslarni boshqarishni yaxshilash va mustahkamlikni oshirish uchun Markaziy Osiyo suv va quruqlik aloqalari(CAWLN) Mintaqaviy dasturining 5 ta loyihasiga 26 million dollar ajratildi.

Ta'kidlash joizki, umumiy qiymati 18,6 million dollar bo'lgan beshta loyihadan to'rttasi O'zbekiston ishtirokida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ko'magida amalga oshiriladi. Bu loyihalarga Markaziy Osiyoning zaif ekotizimlerida yerlarni tiklash, Amudaryo, Zarafshon, Panj, Sirdaryo

GPEC YANGI LOYIHASINING ISHGA TUSHIRILISHIGA BAG'ISHLANGAN TADBIR

CMS COP14 doirasida Samarqandda Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha global hamkorlik (GPEC) yangi loyi-hasining ishga tushirilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, CMS ijrochi kotibi Emi Frenkel, IUCN Butunjahon muhofaza etiladigan tabiiy hududlar komissiyasi raisi Madhu Rao, Yirik landshaftlarni saqlash markazi (CLLC) bosh ijrochi direktori, IUCN WCPA tabiatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar guruhi raisi Gari Tabor, Wildlife Connect tashabbusi rahbari Rafael Antelo, «Climate Chance»



va Norin daryolari havzalarida suv resurslarini kompleks boshqarishni kuchaytirish, ekotizimlar va bioxilma-xillikni saqlashni yaxshilash uchun tabiiy resurslarni kompleks boshqarish kabilar kiradi.

O'z navbatida Karlos Rodriges O'zbekiston tomonini Hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risidagi konvensiya ishtirokchilari konferensiyasining 14-yig'ilishi muvaffaqiyatlari o'tayotgani bilan tabrikladi va ushbu tadbir Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari vazirlarini samarali qarorlar qabul qilish uchun birlashtirish imkonini bergenini ta'kidladi.

Men vazirga Global ekologik fondning moliyaviy ko'magida mintaqaning zaif ekotizimlarini himoya qilish va saqlashga qaratilgan hamkorlikning yangi davrini boshlashga yo'l ochib berishdagi xizmatlari uchun o'z minnatdorchiligidanni bildirmoqchiman, — dedi GEF bosh direktori Karlos Rodriges.

Muzokaralar chog'ida Ochiq dengiz bo'yicha xalqaro shart-noma, "Central Asian Green University" bilan hamkorlik qilish va boshqa masalalar muhokama qilindi.

assosiatsiyasi prezidenti Ronan Dantek, Bioxilma-xillik, tabiat va salomatlik (ICLEI Africa) direktori Ingrid Koetzi va boshqalar ishtirok etdi.

“O'zbekiston ushbu yangi hamkorlikka muhim hissa qo'shishdan va loyiha muvaffaqiyatining ajralmas qismi bo'lgan uzoq muddatli majburiyatlarni taklif qilishdan mammun. Yangi Global hamkorlikning yaratilishi bizning jamoaviy sa'y-harakatlarimizda burilish nuqtasi bo'ldi. U turli manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlik platformasini ta'minlaydi, butun dunyo bo'ylab ekologik aloqalarni saqlash, kengaytirish va tiklash bo'yicha strategiya-larni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga yordam beradi”, — dedi Aziz Abduhakimov o'zining nutqida.

Sessiya davomida Emi Frankel loyihani taqdim etdi va uning ahamiyati haqida gapirdi.

Tadbirda GPEC loyihasi ekologik bog'liqlikning asosiy ustuvor yo'nalishlarini hal etish, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish, milliy, transchegaraviy va xalqaro miqyosda aloqalarni saqlab qolish hamda tiklash bo'yicha siyosat va tadbirlarni kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga hissa qo'shishi ta'kidlandi. Loyerha 4 ta asosiy jihatga: tadqiqot, ma'lumotlar va monitoring; ekologik siyosat va qonunchilik; samarali bajarish; xabardorlikni oshirish va tushuntirish ishlarini olib borishga qaratiladi.

O'ZBEKISTONDA SUVLI-BOTQOQLI YERLARNI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA MILLIY STRATEGIYA ISHLAB CHIQILADI

Samarqandda bo'lib o'tayotgan CMS COP14 xalqaro konferensiysi doirasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Suvli-botqoqli hududlar to'g'risidagi "Ramsar" konvensiyasi bosh kotibi Musonda Mumba bilan uchrashdi.

Vazir yuqori martabali mehmonga Samarqandga tashrifi va Yovvoyi tabiatning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risidagi konvensiyasi ishtirokchilari konferensiyasining 14-yig'ilishidagi ishtiroki uchun minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda O'zbekiston, xususan, Samarqand global ekologik muloqotlar markaziga aylanayotgani, yaqinda BMT ning Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi (CRIC-21) o'tkazilgani va aprel oyida Samarqand Iqlim bo'yicha xalqaro forumga mezbonlik qilishi ta'kidlandi.

“Atrof-muhitni muhofaza qilish O'zbekiston hukumi uchun chinakam ustuvor vazifaga aylandi. Mamlakat Prezidentining Dubayda bo'lib o'tgan COP28 iqlim sammitidagi ishtiroki ham fikrimizning isbotidir. Davlatimiz rahbari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish mexanizmlarini yanada qattiqroq qo'llash, muqobil energiya məməlalariga o'tish va ekologik ta'limni kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda, — dedi Aziz Abduhakimov. — Biz Markaziy Osiyo mintaqasi global iqlim muammolarini bartaraft etish, umumiy farovonlik yo'lida birlashishi tarafdarimiz.”

Uchrashuv davomida "Ramsar" konvensiyasi bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi. Vazir "Jiltirbas" ko'li xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvli-botqoqli yerlar ro'yxatiga kiritilgani uchun tashakkur bildirdi.

Ma'lumot uchun:

Bugungi kunda O'zbekistonning 5 ta hududi "Ramsar" konvensiyasi ro'yxatiga kiritildi. Bular: "Dengizko'l" ko'li (2001), Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi (2008), "To'dako'l" va Quyimozor suv havzalari, Sudochye (2023) hamda "Jiltirbas" (2024).



“Jiltirbas ko'lining xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvli-botqoqli hududlar ro'yxatiga kiritilishi biz uchun ushbu hududda tabiatni muhofaza qilish choralarini yanada kuchaytirishga qonuniy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu yerda ekoturizmni rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi”, — dedi Aziz Abduhakimov.

Uchrashuvda, shuningdek, GIZ tashkiloti bilan hamkorlikda "Sudochye" ko'li hududini boshqarish, suvli-botqoqli yerlarni muhofaza qilish bo'yicha Milliy strategiya ishlab chiqish rejalashtirilayotganligi qayd etildi. Bu strategiya "Ramsar" ob'yeqtalarini qamrab oladi va suvli-botqoqli yerlar hamda suv havzalarini muhofaza qilishni kuchaytirishga zamin yaratadi.

Uchrashuv davomida Musonda Mumba ekologiya sohasidagi fidoyi xizmatlari uchun «Tabiat himoyachisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Aziz Abduhakimov «Ramsar» bosh kotibiga atrof-muhitni muhofaza qilishga qo'shayotgan hissasi uchun minnatdorlik bildirdi.

Yakunida atrof-muhit va suvli-botqoqli yerlarni asrashga qaratilgan amaliy ishlar va tashabbuslarni yo'lga qo'yish, O'zbekistonda, shuningdek, mintaqaviy miqyosda — Markaziy Osiyoda "Ramsar" ob'yeqtulari tarmog'ini rivojlantrish va suv qushlari turlarini transchegaraviy saqlash, "Ramsar" ob'yeqtalarida turizm imkoniyatlarini o'rganish, jamoatchilik va yoshlarni jaib qilish borasida hamkorlikni kuchaytirishga kelishib olindi.

OSIYO GEPARDLARINI O'ZBEKISTONGA QAYTARISH VA KO'PAYTIRISH BORASIDA MILLIY REJA ISHLAB CHIQISH MASALASI MUHOKAMA QILINDI



Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiya ijrochi kotibi Devid Kuper bilan uchrashdi.

Vazir O'zbekiston hukumati nomidan yuqori martabali mehmonga CMS COP14 xalqaro konferensiyasidagi ishtiroki uchun samimi minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, yurtimizda atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi izchil islohotlarga e'tibor qaratildi.

"2023-yil O'zbekistonda ekoliya sohasida ulkan o'zgarishlar yili bo'ldi. Hukumat tomonidan dolzarb ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Biz atrof-muhitni muhofaza qilish kompleksini tubdan o'zgartirish jarayonidamiz", – dedi Aziz Abduhakimov.

Shu bilan birga, vazir O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash borasida ham qator ishlar qilinayotganligini qayd etdi.

"Oxirgi 6 yil ichida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qamrovi 4 foizdan 14 foizga oshirildi. Hozirda 6 million getkarga teng muhim biologik xilma-xillik hududlarini himoya qilyapmiz, – dedi u. – Tanazzulga uchragan yashash joylarini tiklash juda muhim. Shuning uchun O'zbekistonda keng ko'lamli o'rmonlar barpo etishga e'tibor qaratilmoqda, jumladan, Orol dengizi tubining 2 million getkardan ortiq maydoni qamrab olingan".

Uchrashuvda O'zbekistonda ekotizim muvozanati va barqarorligini saqlaydigan turlarni qayta tiklash bo'yicha ilg'or loyihiilar ustida ishlanayotganligi qayd etildi. Jumladan, "Jayron" Buxoro ixtisoslashgan pitomnigi tashkil qilinganli-



gi, pitomnik yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlarning populyatsiyasini tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuqori samarali naschilik markazi hisoblanishi ta'kidlandi. Qolaversa, gepard kabi turlarni qayta tiklash bo'yicha ham yana katta rejalar mavjudligi aytildi.

"O'zbekistonda yo'qolib ketish xavfi ostida turgan Buxoro bug'ularining eng ko'p populyatsiyasi yashaydi. Biz ushbu noyob tur uchun qo'riqlanadigan hududlar tarmog'ini kengaytirish va takomillashtirish ustida ishlamoqdamiz", – dedi vazir.

Uchrashuv davomida Bioxilma-xillik bo'yicha Kunming-Monreal global dasturi (GBF) fondi tashkil etilishi muhim va quvonchli yangilik ekanligi ta'kidlandi.

Yakunda biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan loyihiarda hamkorlik qilish, Osiyo gepardlarini O'zbekistonga qaytarish va ko'paytirish borasida Milliy reja ishlab chiqish va uni qo'llab-quvvatlash, muhofaza etiladigan hududlar va tabiiy bog'larda turizm imkoniyatlarini o'rganish, jamoatchilik va yoshlarni jalb qilish masalari muhokama qilindi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Jahon bankining Atrof-muhit, tabiiy resurslar va moviy iqtisodiyot bo'yicha global direktori Valeri Xikey bilan uchrashdi. Uchrashuvda barqaror yashil iqlim borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

O'ZBEKISTONDA 6 TA TRANSCHEGARAVIY MUHOFAZA HUDUDINI BARPO ETISH MASALASI MUHOKAMA QILINDI

Valeri Xikey Jahon banki ilk marotaba ko'chib yuruvchi turlarni muhofaza qilishga bag'ishlangan konvensiyada ishtirok etayotganligini va Samarqandga kelganidan juda mammunligini bildirdi. Shuningdek, O'zbekistonda yovvoyi hayvonlarning yo'qolib ketayotgan turlarini qayta tiklash borasida muhim ishlar qilinayotganini ta'kidladi.

Shu bilan birga, uchrashuvda chiqindilarni boshqarish sohasida olib borilayotgan islohotlar alohida qayd etildi.



"O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish sohasiga katta e'tibor qaratilyapti. Bu esa maqsadlarimiz mushtarak ekanligini anglatadi, – dedi Valeri Xikey. – Bundan tashqari, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish va ularni saralash, sohadagi tadbirkorlar va ishchilarning ham davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bizni O'zbekiston bilan hamkorlik qilayotganimizdan xursand qiladi".

O'z navbatida Aziz Abduhakimov mamlakatimizda soha oldiga qo'yilgan maqsadlar, xususan, chiqindilarni boshqarish tizimini samarali yo'lga qo'yish, aylanma iqtisodiyotni tatbiq etish va "nol chiqindi" tamoyilining muhimligi haqida so'z yuritdi.



"Endi chiqindilar iqtisodiyotning qimmatli resursiga aylanadi. Biz har tomonlama manfaatli bo'lgan yashil jamiyat qurishni maqsad qilganimiz", – dedi vazir.

Uchrashuv davomida 6 ta transchegaraviy muhofaza qilinadigan hududlarni barpo etishga qaratilgan loyiha muhokama qilindi. Bu loyiha noyob turdag'i hayvonlarni qo'riqlash, asrash bilan birga ekoturizmni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi.

Yakunda chiqindi sohasida yetakchi kompaniyalarini O'zbekistonga jaib qilish, sohaga Jahon banki tomonidan investisiyalarni olib kirish hamda grantlar ajratilishi borasida o'zaro hamkorlik qilishga kelishib olindi.



TOJIKISTON EKOLOGIYA SOHASIDA HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA O'ZBEKİSTON TAJRIBASINI O'RGANİSHDAN MANFAATDOR

16-fevral kuni Samarqandda bo'lib o'tayotgan CMS COP14 xalqaro konferensiysi doirasida Tojikiston Respublikasi Hukumati huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi Bahodur Sheralizoda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga tashrif buyurdi. Yuqori martabali mehmonga vazirlik huzuridagi Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori G'ayrat Muhammedov hamrohlik qildi.

Tashrif davomida Bahodur Sheralizoda vazirlikdagi inspeksiya, ekspertiza faoliyati, "Yashil makon" loyihasi, tabiiy resurslar holati, sanitar faoliyatida billing raqamlashtirilgan tizimlari va boshqa jarayonlar bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, yuqori martabali mehmon vazirlikning Dispetcherlik va onlayn monitoring markazisi boshqarmasida ham bo'ldi. Ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha tajriba almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Atrof-muhit texnologiyalari va innovatsiyalari sohasida tajriba almashish uchrashuvning asosiy nuqtalaridan biri bo'ldi. Mehmonlar muqobil energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni boshqarish

va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha mamlakatimizning ilg'or tajribasini o'rganib, o'z mamlakatlarida ham ana shunday amaliyotni qo'llash imkoniyatidan manfaatdor ekanliklarini bildirdilar.

Bundan tashqari, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan salohiyatli qo'shma loyihalarga e'tibor qaratildi. Bu boradagi o'zaro hamkorlik nafaqat umumiy ekologik muammolarni hal qilishga, balki mamlakatlar o'rtaсидаги do'stona munosabatlarni mustahkamlashga ham hissa qo'shishi qayd etildi.

Tashrif yakunida hamkorlikni yanada rivojlantirish, tajriba almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

THE WORLD'S MIGRATORY

Nº1/2024 • EKOLOGIYA XABARNOMASI

SPECIES REPORT

12 FEBRUAR 2024



KO'CHIB YURUVCHI TURLARNING HOLATI VA ULARNI SAQLAB QOLISH BO'YICHA TAVSIYALARGA BAG'ISHLANGAN HISOBOT TAQDIM ETILDI

CMS COP14 doirasida Samarqandda dunyodagi ko'chib yuruvchi turlarning holati, ularning hayotiga xatarlarni barataf etish va saqlab qolish uchun ko'rileyotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi birinchi batafsil hisobot taqdim etildi.

«Dunyodagi ko'chib yuruvchi turlarning holati» hisoboti BMTning Atrof-muhit dasturi Butunjahon tabiatni muhofaza qilish monitoringi markazi (UNEP-WCMC) ekolog olimlari tomonidan «BirdLife International», Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi («IUCN») va London zoologiya jamiyatasi (ZSL) mutaxassislari fikrlari asosida tayyorlangan.

Hisobotda asosiy e'tibor CMS a'zolari tomonidan xalqaro himoyaga muhtoj deb topilgan va Konvensiya ro'yxatiga kiritilgan 1189 turga qaratilgan. Unda, shuningdek, CMSga kiritilmagan 3000 dan ortiq qo'shimcha ko'chib yuruvchi turlar tahlil qilingan.



“Bugungi hisobot shuni ko'rsatadiki, insонning beqaror faoliyati nafaqat atrof-muhit, balki sayyoramizning murakkab ekotizimlari barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan ko'chib yuruvchi turlar kelajagiga tahdid solmoqda. Jahon hamjamiyatida ko'chib yuruvchi turlar duch keladigan muammolar haqidagi eng so'nggi ilm-fan yutuqlarini tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan aniq harakatlarga aylantirish imkoniyati mavjud. Ko'chib yuruvchi hayvonlar uchun vaziyat og'ir ekanligini inobatga olgan holda kerakli choralarни kechiktira olmaymiz va tavsiyalarni haqiqatga aylantirish uchun birgalikda harakat qilishimiz kerak, — dedi BMT Bosh kotibi o'rinnbosari, tashkilotning Atrof-muhit bo'yicha dasturi ijrochi direktori Inger Andersen.



“Ko'chib yuruvchi turlarning hayoti o'ziga xos yashash joylariga bog'liq. Ular doimiy ravishda, ba'zan minglab kilometrlarni bosib o'tadi. Ko'chib yuruvchi turlar boradigan joylarida juda katta qiyinchilik va tahdidlarga duch kelishadi. Ular chegaralarni kesib o'tganida xavfsiz yashashi ular yashayotgan mam-lakatlarning sa'y-harakatlariga bog'liq. Ushbu muhim hisobot ko'chib yuruvchi turlarning butun dunyo bo'ylab rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan siyosiy harakatlarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, — dedi CMS Ijrochi kotibi Emi Frankel.

Ko'chib yuruvchi turlar uchun ko'payish, oziqlanish va yashash joylarini muhofaza qilish bo'yicha yo'l xaritalarini tuzish hamda tegishli choralar ko'rish asosiy ustuvor vazifalardan biridir. Hisobotda ko'plab turlarning xavotirli vaziyatiga e'tibor qaratish bilan birga, mahalliydan xalqa-rogacha bo'lgan muvaffaqiyatli siyosiy o'zgarishlar va ijobiy harakatlar misollari keltirilib, populyatsiyalar va umuman turlarning tiklanishi mumkinligini ham ko'rsatadi. Bunga Kiprda qushlarning noqonuniy ov qilinishini 91 foizga qisqartirgan chora-tadbirlar va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan sayg'oqni qayta tiklash bo'yicha Qozog'istonda amalga oshirilgan sa'y-harakatlarni misol qilib keltirish mumkin.

XAVF OSTIDAGI 399 TA KO'CHIB YURUVCHI
TURLAR CMS RO'YXATIGA KIRITILMAGAN

KO'CHIB YURUVCHI TURLARNING HOLATI TO'G'RISIDA HISOBOT

CMS RO'YXATIDAGI BALIQLARNING
97 FOIZI XAVF OSTIDA

NAFAQAT KO'CHIB YURUVCHILAR.
BAKKI BOSHQA TURLARNING HAM YO'Q BO'LIP
KETISH XAVFI ORTIB BORMOQDA

KO'CHIB YURUVCHI 4 TURDAN 3 TASI YASHASH
MUHITINI YO'QOTISH, DEGRADATSIYA VA
PARCHALANISHDAN AZIYAT CHEKADI

KO'CHIB YURUVCHI 10 TURDAN 7 TASI HADDAN
TASHQARI EKSPLUATATSIYADAN JABR KO'RADI.

IQLIM O'ZGARISHI, IFLOSLANISH VA INVAZIV
TURLAR HAM KO'CHIB YURUVCHI TURLARGA
KATTA TA'SIR KO'RSATADI

KO'CHIB YURUVCHI TURLARNING
DEYARLI YARMI (44 FOIZI) KAMAYIB
BORMOQDA

KO'CHIB YURUVCHI HAYVONLAR
KONVENSIYASI RO'YXATIDAGI
HAR BESHINCHI TUR YO'QOLIB
KETISH XAVFI OSTIDA

KO'CHIB YURUVCHILARNING YASHASH
JOYLARINING YARMI QO'RQLANMAYDI
VA SALBIY ANTROPOGEN TA'SIRGA
DUCHOR BO'LMOQDA

HADDAN TASHQARI EKSPLUATATSIYA VA
INSON FAOLIYATI NATIJASIDA YASHASH
JOYLARINI YO'QOTISH IKKITA ENG KATTA
TAHDID SIFATIDA TAN OLINGAN

Samarqandda yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risidagi konvensiya (CMS COP14) ishtirokchilarini konferensiyasining 14-yig'ilishi yakunlandi.

Kelishilgan chora-tadbirlar qatorida ko'chib yuruvchilarning 14 ta turini, jumladan, Yevrosoyo silovsini, manul mushugi kabi hayvonlarni Konvensiyaga kiritish ham bor. Konvensiyaga a'zo 133 davlat vakillari 100 dan ortiq turli mavzularda Samarqand rezolyutsiyasi, qo'shma qarorlar va muvofiqlashtirilgan harakatlarni qabul qildi.

BMTNING GLOBAL KONFERENSIYASIDA YOVVOYI HAYVON-LARNING KO'CHIB YURUVCHI TURLARINI SAQLASH BO'YICHA ASOSIY CHORA-TADBIRLAR MAJMUI QABUL QILINDI



O'zbekiston raisligida bir hafta davom etgan yig'ilishning yakuniy majlisida Aziz Abduhakimov konferensiya ishtirokchilariga yovvoyi tabiatni asrash va barqaror rivojlanish yo'llarini o'zgartirishga ko'maklashayotgani uchun minnatdorlik bildirdi:

"COP14 ko'plab tomonlarning ko'chib yuruvchi turlar va ularning yashash joylarini saqlash hamda barqaror boshqarish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqish hamda chora-tadbirlar ko'rish borasidagi intilish va majburiyatlarini namoyish etdi. O'zbekiston anjumanning asosiy natijalaridan mammun, chunki ular mamlakat hukumatining ustuvor yo'nalishlari va maqsadlariga mos keladi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev konferensiya ochilishidagi nutqida ta'kidlaganidek, mamlakatimizda nafaqat ko'chib yuruvchi turlarni muhofaza qilish, balki tabiiy ekotizimlarni tiklash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda".



Vazir, shuningdek, O'zbekistonda bir paytlar Ustyurt platosida yashagan Osiyo gepardlari kabi yo'qolib ketgan turlarni qayta tiklashga e'tibor qaratilishini aytди.

"Yashash joylarini yo'qotish, ifloslanish, iqlim o'zgarishi va inson hamda yovvoyi tabiat to'qnashuvi kabi tahdidlarga qarshi kurashish bir xil darajada muhimdir. Qisqa vaqt ichida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qamrovini 14 foizga yetkazishga erishdik, keyingi besh yilda esa 20 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. Bir qancha ob'yektlar YUNESKO-ning biosfera rezervatlari tarmog'iga kiritilgan va joriy yig'ilishda O'zbekistonning beshinchi ob'yekti – Jiltirbas ko'li Ramsar konvensiyasining suvli-botqoqli yerlar ro'yxatidan joy oldi".



Ta'kidlash joizki, yigirma yillik samarasiz muzokaralardan so'ng konferensiyada 30 ta ko'chmanchi qushlar yashaydigan hududlarni qamrab oluvchi Markaziy Osiyo

parvoz yo'li bo'yicha kelishuvga erishildi. Qabul qilingan tashabbus Hindistonda muvofiqlashtirish bo'limi tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Aziz Abduhakimov umumiy tabiiy merosni asrab-avaylashda mintaqaviy sa'y-harakatlar muhimligini ta'kidladi:

"Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy hamkorlik va yaqin sheriklik bizning asosiy ustuvor yo'nalishlarimizdan biridir. Biz umumiylar tarix, madaniyat, ekologik va iqlimi xususiyatlar hamda ko'chib yuruvchi turlarga egamiz. Shu bois Qirg'iziston va Qozog'iston bilan qor qoplonlarini asrab-avaylash borasidagi sa'y-harakatlarimizni ilgari surish bo'yicha kelishuvga erishganimiz, Afrika va Yevroosiyoda ko'chmanchi yirtqich qushlarni asrash bo'yicha hamkorlik memorandumini imzolaganimiz mintaqaviy sheriklikka qat'iy intilayotganimizdan dalolatdir. Bundan tashqari, biz Tojikiston Respublikasi bilan Zarafshon daryosi bo'ylab transchegaraviy qo'riqlanadigan hudud yaratish ustida ishlayapmiz".



Xulosa qilib aytganda, vazir iqlim o'zgarishi masalasi hukumat uchun strategik ustuvor vazifa ekanini ta'kidladi:

"Prezident huzurida Iqlim kengashi va Milliy iqlim markazi tashkil etildi hamda iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish bo'yicha idoralararo hamkorlikni kengaytirish, iqlim bo'yicha oqilona va ilmiy asoslangan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklandi".



BMTNING YOVVOYI HAYVONLARNING KO'CHIB YURUVCHI TURLARINI SAQLASH TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYASI TOMONLAR KONFERENSIYASINING 14-YIG'ILISHIGA (CMS COP14) OID MATERIALLAR EKOLOGIYA VAZIRLIGI MATBUOT XIZMATI BILAN HAMKORLIKDA TAYYORLANDI.

COP14 ning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

- iqlim o'zgarishini hal qilishni kuchaytirish va ko'chib yuruvchi yovvoyi tabiat bo'yicha iqlim o'zgarishi hisobotini tasdiqlash;
- ko'chib yuruvchi turlarni noqonuniy ovlashga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish;
- ekologik bog'lilikni rivojlantirish bo'yicha harakatlar to'g'risidagi bitim;
- yorug'lik ifloslanishining ko'chib yuruvchi turlarga ta'siri bo'yicha yangi global ko'rsatmalar;
- chiziqli infratuzilmani rivojlantirish va ta'sirni baholash masalalarini hal qilish bo'yicha tavsiyalar;
- "Hasharotlarning kamayishi va uning ko'chib yuruvchi go'shtxo'r populyatsiyalarga tahdidlari" nomli yangi ilmiy hisobotni ma'qullash va CMS Ilmiy kengashini yangi tavsiyalar ishlab chiqishga chaqirish;
- yovvoyi tabiatning salomatligi to'g'risida yangi qaror qabul qilinishi, Konvensiya ishtirokchilarini "Ko'chib yuruvchi turlar va salomatlik: yovvoyi tabiatning ko'chishi va kasalliklari dinamikasi hamda ko'chib yuruvchi turlarning sog'lig'ini yagona salomatlik kontekstida ko'rib chiqish" ilmiy ma'ruzasi tavsiyalarini amalga oshirishga chaqirish;
- 2024–2032-yillarga mo'ljallangan ko'chib yuruvchi turlar bo'yicha yangi, ilmiy asoslangan Samarqand strategik rejasи.

Bundan tashqari, CMS flagman hisobotining ba'zi asosiy tavsiyalariga zudlik bilan javob sifatida COP14 maxsus tadbiri davomida «Dunyodagi ko'chib yuruvchi turlarining holati» Atrof-muhit bilan bog'lilik bo'yicha yangi global hamkorlik (GPEC) ishga tushirildi. Shuningdek, CMS COP14 ko'chib yuruvchi turlar bo'yicha championlar dasturini tantanali ravishda o'tkazdi va to'qqizta championni sa'y-harakatlari va global miqyosdagi sadoqatlari uchun taqdirladi. O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilishga qo'shgan hissasi uchun alohida e'tirof etildi.

Ta'kidlash joizki, Samarqanddagi yig'ilish ko'plab ko'chib yuruvchi turlar, jumladan, sayg'oq, qor qoplonlari va ko'chmanchi qushlarning ko'plab turlari uchun yashash muhitini ta'minlovchi Markaziy Osiyoda o'tkazilgan birinchi global ekologik tadbirga aylandi. Unda 130 mamlakatdan 2000 ga yaqin ishtirokchilar, shu jumladan, 92 ta CMS partiysi, 16 ta BMT agentligi va turli xil ekologik tashkilotlar dan 240 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdi. Bundan tashqari, Konferensiya davrida 110 ta mamlakatda 40 xil tilda 2000 dan ortiq xabarlar orqali 6,5 milliardga yaqin odamga murojaat qilindi.

COP14 yakunida O'zbekiston hukumati CMS COP14 raisi rolini o'z zimmasiga oldi va kelgusi uch yil davomida nafaqat Markaziy Osiyoda, balki dunyoning barcha mintaqalarida ushbu konferensiyaning ko'chib yuruvchi turlar va ularning yashash joylarini saqlab qolish borasidagi faolligini oshirishda davom etadi.



ATROF-MUHITNI ASRASH VA CHIQINDILARNI BOSHQARISHGA OID LOYIHALAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ishlar hamda kelgusi rejalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Ma'lumki, joriy yilning 12-17-fevral kunlari Samarkand shahrida BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi Tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi (COP-14) bo'lib o'tdi. Unda 130 dan ortiq davlatdan 2 mingga yaqin ishtirokchi qatnashdi.

Tadbir yakunlari bo'yicha Konvensiyaga a'zo davlatlar tomonidan ijroga qaratilishi uchun 2024-2032-yillarga mo'ljallangan Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi

turlari bo'yicha Samarqand strategik rejasি tasdiqlandi. Ekologik bog'liqlik bo'yicha global hamkorlik (GPEC) tashabbusi ishga tushirildi.

O'zbekiston BMT konvensiyasiga 2024-2026-yillar uchun prezident sifatida saylandi. Toshkent shahrida Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN)ning Markaziy Osiyodagi ilk vakolatxonasi ochildi. Shuningdek, BMT Atrof-muhit dasturining O'zbekistonda vakolatxonasini ochish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Jahon banki bilan hamkorlikda Markaziy Osiyoda 6 ta transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni barpo etishga qaratilgan loyihani amalga oshirishga kelishildi. Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida qator hujjatlar imzolandi.

Davlatimiz rahbari bu sohadagi hamkorlikni davom ettirib, O'zbekistonning harakatlar rejasini va yangi grant loyihalarini ishlab chiqish, xalqaro ekologiya tashkilotlari va konvensiya bosh qarorgohida soha xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Taqdimotda "O'zbekistonda barqaror o'rmon landschaftlarini tiklash" loyihasi haqida ham axborot berildi.



Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi ushbu loyihaning umumiyligi qiymati 205 million dollardan ziyod bo'lib, 6 yil davomida amalga oshiriladi. Bu mablag' o'rmonlar hududini kengaytirish, o'rmon xo'jaliklari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, barqaror boshqaruvni joriy etish, ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish kabi maqsadlarga yo'naltiriladi.

Xususan, o'rmonlarni tiklash va muhofaza qilishda innovatsion boshqaruv tizimi hamda axborot texnologiyalari joriy qilinadi. Degradatsiyaga uchragan o'rmon yerlari tiklanadi. Chegaradosh hududlardagi landshaftni tiklash bo'yicha qo'shni davlatlar bilan hamkorlik rivojlantiriladi.

Bularning natijasida, jumladan, 175 ming hektar o'rmonlar va 38 ming hektar yaylovlarni qayta tiklash, 19 ming hektarda agroo'rmon va 5 ming hektarda sanatoatbop o'rmonlar barpo etish, 63 kilometr eko yo'laklar tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Joriy yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. Taqdimotda mazkur farmon ijrosi doirasida qilinayotgan ishlar haqida ham axborot berildi.

Yurtimizda yiliga o'rtacha 6,8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi. So'nggi yillarda sanitarni tozalash xizmati bilan qamrab olingan mahallalar soni 90 foizdan oshdi. Lekin chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori emas. Hozirda bunday korxonalar 313 ta xolos.

Prezident farmonida bunday faoliyatni yanada rag'batlantirish choralarini belgilangan. Jumladan, 2024-yil 1-iyundan boshlab maishiy chiqindilar tarkibidagi ikkilamchi xomashyonini realizatsiya qilish faqat birja orqali amalga oshiriladi. Chiqindilarni "qayta ishlanadigan", "qayta ishlanmaydigan" va "oziq-ovqat" toifalariga ajratgan holda yig'ish tashkil etiladi. Chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash sohasida xususiy sheriklik rivojlantiriladi.

Chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlaganlik uchun jarima miqdorini oshirish, chiqindi tashlab ketilgan joyni tozalash va olib chiqib ketish majburiyatini belgilash choralarini kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, taqdimotda maishiy chiqindi poligonlarini optimizatsiya qilish, chiqindilardan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etish masalalari muhokama qilindi.



Xususan, chiqindi poligonlarini investitsiyalar kiritishga jozibador qilish uchun ularning bufer hududlariga maxsus iqtisodiy zonalar rejimini joriy etish, chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi hamda organik usulda o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yiladi. Ushbu yangi tizim bo'yicha birinchi pilot loyiha Andijon viloyatida amalga oshiriladi.

Jumladan, Andijon tumanida 13 million dollar investitsiya evaziga organik chiqindidan 100 ming tonna o'g'it, Asakada chiqindidan yiliga 2 million kilovatt soat elektr ishlab chiqaradigan loyihalar ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda. Kelgusida ushbu Andijon tajribasi yurtimizning boshqa hududlarida ham tatbiq etiladi.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi.



BMT O'ZBEKISTONNING YANA BIR TASHABBUSINI E'TIROF ETDI

So'nggi yillarda O'zbekiston ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan jadal islohotlar yo'liga tushib oldi. Buning samsari o'laroq, mamlakatimizda ekologik muammolarni yumshatish, atrof-muhitni asrash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayni jarayonda 2030-yilgacha mo'ljallangan Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi tasdiqlanganini alohida e'tirof etish zarur.

etishni tavsiya qildi.

Markaziy Osiyo, jumladan Orolbo'y mintaqasidagi ekologik muammolarni hal etishda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini ko'rish bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish muhimligi ta'kidlangan hujjatda mintaqadagi cho'llanish, qurg'ochilik, qum-chang bo'roniga qarshi kurashishga chaqiruvda yangi texnologiya va ilg'or tajriba markaziy o'rinnutadi. Innovatsion yondashuvning ekologik tahdidni yumshatishdagi hal qiluvchi rolini belgilaydi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo va boshqa davlatlar tog' ekotizimini himoya qilish, muzlikni saqlash bo'yicha sa'y-harakatni kuchaytiradi.

Tog' ekotizimini muhofaza qilish va muzlikni asrab-avaylash zarurligi ta'kidlangan rezolyutsiya butun dunyo mamlakatlarini bu boradagi ishlarni faollashtirishga chaqiradi.

Qayd etish kerak, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashda muhim o'rinn egallagan O'zbekiston inson resurslari bo'yicha mintaqanning eng yirik va qudratli davlatlaridan biri sifatida Shavkat Mirziyoyev rahbarligida butun dunyoda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha BMT doirasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga sodiqlik bilan yondashmoqda.

O'zbekiston transchegaraviy daryolarda suv va energiya resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish tarafdir. Markaziy Osiyo va mintaqaning ekologik barqarorligiga ahamiyat beradi. O'zbekistonning Markaziy Osiyoga har tomonlama yondashuvi mintaqada tinchlik, iqtisodiy taraqqiyot va o'zaro manfaatli hamkorlikka ko'maklashishga qaratilgan.

Ahamiyatli jihat, Shavkat Mirziyoyev mamlakatni yanada toza va barqaror muqobil energiya manbalari sari yetaklovchi keng ko'lamlari, ulkan islohotni boshlab berdi. Ushbu bosqichning muhim jihatni 2030-yilgacha mamlakat elektr energiyasining 30 foizini qayta tiklanadigan manbalardan olish g'oyasidir. Bu hayot darajasini oshishga qaratilgan global iqlim tashabbuslari bilan uyg'unlashgan intilishdir.

Davlat rahbarining yashil islohot va qayta tiklanadigan energiyani rag'batlan-tirishga e'tibori barqaror kelajakni shakllantirishga zamin yaratadi. Bundan tashqari Prezident tomonidan 2017-2021-yillarda Orolbo'y mintaqasini rivojlantrish bo'yicha Davlat dasturi qabul qilinib, aholi turmush sharoiti va sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Qoraqalpog'istonni 2020-2023-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish dasturi tasdiqlanishi ham ayni jarayonning mantiqiy davomi, deyish mumkin.

2018-yil Orolbo'y xalqaro innovatsion markazi tashkil etildi. Bu O'zbekistonning innovatsiya va rivojlanishga intilishining amaldagi isbotidir. Davlat rahbarining energetika evolyutsiyasiga oid qarashi nafaqat iqtisodiyotni jonlantiruvchi, balki mamlakatni yashil ertangi kun sari yo'naltiruvchi strategiya bilan hamohang.

Prezident Mirziyoyev BMTda so'nggi o'ttiz yil mintaqada havo harorati bir yarim daraja ko'tarilgani o'rtacha global isishdan ikki barobar ko'pligini alohida ta'kidladi. Natijada muzlik umumiy maydonining uchdan bir qismi yo'q bo'lib ketdi. Bu tendensiya davom etsa, mintaqadagi ikki yirik daryo - Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foiz kamayishi mumkinligidan ogohlantirdi. Aholi jon boshiga suv ta'minoti 25 foiz, ekinlar hosildorligi 40 foiz kamayishi kutilmoqda. O'zbekiston yetakchisi xalqaro hamjamiyatni ushbu masalaga e'tibor qaratib, tegishli choralar ko'rishga chaqirdi.

Xulosa qilib aytganda, global hamda mintaqaviy ekologik xavf-xatarga qarshi kurashda hamkorlikni yanada kengaytirish juda dolzarb. Zero, manfaatdor tomonlar mintaqada iqlim o'zgarishi ta'siriga chidamlikni oshirish bo'yicha hamkorlik qilish va jarayonni qo'llab-quvvatlash orqali Markaziy Osiyodagi dolzarb ekologik muammolarni hal qilishi, mintaqaning barqaror va farovonliq bilan alohida e'tirof etish zarur.

Xolid Taymur Akram,
Pokiston tadqiqot markazi
ijrochi direktori.

O'tgan yil 19-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Markaziy Osiyoniyi qiyinayotgan dolzarb ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan rezolyutsiyani bir ovozdan ma'qulladi. O'zbekiston boshchiligidagi qator davlatlar koalitsiyasi hammuallif bo'lgan ushbu taklif mintaqamizning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda jamoaviy harakatlarga sodiqligini tasdiqlaydi.

"Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" nomli rezolyutsiyada iqlim o'zgarishi davrimizning barqaror rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'layotgan eng murakkab muammolaridan biri sifatida ifodalangan. O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari ushbu muammoni hal qilishga bevosita salmoqli hissa qo'shish barobarida mintaqadagi ekologik muammolarga xalqaro hamjamiyat e'tiborini jalb qilishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari suryapti.

Masalan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan BMTning Orolbo'y mintaqasida inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik Trast fondi faoliyatiga alohida e'tibor berilib, dengiz qurishi oqibatini yumshatish borasidagi sa'y-harakatlarga butun dunyo ahamiyat qaratayti.

Rezolyutsiya Markaziy Osiyoda iqlim va ekologik tahidlilarga samarali qarshi turish, jumladan barqaror qishloq xo'jaligi, obodonlashtirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, energiya samadarligi, chiqqindini qayta ishlash, barqaror turizmni rivojlantrish, "aqlli shaharlar"ni yaratishga doir tavsiyalarni qamrab olgan. Bosh Assambleya BMT tizimi, xalqaro va moliya instituti, xususiy sektor, investor va donorlarga Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarni hal qilish uchun yetarli resurs safarbar etish, mavjud salohiyatni oshirish va yordam ko'rsatishda davom etishni tavsiya qildi.

Markaziy Osiyo va mintaqaning ekologik barqarorligiga ahamiyat beradi. O'zbekistonning Markaziy Osiyoga har tomonlama yondashuvi mintaqada tinchlik, iqtisodiy taraqqiyot va o'zaro manfaatli hamkorlikka ko'maklashishga qaratilgan.

Ahamiyatli jihat, Shavkat Mirziyoyev mamlakatni yanada toza va barqaror muqobil energiya manbalari sari yetaklovchi keng ko'lamlari, ulkan islohotni boshlab berdi. Ushbu bosqichning muhim jihatni 2030-yilgacha mamlakat elektr energiyasining 30 foizini qayta tiklanadigan manbalardan olish g'oyasidir. Bu hayot darajasini oshishga qaratilgan global iqlim tashabbuslari bilan uyg'unlashgan intilishdir.

Qurilish maydonlarida havoni ifloslantirmaslik uchun

MAJBURIY TALABLAR JORIY QILINADI

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoniga belgilab qo'yildi.

Farmonga ko'ra, shuningdek, 2024-yilda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko'chatlari, qalamchali ekiladi, 444 ta yashil bog'lar barpo qilinadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda chang bo'ronlariga qarshi kurashish va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish doirasida 2024-yil 1-martdan boshlab:

- hududlarda chang bo'roni sodir bo'layotganda va atmosfera havosida mayda dispers zarrachalari belgilangan normadan yuqori bo'lgani aniqlanganda aholini ogohlantirish, yurak-qon tomir va nafas yo'llari kasalliklariga chaligan hamda sog'lig'i havoning ifloslanishiga ta'sirchanligi yuqori bo'lgan boshqa fuqarolarni zarur profilaktik choralar to'g'risida doimiy xabardor qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

- o'lchami 500 metr kvadrat va undan ortiq bo'lgan qurilish maydonlarida, unga kirib-chiqish yo'llarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etish bo'yicha majburiy talablar joriy qilinadi;

- Toshkent shahrida yuk tashish uchun mo'ljallangan, ruxsat etilgan to'la vazni 10 tonnadan yuqori bo'lgan N2,

N3, O4 toifaga kiruvchi avtotransport vositalarining harakati tig'iz vaqt oraliqlarida taqilanganadi. Bunda ushbu cheklovlar maxsus xizmat, shu jumladan, kommunal xo'jaligi, obodonlashtirish va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yuk transporti vositalariga tatbiq etilmaydi.

Shuningdek, 2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida "YEVRO – 5" va undan yuqori standartlariga muvofiq bo'lмагan avtomashinalar ekspluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklanadi.

Qolaversa, Toshkent shahrida har oyning bir ish kuni davomida avtomobillar harakatlanishini (jamoat transportlari, maxsus va shoshilinch yordam xizmatlaridan tashqari) qisqartirishga qaratilgan "Avtomobilsiz kun" jamoatchilik loyihasi amalga oshiriladi. Bunda binosi Toshkent shahrida joylashgan barcha respublika va hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbar va boshqa xodimlari jamoat transportida ish joyiga kelishi orqali namuna ko'rsatib boradi. Bu ekologiyaga avtomobillar chiqindi gazlarining zararli ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.



"O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASINI "YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI"DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA"GI FARMON



2024-YILDA

- "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA KAMIDA 200 MILLION TUP KO'CHAT O'TQAZILADI
- RESPUBLIKADA 444 TA YASHIL BOG' BARPO QILINADI



2024-YIL 1-MARTDAN:

- QURILISH MAYDONLARIDA HAVONI IFLOSLANTIRMASLIK UCHUN MAJBURIY TALABLAR JORIY QILINADI
- TOSHKENT SHAHRIDA VAZNI 10 TONNADAN YUQORI BO'LGAN YUK MASHINALARI HARAKATI TICIZ VAQT ORALIQLARIDA TAQIQLANADI



2030-YILGA QADAR

- TOSHKENT, NUKUS SHAHRLARI, VILOYATLAR MARKAZLARIDA "YEVRO – 5" VA UNDAN YUQORI STANDARTLARIGA MUVOFIQ BO'LмагAN AVTOMASHINALAR HARAKATI BOSQICHMA-BOSQICH CHEKLANADI
- TOSHKENT SHAHRIDA HAR OYNING BIR ISH KUNI "AVTOMOBILSIZ KUN" DEB E'LON QILINADI

EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRINING AXBOROTI TINGLANDI



Joriy yilning 30-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida navbatdagi parlament eshitivi bo'lib o'tdi. Unda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Toshkent shahrida atmosfera havosi iflosanishining sabablari, ko'rileyotgan chora-tadbirlar haqida axborot berdi.

Vazir "O'zbekiston – 2030" strategiyasida atrof-muhitni muhofaza qilishga doir qator vazifalar belgilanganini, Prezident tomonidan oxirgi 2-3 oyda ekologiya sohasidagi muammolar yechimiga qaratilgan qator qaror va farmonlar qabul qilinganini alohida ta'kidladi.

Ma'lumot uchun, davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil 23-noyabrda "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummiliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon, 2024-yil 4-yanvarda "Chiqindilarни boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon, 2024-yil 12-yanvarda "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmi jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror hamda 2024-yil 17-yanvarda "Suv havzalarida noruda materiallarni qazib olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon qabul qilindi.

Aziz Abduhakimov Toshkent shahri atmosferasi iflosanishiga sabab bo'layotgan holatlarni keltirib o'tdi. Xususan, antropogen omillar — shaharsozlik bosh rejalar tasdiqlanmasdan qurilishlarning jadal amalga oshirilayotgani, qurilishlar sababli moratoriyl e'lon qilinganiga qaramasdan daraxtlarning kesilishi, "Yevro-4" ekologik standarti talablariga javob bermaydigan (AI-80) yoqilg'i dan foydalanayotgan mashinalarning me'yordan ortiq zararli tashlamalar chiqarayotganligi atmosferaning iflosanishiga sabab bo'layotgani qayd etildi.

"Toshkent shahrida 2022-yilda 715 ming avtotransport vositasi harakatlangan va natijada atmosfera havosiga 403,0 ming tonna iflosantiruvchi moddalar tashlangan. 2023-yilda esa poytaxtda harakatlangan avtotransport vositalari soni 8 foizga ortib, 775 mingtani tashkil etgan. Natijada atmosfera havosiga 435,0 ming tonna iflosantiruvchi moddalar tashlangan", — dedi Aziz Abduhakimov.

Vazir, shuningdek, 2019-yilda 3,9 mln tonna, 2022-yilda 5,3 mln tonna, 2023-yilda esa 6,7 mln tonna ko'mir yoqilg'isidan foydalanilgani, bu ham atmosfera havosiga katta zarar keltirganligini aytib o'tdi.

"10 tonna ko'mir yoqilg'isi yoqilganida atmosfera havosiga 220 kg qurum, 360 kg oltingugurd II oksidi, 64 kg uglerod oksidi, 16 kg azot II oksidi va 2 tonna kul chiqindisi chiqariladi. Bu raqamlarning o'ziyoq ko'mirning zarari qanchalik katta ekanligini ko'rsatib turibdi", — dedi vazir.





Bundan tashqari, vazir ekologiyani yaxshilash borasida qilingan ishlarga alohida to'xtaldi. Xususan:

- 2022-yil 1-yanvardan “Yevro-4” ekologik talablariga javob bermaydigan benzin va dizel dvigatellari bilan jihozlangan transport vositalarini olib kirish taqiqlandi;
- oxirgi ikki yilda 3 150 km temir yo'l uchastkalari elektrlashtirilib, teplovozlar o'rniغا elektrovozlardan foydalanish yo'lga qo'yildi;

— “Toza havo” oyligi davomida 2023-yilda 319 mingta avtotransport vositalari nazoratdan o'tkazilib, me'yorlarga javob bermaydigan 8 ming 600 ta transport vositasidan foydalanish vaqtinchalik taqiqlandi;

— 2023-yilda 147 ta sanoat korxonasi dagi changazqlarni tutib qoluvchi 716 ta uskuna modernizatsiya qilinib, atmosfera havosiga 10 ming tonnadan ortiq ifloslantiruvchi moddalar tashlanishining oldi olindi;

— “Zamin” xalqaro jamoat fondi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida atmosfera havosidagi mayda dispersli zarralarni o'lchovchi Yaponianing “Horiba” rusumli 2 ta avtomatik stansiyasi o'rnatildi;

— “Yashil makon” doirasida 416 mln tupdan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekildi;

— 588 hektar “yashil bog'lar”, 662 hektar “yashil jamoat parklari”, Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 km masofada “yashil belbog”lar barpo etildi;

— O'tgan yilning kuz mavsumida atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lgan 189 ta sanoat korxonasi atrofida 2 million 300 ming tup ko'chatlar ekilib, “yashil belbog”lar tashkil qilindi.

Shuningdek, vazir ekologik vaziyatni yaxshilash borasida quyidagi kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini qayd etdi:

— “Yevro-4” standartidan (AI-80 rusumli benzin) past ekologik toifadagi motor yoqilg'idan foydalanishni taqiqlash;

— Tirbandlikni kamaytirish va harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida Toshkent shahrida kunning tig'iz vaqtlarida (ertalabki soat 07:00 dan 10:00 ga qadar va 17:00 dan 20:00 ga qadar) yuk tashish uchun mo'ljallangan, vazni 3,5 va 12 tonnadan ortiq transport vositalarining harakatini cheklash;

— Shaharning diqqatga sazovor markaziy ko'chalarida avtotransport vositalaridan xoli hududlarni tashkil etish;

— Jamoat transportini to'liq elektr va gaz yoqilg'isiga o'tkazish, shuningdek, yo'l infratuzilmasini tashkil etish;

— Barcha turdag'i qurilish ob'yektlarini (ijtimoiy va davlat ahamiyatiga oid ob'yektlar bundan mustasno) qurishga moratoriyl e'lon qilish;

— Toshkent viloyatining Toshkent shahriga tutash tumانlarida sanoat maqsadlari uchun ko'mir yoqilg'isidan foydalanishni taqiqlash;

— Issiqlik markazlarida zaxira yoqilg'isi sifatida mazutdan foydalanishni keskin taqiqlash;

— Ilmiy va puxta ishlangan xulosalar asosida shaml tezligini pasaytirish, tuproq zarralari ko'chishining oldini olishga qaratilgan Toshkent shahri atrofida “yashil belbog”lar barpo etish.

Hisobotdan so'ng vazir deputatlarning ekologik holatga doir savollariga javob qaytaridi.

OROL DENGIZI TUBIDA CHO'LGA CHIDAMLI O'SIMLIKLER EKISH BOSHLANDI



Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev rahbarligida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda ekofaoq yoshlari tomonidan Orol dengizi tubida saksovul ekish ishlari boshlandi.

Ma'lumot uchun, davlatimiz rahbarining topshirig'iga ko'ra, 2018-2023-yillar davomida har yili viloyatlardan kelgan yordamchilar, O'rmon xo'jaligi agentligi va mahalliy fuqarolar ishtirokida ko'plab maydonlarga cho'l o'simliklari ekildi. O'tgan 5 yil davomida Orol dengizi tubida 1 mln 730 ming hektar o'rmonzor barpo etildi, ya'ni 17 ming km kvadrat maydon ko'kalamzorlashtirildi.

2024-yilda jami 150-200 ming hektar maydonda o'rmonzorlar barpo qilish rejalashtirilgan. Bugungi kungacha o'rmon xo'jaliklari tomonidan 192,63 tonna cho'l o'simliklari urug'lari, jumladan, 71,96 tonna saksovul, 120,67 tonna qorabaroq cho'l o'simliklari terilib, ekishga tayyorlandi. Shuningdek, 2,7 ming hektar maydonda saksovul, qandim, cherkes kabi cho'lga chidamli o'simliklarning urug' hamda ko'chatlari ekilmoxda.

“

— Bu yil tuzli va qumli shamollar hosil bo'ladigan eng zaif joylarda yashil maydonlar yaratishni rejalashtirganmiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev 100 ming hektar maydonda qo'riqlanadigan o'rmonzorlar barpo etish vazifasini qo'ydi. Biz 150-200 ming hektar maydonga daraxt ekishni maqsad qilganmiz. Davlat rahbari qum va chang bo'ronlari masalasini shaxsan nazorat qiladi va hozirda mammakatda bu muammoga qarshi samarali kurash olib borilmoqda, — dedi O'rmon xo'jaligi Davlat qo'mitasasi ilmiy-tadqiqot instituti akademigi, loyiha rahbari Zinoviy Noviskiy. — Bu muammoni hal etishda o'rmon pitomniklarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Joriy yilda 150 hektar maydonda pitomniklar yaratish, u yerda saksovul, cherkes, qandim kabi cho'l o'simliklarini yetishtirish ko'zda tutilgan.

77



Avvalroq Mo'ynoq tumani hamda Orolbo'yi hududiga 350 tup cherkez va qandim o'simliklari ekligandi.

Maqsad «Yashil qoplamlar» – himoya o'rmonlarini yaratish, hududdagi ekologik holatni yaxshilash, zararli tuz va changlar ko'tarilishining oldini olishdir.

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BO'YICHA REJALAR BELGILAB OLINDI

Toshkentda 7-fevral kuni "Orol dengizi havzasi landshaftining tanazzul yerlarida barqaror hayotni ta'minlashni qo'llab-quvvatlaydigan asos sifatida ko'llar, suv-botqoq va qirg'oqbo'yи hududlarini saqlash hamda boshqarish" loyihasi bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 1-yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Loyiha Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, BMT Taraqqiyot dasturi va Global ekologik fond (GEF) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Tadbirda vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilotlar vakillari, ekspert va soha mutaxassislari ishtiroy etdi.



“

"Loyiha Qoraqalpog'istonning Orolbo'yi hududi va Buxoro viloyatida yangi ekologik hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Tadbirda 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2024-yilga mo'ljallangan rejalar haqida ma'lumot berildi. Loyiha doirasida 4 ta komponent amalga oshirilmoqda, ular orasida asosiyları suv resursları va yer degradatsiyasiga qarshi kurashdir", – dedi Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi loyihalarini amalga oshirish agentligi rahbari Vadim Sokolov.

Ma'lumot uchun, loyihaning maqsadli hududi O'zbekistonning janubiy va janubi-g'arbiy qismlari, Amudaryoning quyi oqimi va Orol dengizi havzasi hisoblanadi. Bu hudud ma'muriy jihatdan Buxoro viloyatining Olot va Qorako'l tumanlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo va Mo'ynoq tumanlarini o'z ichiga oladi.

Tadbirda loyiha doirasida bajarilgan ishlar muhokama lindili. Shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlariga e'tibor qaratildi.



“

"Maqsadimiz 2024-yil uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlarni aniqlash edi. Muhokamalar davomida har bir taklifga e'tibor qaratib, kela-jakdagi rejalarini belgilab oldik", – dedi Orolbo'yi suvli-botqoqli hududlarni boshqarish loyihasi rahbari Akmal Ismatov.

Loyiha doirasida maqsadli hududlardagi suv ob'yektlari o'rGANildi va tahlil qilindi, yaylovlarning o'tkazuvchanligini baholash uchun ma'lumotlar to'plandi va tavsiyalar berildi. Mavjud va yangi tashkil etilgan qo'riqlanadigan hududlarning holati baholandi, bir qator me'yoriy hujjatlar va qonun loyihalari tayyorlandi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning geografik ma'lumotlar bazasi" ishlab chiqildi, qo'riqlanadigan hudud uchun kuzatuv minoralari, yo'ltanlamas avtomashinalar, kvadrasikllar, kameralar va boshqalar xarid qilindi.



BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH BO'YICHA MILLIY STRATEGIYA VA HARAKATLAR DASTURINING MAQSADLARI TASDIQLANDI

Joriy yilning 8-fevral kuni Toshkentda Global ekologik fond (GEF), BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamkorligida "Global bioxilma-xillik dasturi – erta harakatni qo'llab-quvvatlash" loyihasini muvofiqlashtirish qo'mitasining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Loyiha mamlakatlarga milliy biologik xilma-xillik dasturlari, strategiyalari va harakat rejalarini uyg'unlashtirishni boshlashlari uchun moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish orqali Kunming-Monreal Global biologik xilma-xillik asosini amalga oshirishga va barvaqt harakatni tezlashtirishga qaratilgan.



"O'zbekistonda Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha 1-milliy strategiya va harakatlar dasturi 1998-yilda, 2-dastur esa 2019-yilda qabul qilingan. Mazkur dasturda vazifalar 2010–2020-yillarga mo'ljallangan maqsadlardan kelib chiqib belgilangan. 2022-yildagi 3-dasturga yangi vazifalar kiritildi. Bunga ko'ra, milliy strategiyani qayta ko'rib chiqib, 2030-yilgacha mo'ljalangan, bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan yangi maqsad va vazifalar bilan boyitishni maqsad qilganimiz", – dedi Ekoliya vazirligi Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo'limi boshlig'i Xalilulla Sherimbetov.

Tadbirda Muvofiqlashtiruvchi qo'mita to'g'risidagi nizom, uning shaxsiy tarkibi, amalga oshirilgan ishlar bo'yicha loyiha hisoboti va 2024-yilga mo'ljallangan loyiha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi.



"Loyiha O'zbekistonda o'tgan yilning aprel oyida boshlangan. Uning vazifalari mavjud milliy maqsadlarning global asosga mos kelishini ta'minlash uchun ularni tanqidiy ko'rib chiqishdan iborat. Shuningdek, loyiha doirasida biz bioxilma-xillikni muhofaza qilish va saqlashni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berish maqsadida mavjud monitoring tizimini, biologik xilma-xillik siyosatini va turli konvensiyalar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilishni rejalashtirmoqdamiz", – dedi «Global bioxilma-xillik dasturi – barvaqt harakatlarni qo'llab-quvvatlash» loyihasi rahbari Sergey Zagrebin.

"Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasining yangi integral ko'rsatkichlarini tayyorlash va muvofiqlashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning tasdiqlanishi Muvofiqlashtiruvchi qo'mita yig'ilishining muhim natijasi bo'ldi. Maqsadlar 2024-yilda tayyorlanadi va Kunming-Monreal Global biologik xilma-xillik doirasi (GBF) da belgilanganidek, Konvensiya Kotibiyatiga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Ma'lumot uchun: 2022-yilning 19-dekabrida 190 ta davlat Kunming-Monreal Global bioxilma-xillik asosi (GBF) bo'yicha kelishuvga erishdi. Dastur 2050-yilgacha iqlima neytral, tabiatga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan va barqaror dunyoga yo'l ochadigan, biologik xilma-xillik bo'yicha global harakatlar uchun asos yaratadi, Iqlim bo'yicha Parij kelishuvini to'ldiradi va 2030-yilgacha insoniyatni tabiatni asrash va himoya qilish bo'yicha global harakatlarga yo'naltiradi.

Biologik xilma-xillik asoslari maqsad va vazifalariga erishishda mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun Global ekologik fond dunyoning 138 ta davlatida BMT Taraqqiyot dasturi va UNEP bilan birgalikda amalga oshirilayotgan global loyihani moliyalashtirdi.

CHIQINDINI QAYTA ISHLASH VA UNDAN MUQOBIL ENERGIYA OLISH MASALASI MUHOKAMA QILINDI

5-fevral kuni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov va "Tadweer" (Abu-Dabining chiqindilarni boshqarish sohasidagi eng yirik kompaniyasi) direktori Ali Al-Daheri o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda yurtimizda chiqindilarni boshqarish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot berildi. Xususan, Aziz Abduhakimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlandi. "Chiqindilarni boshqarishning kompleks tizimi ni joriy etish" loyihasi esa bu islohotlarning mantiqiy davomi ekanligi qayd etildi.



— Atrof-muhitning chiqindilar bilan ifloslanishi da-rajasini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash orqali ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega, — dedi vazir Aziz Abduhakimov. — "Tadweer" bilan amalga oshiriladigan loyiha esa bu borada keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Loyihaning ahamiyati shundaki, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali ularning hajmi kamaytiriladi va kimyoiy mod-dalar zararsizlantiriladi. Shu bilan birga, chiqindilarni yoqish natijasida muqobil energiya ishlab chiqarish va ikkilamchi moddiy resurslarni ajratib olish imkoniyati yaratiladi.



Uchrashuv davomida chiqindilarni yig'ish, monitoring tizimini joriy etish, "yashil" energiya ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. Vazir "Tadweer" kompaniyasi vakillariga amalga oshirilayotgan ishlar uchun minnatdorlik bildirdi.

O'z navbatida Ali Al-Daheri Ekologiya vazirligi bilan hamkorlikdan mamnun ekanligini aytib o'tdi.



“Tez orada loyihaning amaliy qismiga o'tamiz. Dastlab Navoiy va Buxoro viloyatlardagi chiqindi poligonlari hamda chiqindilarni qayta ishlash korxonalari faoliyatini o'rganamiz, shart-sharoitlarni ko'zdan kechiramiz. Hamkorligimiz har tomonlama samarali bo'llishidan manfaat-dormiz”, — dedi Ali Al-Daheri.

Uchrashuvdan so'ng yuqori martabali mehmon Ekologiya vazirligi, vazirlikning Dispatcherlik va onlayn monitoring markazi boshqarmasi hamda Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi bilan yaqindan tanishtirildi.

Ma'lumot uchun, Dubayda bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP28) doirasida "Tadweer" kompaniyasi bilan memorandum imzolanishi loyihaning muhim bosqichi bo'ldi. Memorandum chiqindilarni boshqarish sohasida zamonaviy innovatsion ekologik toza texnologiyalar va xizmatlarni joriy etishni nazarda tutadi.

Loyiha tozalanmagan chiqindilarni poligonlar-ga joylashtirishni qisqartirish, yangi ish o'rinnari yaratish, atmosferaga issiqxona gazlari va zaharli organik moddalarni chiqarishni kamaytirishga xizmat qiladi.



“Yashil” energetikani rivojlantirish bo'yicha Sian va Chendu tajribasi o'rganildi

Xitoyning yashil energetikaga oid tajribasini o'rganish maqsadida tashkil etilgan press-tur davomida Chendu va Sian shahridagi energetika kompaniyalari faoliyati bilan ham yaqindan tanishtirildi. “China XD” kompaniyasi eng katta kuchlanishga ega bo'lib, bugungi kunda 500 kvtli transformatorlarni O'zbekistonga yetkazib bermoqda. Kompaniyada 11 000 nafar xodim faoliyat olib boradi. Aynan transformator ishlab chiqarishda esa 1000 dan ortiq ishchi tunu kun ishlaydi.

Kompaniyaning ikkinchi manzili Sian shahrida joylashgan bo'lib, bu yerda katta hajmdagi elektr qurilmalari, generatorlar ishlab chiqariladi. Bu tarmoq ham yo'nalishi jihatidan dunyodagi eng yirigi hisoblanadi.

“China XD” O'zbekiston bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. Xususan, mamlakatimizda 100 ta podstansiya qurish va modernizatsiya qilish hamda 110, 220 va 500 kvtli kuchlanishga ega elektr uzatish tarmoqlarini bunyod etish loyihasi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mis klasterida elektr texnika uskunalarini ishlab chiqarish bo'yicha ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Press-turning yana bir manzili “Longi” kompaniyasining Sian shahridagi shtab-kvartirasi va zavodi bo'ldi. Ta'kidlash joizki, bu kompaniya quyosh panellari ishlab chiqarish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi. Dunyo bo'ylab kompaniyaning 30 ofisi, Xitoy, Malayziya va Vyetnamda 15 ta ishlab chiqarish bazasi bor. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, dunyodagi har 4 quyosh modulidan 1 tasi “Longi” ga tegishli. Kompaniya o'tgan yillarda 20 gigovattdan ortiq quyosh panellarini xorijiy davlatlarga yetkazib bergen yagona kompaniyadir.

«Biz quyosh panellarini mahalliylashtirishda yordam berishga tayyormiz. Biz bozorlarga davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlarni o'rganib chiqqdik. O'zbekiston bu boroda Markaziy Osiyoda katta salohiyatga ega», – dedi “Longi” kompaniyasining Yaqin Sharq, Afrika va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha prezidenti James Jin.

Ma'lumot uchun, Toshkent viloyatining yashil vodorod ishlab chiqarish texnologiyasi aynan “Longi” bilan hamkorlikda yo'lga qo'yiladi. Bunda o'g'itlarni ishlab chiqarishda tabiiy gazdan voz kechiladi va bir yilda 33 ming kubometr gaz iqtisod qilinadi.

«O'zbekiston – tabiiy resurslarga boy mamlakat, – dedi “Longi” kompaniyasining Markaziy Osiyo bo'yicha hududiy direktori In Syu An. – Birinchidan, quyosh energiyasi bo'yicha sizda katta imkoniyat bor. Shuningdek, muqobil energiya manbalaridan foydalanish ham rivojlanmoqda. O'zbekistonda ikki bosqichli katta loyiha ustida ishlayapmiz. Birinchi bosqichda 400 megavattli energiya yetkazib berish texnologiyalarini quramiz».

O'zbekistonlik jurnalist va matbuot kotiblari, shuningdek, Xitoyning Chendu shahrida bo'lib, asosan issiqlik elektr stansiyalari uchun gaz trubinalar ishlab chiqaradigan «Donfang electric corporation»ning faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Kompaniya bugungi kunda dunyoning 20 dan ortiq davlatiga kirib borgan.

«Donfang electric corporation» O'zbekistonda quyosh energiyasi bo'yicha ikkita yirik loyihami amalga oshirilmoqda. Xususan, kompaniya Samarqandning Kattaqo'rg'on va Jizzaxning G'allaorol tumanlarida BAAning «Mastar» kompaniyasi barpo qilayotgan ikkita quyosh foto elektr stansiyasida bosh pudratchi hisoblanadi. Stansiyalar quvvati 220 megavattni tashkil qiladi. Xitoydagagi yana bir korporatsiya – “STATE GRID” 1 milliarddan ortiq aholini elektr bilan ta'minlaydi. O'zbekistonda ham qator loyihami amalga oshirilmoqda».

Bugungi kunda Xitoya elektr energiyasining 14 foizi – shamol, 15 foizi quyoshdan olinadi. Mamlakatda yaqin kelajakda tiklanuvchan energiya manbalarini 50 foizga yetkazish maqsad qilingan. Umuman, Xitoyning yashil energetika borasidagi boy tajribasi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

• OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA

IQLIM O'ZGARISHI BO'YICHA HAMKORLIK MUSTAHKAMLANMOQDA

2024-yil 30-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida vazir Aziz Abduhakimov va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetidagi Yangi innovatsion iqlim markazi asoschisi Raye Kvon Chung o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda vazir maslahatchisi Suna Park, TDIU rektori, professor Qo'ng'irotboy Sharipov, Yangi innovatsion iqlim markazi direktori Laylo Yaxshiboyeva ishtirok etdi.



Muloqot jarayonida hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid qator masalalar muhokama qilindi. Xususan, Iqlim kengashini tuzish borasidagi asosiy masalalar, tadqiqot ma'lumotlarining yetishmasligi, iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha mutaxassislar, olimlarning kamligi, ekolog-olimlarni o'zaro bog'lash uchun joy, tarmoq yo'qligi kabi muamolarga e'tibor qaratildi.

O'z navbatida "Hub&Spot" formatida faoliyat yurituvchi Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Central Asian Green University") va Milliy iqlim markazi muammolarni tizimli hal etishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Shuningdek, "Green Cities" loyihasi doirasida O'zbekiston tondagi hokimlar uchun treninglar o'tkazishga ekspert o'qituvchilarni jalb qilish masalasi ham muhokama qilindi.

Ma'lumot uchun, professor Raye Kvon Chung Nobel mukofoti sovrindori hisoblanadi. U BMT sobiq Bosh kotibi Pan Gi Munning iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha bosh maslahatchisi va Janubiy Koreyaning iqlim o'zgarishi bo'yicha elchisi lavozimlarida ishlagan. Hozirda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida faoliyat yuritmoqda.



Uchrashuv yakunida quyidagi kelishuvlarga erishildi:

- TDIU va "Central Asian Green University", shuningdek, TDIUning Yangi innovatsion iqlim markazi va vazirlikning Milliy iqlim markazi o'rtasida qo'shma tadqiqotlar, loyihalar va konferensiyalar o'tkazish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini imzolash;

- Yangi innovatsion iqlim markazi va Ekologiya vazirligi o'rtasida taklif va g'oyalar almashinuvni orqali ikki tomonlama hamkorlik rejasini ishlab chiqish;

- BMT sobiq Bosh kotibi Pan Gi Munning O'zbekistoniga rasmiy tashrifini tashkillashtirish. Pan Gi Munni aprel oyidagi Samarqand forumiga taklif etish rejalashtirilgan.



O'ZBEKİSTONDA MARKAZİY OSİYODAGİ BİRİNCHİ EKO-UNİVERSİTET — «GREEN UNIVERSITY» RASMAN OCHILDİ

Joriy yilning 10-fevral kuni Toshkent viloyatida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti («Green University»)ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda IUCN bosh direktori Gretel Agilar, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov va Markaziy Osiyo davlatlari ekologiya vazirlari, xalqaro tashkilotlar vakillari, mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Ochilish marosimida nutq so'zlagan Gretel Agilar «Green University»ning mintaqadagi ekologik muammolarni hal qilishdagi o'rni alohida ekanligini ta'kidladi.

“O'zbekiston hukumatini ekologik yetakchilik va ta'limi rivojlantirishga xizmat qiladigan yirik mintaqaviy tashabbus – “Central Asian Green University” ochilishi bilan tabriklaymiz. Ushbu universitet biologik xilma-xillikning yo'qolishi, iqlim o'zgarishi va ifloslanishning uch karra sayyoraviy inqirozini hal qilishda yordam beradi. Ekologik ta'lum muassasasi boy ta-biatiga ega mintaqani asrashga xizmat qiladi”, — dedi u.

Tadbir davomida mehmonlar universitetda yaratilgan qulay shart-sharoitlar bilan tanishishdi. Bu yerda talabalarning

bilim olishi uchun so'nggi texnologiyalar bilan jihozlangan xonalar, keng kutubxona, darsdan tashqari vaqtida shug'ullanish uchun sport zali va boshqa qulayliklar yaratilgan.

Ma'lumot uchun, «Green University» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydag'i “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida tashkil etilgan. Maqsad mahalliy, mintaqaviy va global ekologik muammolarni samarali boshqarish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, ilmiy va intellektual salohiyatni amalga oshirishda innovasion g'oyalari, amaliyot va texnologiyalarni joriy etishdir.

Universitet davlat oliy ta'lum muassasasi bo'lib, “Hub and Spoke” tamoyili asosida faoliyat olib boradi. Ushbu model strategik va o'zaro manfaatlil hamkorlikka, yaxlit o'quv tizimini yaratishga, resurslarni optimallashtirishga, talabalar va mutaxassislarning harakatchanligiga asoslanadi, shuningdek, mahalliy mutaxassislar salohiyatini oshirish, bilim va tajriba almashishga yordam beradi.

Hozirgi kunda hamkorlik uchun universitetga Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, AQSH va boshqa davlatlar xalqaro universitetlarining turli professorlarini faol jaib etmoqda.



Hamid PURAN: «Green University — yashil kelajak uchun qo'yilgan muhim qadamdir»

Toshkentda Buyuk Britaniyalik olim, ekologiya sohasi mutaxassis, muhandis, professor Hamid Puran ishtirokida "Yashil muloqot: barqaror rivojlanishga chuqur sho'ng'ish" mavzusida ochiq ma'ruza bo'lib o'tdi. Tadbir Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishi ni o'rganish universiteti («Central Asian Green University») tomonidan tashkil etildi.



Ma'ruza davomida professor Hamid Puran bugungi iqlim o'zgarishining dinamikasi va o'ziga xos xususiyatlari, oqibatlari haqida qiziqarli faktlar hamda o'z kuzatuvlari bilan o'rtoqlashdi. Shuningdek, mintaqadagi mavjud institutlarning, xususan, 2023-yilda faoliyatini boshlagan «Central Asian Green University»ning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishdagi o'rni va vazifalari haqida gapirdi.

“O'zbekistonda hukumat tomonidan ekologiya sohasida asosiy e'tibor yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda innovatsion texnologiyalarni yaratishga qaratilgan. «Central Asian Green University»ning tashkil etilishi bu fikrning yaqqol isbotidir, — dedi H.Puran. — Ushbu ta'lim muassasasi yashil kelajak uchun qo'yilgan muhim qadamlardan biri hisoblanadi».



Ma'ruza sohaga oid qiziqarli muhokamalar bilan davom etdi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Ma'lumot uchun, professor Hamid Puran – xalqaro olim, ekologiya va atrof-muhit muhandisligi sohasida katta tajribaga ega tadqiqotchi-ekspert, Nanotexnologiya va atrof-muhit bo'yicha Transatlantika tashabbusi (TINE) va Qirollik kimyo jamiyatni (MRSC) ilmiy hamjamiyatlarining hurmatli a'zosidir. U, shuningdek, «BBC World» telekanalining atrof-muhit bo'yicha maslahatchisi bo'lib, «BBC World News»ning «Chang-qum bo'ronlari» hujjatli filmida ishlagan. Shu bilan birga, Shotlandiya xalqaro va strategik ishlar markazining ekologiya bo'yicha eksperti hisoblanadi. Hamid Puran hozirda «Central Asian Green University»da rektorning ta'lim masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimida ishlab kelmoqda.

TOSHKENTDA «IUCN»NING MARKAZIY OSIYODAGI BIRINCHI OFISI ISH BOSHLADI

Joriy yilning 10-fevral kuni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University")da Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) ofisining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu IUCNning Markaziy Osiyodagi birinchi ofisi hisoblanadi.

Tadbirda IUCN bosh direktori Gretel Agilar, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, Markaziy Osiyo davlatlari ekologiya vazirlari, xalqaro tashkilotlar vakillari, mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Ma'lumot uchun, BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha 28-konferensiyasi (COP28) doirasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Gretel Agilar bilan uchrashuv o'tkazgan. Uchrashuvda hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan birga Toshkentda IUCN bosh ofisini ochish masalasi ham muhokama qilingandi.

Tadbirda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi ((IUCN) bilan hamkorlikni kengaytirgani va mintaqaga ekoliyayisini muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirgani ta'kidlandi. Shuningdek, IUCNning O'zbekistondagi ofisi ochilishi uzoq va samarali hamkorlik kafolati ekanligi qayd etildi.

“Hozirda sayyoramiz 3 ta asosiy muammo – iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik va atmosfera havosi ifloslanishi bilan yuzlashmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun barcha davlatlar birga harakat qilishi lozim. Biz O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari bilan birga mintaqamiz ekotizimini himoya qilishga qaratilgan yangi loyihalarni amalga oshiriyapmiz. "IUCN" ofisining ochilishi esa bu boradagi muhim qadamlardan biridir, – dedi Gretel Agilar.



O'z navbatida Aziz Abduhakimov IUCN ofisining ochilishi o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashini qayd etdi.

“Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi bilan hamkorlikni mustahkamlash juda katta ahamiyat kasb etadi, – dedi vazir. – Birgalikda atrof-muhitni muhofaza qilish, yerlarni tiklash, iqlim o'zgarishi sharoitida barqarorlikni ta'minlash va boshqa maqsadlarga xizmat qiladigan loyihalarni yo'lga qo'yganmiz. Bu, albatta, bugungi mintaqadagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. IUCNning Toshkentdagisi ofisi Markaziy Osiyo davlatlari, hamkorlar va ekspertlar ham-jamiyatlar bilan yaqinroq aloqa o'rnatish imkonini beradi”.

Ochilish davomida mehmonlar IUCN ofisini ko'zdan kechirishdi.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston 2021-yilda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqiga a'zo bo'lgan. IUCN dunyodagi eng qadimgi va nufuzli tabiatni muhofaza qilish tashkiloti bo'lib, hukumat va fuqarolik jamiyatni tashkilotlaridan iborat. UBMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomiga ega va butun dunyo bo'ylab 1400 dan ortiq a'zo tashkilotlar va 15 000 dan ortiq ekspertlarning tajribasi, resurslari va imkoniyatlaridan foydalananadi.

"IPAK YO'LI" XALQARO TURIZM VA MADANIY MEROS UNIVERSITETI TALABALAR TURAR-JOYI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Joriy yilning 16-fevral kuni Samarcandda "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti talabalar turar-joyi foydalanishga topshirildi. Tadbirda universitet rektori Aziz Abduhakimov, universitetning ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektori, professor Tongqian Zou, Samarcand turizm va madaniy meros texnikumi direktori Jo'raqul Inoyatov, mahalliy va xorijlik talabalar, om-maviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Dastlab mehmonlar texnikumdagagi "El meros" majmuasi hamda "Sharqning buyuk allomalari va mutafakkirlari" xiyoboni loyihalari bilan tanishishdi. Vazir turistlar uchun har tomonlama qulay maskan yaratish lozimligini ta'kidladi.

"Turistlar bu majmuada milliy liboslarimiz, san'atimiz, hunarmandchiligidan bahramand bo'lishlari mumkin. Shuningdek, o'zları ham istagan san'at turlari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Maqsadimiz har tomonlama qulay maskan barpo etib, ichki va tashqi turizmni yanada rivojlantirish, yurtimizga keladigan xorijlik sayyohlar sonini oshirishdir", – dedi Aziz Abduhakimov.

Jo'raqul Inoyatov esa "El meros" majmuasi nomiga monand xalqimizning tarixiy boy merosini o'zida aks ettirishini qayd etdi.

«Xalqimiz boy an'ana va qadriyatlarga ega. Bizning ilm ahlida tengsiz ajdodlarimiz bor. Biz esa turistlar e'tiborini ana shu ma'naviy boyligimizga qaratmoq-chimiz», – dedi Jo'raqul Inoyatov.

Tadbir davomida, shuningdek, talabalar turar-joyi batapsil tanishtirildi. Ma'lumot uchun, turar-joy 400 o'ringa mo'ljallangan. Xorijiy va mahalliy talabalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, sport to'garaklari, kutubxona faoliyati yo'nga qo'yildi. Hovlida bog' ham barpo qilindi.



"Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bugun foydalanishga topshirilayotgan talabalar turar-joyi esa ana shu imkoniyatlarning navbatdagi samarasи hisoblanadi, – dedi Aziz Abduhakimov. – Bu maskan universitetda tahsil olayotgan yoshlar uchun har tomonlama qulay, xavfsiz hududda joylashgan. Bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu biz uchun o'ziga xos tajriba bo'ldi va bu kabi qulayliklarni yaratishda davom etamiz".

Universitet prorektori Tongqian Zou esa mazkur turar-joy talabalarning yanada ko'proq bilim olishi, o'qib-o'rganishiga yordam berishini ta'kidladi. O'z navbatida universitetda tahsil olayotgan xorijlik talabalar ham yangi turar-joy ularga juda ma'kul kelganini ta'kidlashdi.

"To'rt oydan beri Samarcanddaman, – dedi "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti magistranti, pokistonlik Surayya Ahmad. – Universitetdagi ta'lim tizimi va yaratilgan shart-sharoitlar juda yoqdi. Yangi qurilgan talabalar turar-joyi ham juda chiroyli va har tomonlama qulay. Tezroq bu yerga ko'chib o'tishni intiqlik bilan kutyapman. Samarcandni tarixiy va arxeologik osori-atiqlarini uchun yaxshi ko'raman. Bu yerda yana bir yil qolib, betakror manzaralaridan bahramand bo'lmochiman".

Ma'lumot uchun, ayni damda "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universitetida jami 3000 ga yaqin talaba tahsil oladi. Universitetda Hindiston, Indoneziya va Xitoy o'quvxonalari tashkil etilgan. 1200 ta noyob rang-tasvir asarlari mavjud. Axborot-resurs markazida esa 24371 ta kitob (o'zbek tilida – 4801 ta, rus tilida – 3680 ta, ingliz tilida – 10749 ta, boshqa tillarda – 5141 ta) bor.

QO'RIQXONALAR, MILLIY BOG'LAR VA O'RMON XO'JALIKLARIDA

EKOTURIZM XIZMATLARI YO'LGA QO'YILADI


Yurtimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalangan holda ekologik turizmni rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratiladi. Bu haqda davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida alohida belgilab qo'yilgan.

Joriy yilning 12-yanvar kuni qabul qilingan qarorda turizm xizmatlarini diversifikasiya qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, tadbirkorlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish orqali tog'li va chekka hududlar hamda cho'l mintalaridagi aholini ish bilan ta'minlash, ularning daromad manbaini kengaytirish maqsad qilingan.

Qarorga ko'ra, Ekologiya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining davlat qo'riqxonalari bufer zonalar, milliy tabiat bog'lari, pitomniklar (qo'riqxonaga aylantirilgan zonalar bundan mustasno), o'rmon va o'rmon-ov xo'jaliklari, tog'li va cho'l hududlari hamda suv ob'yektlarining suvni muhofaza qilish zonalarida (ekohududlar) joylashgan yer uchastkalari kompleks turizm xizmatlarini yo'lga qo'yan holda turistik klasterlar tashkil etish uchun tadbirkorlik sub'yektlariga ajratiladi. Bunda yer uchastkalari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali faoliyat ko'rsatish muddatini keyinchalik o'zgartirish imkoniyati bilan 10 yil muddatga ijara beriladi.

Shuningdek, turistik klasterlar hududidagi turistik ob'yektlar yengil va tez quriladigan konstruksiya hamda ekologik toza qurilish materiallaridan barpo etiladi.

Qolaversa, Ekologiya vazirligi tomonidan ekohududlarni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturlar klasterlarda turizm xizmatlarini ko'rsatishda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik masalasiga qaratiladi.



Qarorga ko'ra, quyidagilar ham amalga oshiriladi:

- ekohududlarning mavjud tabiiy resurslaridan kelib chiqqan holda turistik so'qmoqlar, selfi zona va piknik zonalar, manzaralari tomosha maydonchalari va hayvonlarni masofadan kuzatish imkonini beruvchi fototurlar tashkil qilish;
- chiqindilarni tashlash va ekohududda o'rnatiladigan yo'l ko'rsatkichlari nuqtalarini belgilash hamda ekologik talablarga javob beradigan sanitariya-gigiyena shoxobchalarini joylashtirish;
- kemping, glemping, o'tov, ekouylar va boshqa turdag'i joylashtirish vositalarini o'rnatish;
- ekohududlarga kirish qismida elektromobillar uchun quvvatlantirish stansiyalari, ko'chma restoranlari bo'lgan avtoturargohlar qurish;
- ekohududlarda turistlar o'zlarini kerakli ma'lumotlarni olishlari uchun tashrif markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish.


Turistik klasterlarda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirdorlik sub'yeqtiniga yer uchastkasini ijaraga berishda quyidagi talablar qo'yiladi:

- ekohududning ekologik holati va turizmni rivojlantirishning barqarorligini ta'minlash;
- ekohududda noyob tabiiy ob'yeqtlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning genetik fondini saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ekologik talablar asosida turizm xizmatlarini diversifikasiya qilish va xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga yetkazish;
- energiyaning muqobil va qayta tiklanuvchi mabalaridan foydalangan holda yangi zamонавија energiya tejovchi tizimlar va texnologiyalarni joriy qilish asosida o'ziga xos ekologik tizim yaratish;
- yangi ish o'rinalarini yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish;
- ekohududga mahalliy va xorijiy investisiyalarni jalb qilish;
- innovatsion va zamонавија turizm infratuzilmasini yaratish;
- avtomatlashtirilgan maxsus elektron dastur yordamida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali tashrif buyuruvchilar oqimini ko'paytirish;
- ekohududdagi turistik so'qmoqlar va yo'l ko'rsatkichlarining belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash;
- yangi turizm xizmatlari (shu jumladan, Planting Tour, Plogging Tour va boshqalar) va ekoaksiyalarni tashkil qilish;
- ekohududning ishlab chiqilgan brendi asosida targ'ibot dasturlarini amalga oshirish;
- ekohududning rekreatsion salohiyatini oshirish.

Qarorga ko'ra, Surxon, Hisor, Nurota, Zomin davlat qo'riqxonalari, "Sudochye-Akpekti", "Barsakelmes" davlat buyurtma qo'riqxonalari, "Saygachi" majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, Markaziy Qizilqum, Janubiy Ustyurt, Zarafshon, Xorazm, Zomin, Yuqori To'palang, Bobotog' milliy tabiat bog'lari, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi, shuningdek, Burchmulla, Qiziriq, Boysun, Bobotog', Hisor, Uzun, Surxondaryo, Dehqonobod, Ohangaron davlat o'rmon xo'jaliklari va Darg'om davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasida ekoturizm xizmatlari yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, 2024-yil 1-sentabrga qadar "Tabiatga sayohat" elektron platformasi va uning mobil ilovasi ishga tushiriladi. Ular turistik klasterlarning elektron xaritasi, turistik klasterlarning tashrif markazlarida ko'rsatiladigan xizmatlar, sayohatni rejalashtirish va joylashtirish vositalarini oldindan band qilish imkoniyati, mavjud tog' va g'orlar, turistik so'qmoqlar va ularning imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, 2027-yil 1-yanvarga qadar cho'l hududlarida rekreatsion turistik xizmatlar ko'rsatuvchi kurort zonalarini (toifali mehmonxonalar, SPA -mehmonxonalar, sanatoriya va pansionatlar) tashkil qilgan tadbirdorlik sub'yeqtlari uch yil davomida foyda solig'ini va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining 50 foizini to'laydi. Cho'l hududlarida tematik xiyobonlarni tashkil qilgan yuridik shaxslar ham xiyobonlar foydalanishga topshirilgan kundan e'tiboran uch yil davomida mol-mulk va yer solig'ining **50 foizidan** ozod qilinadi.





CHOTQOL DAVLAT BIOSFERA QO'RIQXONASIGA PRESS-TUR

11-yanvar – Xalqaro qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni munosabati bilan Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda vazirlikning Toshkent viloyati boshqarmasi bilan birgalikda Parkent tumanida joylashgan Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasiga press-tur tashkil etildi.

Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi 1947-yilda tashkil etilgan. 1993-yil 15-fevraldagi xalqaro YUNESKO tashkiloti qaroriga muvofiq qo'riqxonaga "Biosfera qo'riqxonasi" maqomi berilgan. U xalqaro biosfera qo'riqxonalari tizimining bir qismi deb tan olingan va atrof-muhitga inson ta'sirining natijalarini o'lchash mumkin bo'lgan etalon hisoblanadi.

2021-yilda esa bu yerda maxsus tashrif markazi faoliyat boshlagan. Maqsad yoshlarning ekologik bilimi, madaniyatini oshirishdir. Buning uchun mazkur tashrif markazi BMT Taraqqiyot dasturi hamda Global ekologik jamg'arma bilan hamkorlikda "Biologik xilma-xillikning global turlari uchun muhim bo'lgan asosiy tog'" hududlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va o'rmonlarni boshqarish" loyihasi doirasida qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi.

Binoning foyesida Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol davlat biosfera rezervati qo'riqxona hududining mакeti joylashgan. Aytish o'rinniki, bu uchastkalar YUNESKOning Butunjahon merosi maqomiga ega bo'lib, Butunjahon biosfera rezervatlari tarom'iga kiritilgan.

Tashrif markazining ikkinchi zali eng noyob va kam o'rganilgan hayvonot turi – qor qoploniga oid daliliy materiallar bilan boyitilgan. Qor qoplonining mulyaji, biologik xususiyatlari hamda xatti-harakatlari tavsiflangan stand mavjud. Mehmonlar bu jonivorning tarqalishi xaritasi hamda ushbu tur populyatsiyasining qisqarishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar bilan yaqindan tanishishi mumkin.

Keyingi zalga olib boruvchi dahlizda qo'riqxona chegaralarining oynavand chizmasi va ushbu hududda yashaydigan turli hayvonlarning panja izlari qo'yilgan. Shuningdek, bu yerda qo'riqxona haqida qo'shimcha axborot olish imkonini beruvchi QR-kodli virtual flayer ham joylashtirilgan.

Press-turda mutaxassislar jurnalistlarga qo'riqxonaning hozirgi kundagi mavjud hududi va olib borilayotgan ishlар haqida ma'lumot berdi. Qo'riqxona Toshkent viloyatining Bo'stonliq va Parkent tumani hududlarida joylashgan bo'lib, janubiy-sharqda Namangan viloyati bilan chegaradosh.

Shu bilan birga, hudud G'arbiy Tyan-Shan tizmasiga mansub bo'lgan Chotqol tog' tizmasining dengiz sathidan 1100-3890 metr balandlikdagi joylarni o'z ichiga oladi. Uning butun hududi yagona massiv sifatida sharqdan g'arbga 37 kilometr, shimoldan janubga 90 kilometrga cho'zilgan.

Qo'riqxonaning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 3888,2 metr balandlikda joylashgan Kichkina piyozli cho'qqisidir. Qo'riqxona hududi aholi yashash manzilgohlaridan ancha olis (45-50 kilometr) masofada joylashgan bo'lib, borish qiyin bo'lgan hududlardan hisoblanadi. U yerga faqat otda yoki piyoda yetib borish mumkin.

Mutaxassislar bu joylarda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan noyob o'simliklarning 26 turi uchrashini aniqlagan. Shuningdek, hayvonot olamining 1 ming 300 ga yaqin umurtqali hamda umurtqasiz turlari yashaydi. Ayniqsa, umurtqalilarning 242 turi – shundan baliqlarning 6 turi, amfibiyalarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 14 turi, sutemi-zuvchilarning 36 turi va qushlarning 184 turi, umurtqasizlarning 1000 dan ortiq turini uchratish mumkin.

Qo'riqxona ma'muriy binosida tashkil etilgan tabiat muzeysi barcha uchun doim ochiq. Unga xorij mamlakatlaridan ham mehmonlar tez-tez kelib turadi.

Tadbir davomida jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob oldi.

A.MUSAYEV,
O'za muxbir.

ATROF-MUHIT HOLATI TO'G'RISIDA MILLIY MA'RUZANING QISQACHA MAZMUNI



Sog'lom atrof-muhit va uni barqaror boshqarish fuqarolarning farovonligi va O'zbekistonning o'sib borayotgan iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Atrof-muhit holati to'g'risidagi Milliy ma'ruza (Milliy ma'ruza), bu – O'zbekiston fuqarolari, ekspertlari va siyosatchilariga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitida mavjud ekologik tendensiyalar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga yordam beradigan kompleks hujjatdir. Milliy ma'ruza, shuningdek, ekologik muammolarni hal etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashga mo'ljallangan tegishli siyosiy ustuvor masalalar, strategiyalar va boshqa hujjatlar haqidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, Milliy ma'ruzada atrof-muhit sharoitida inson salomatligi va farovonligi bilan bog'liq o'zaro aloqalar hamda muammolarni hal etishga qaratilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ko'p tomonlama kelishuvlar (TMQKK) va boshqa xalqaro hujjatlarda bayon qilingan xalqaro majburiyatlar keltirib o'tilgan.



Mazkur hujjatda to'plangan ekologik tendensiyalar qaror qabul qilish va fuqarolarning tabiiy resurslarni boshqarish hamda atrof-muhit muhofazasiga samarali jalb etishni amalga oshirishga asos bo'lib xizmat qilishi uchun ma'ruzada qo'llanilgan yondashuv, atrof-muhit holatiga ta'sir etuvchi harakatlantiruvchi kuchlar va bosimlarni keltirib chiqaradigan xatti-harakatlar o'rtasida aloqani o'rnatish hamda ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan tegishli javob choralariga qaratilgan. Atrof-muhit holati, atrof-muhitga ta'sir qiluvchi harakatlantiruvchi kuchlar va bosimlar hamda javob choralar o'rtasida bunday aloqalarni o'rnatish uchun biz o'z yondashuvimizda «Harakatlantiruvchi kuchlar – Bosim – Holat – Ta'sir – Javob choralar» konsepsiyasidan foydalandik (HBHTJ). Ushbu tizim atrof-muhitning yomonlashuvi sabablarini (shuningdek, uning yaxshilanishini), sabablar va oqibatlar zanjiriga birlashtirishga imkon beradigan rivojlanishning beshta eng muhim elementini izchil tuzilmaga birlashtiradi. HBHTJ tizimi inson faoliyati va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tavsiflash uchun o'ziga mos modeldir. HBHTJ tizimini qo'llash asosida Milliy ma'ruza ustida ish olib borgan jamoa manfaatdor tomonlar ishtirokida aniq harakatlantiruvchi kuchlar, bosimlar va atmosfera havosi, suv resurslari, tuproq va o'ziga xos ekotizimlar kabi va atrof-muhitning tarkibiy qismlarini aniqladi:

- O'zbekiston – iqlim o'zgarishi sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan mamlakat. O'zbekistonda o'rtacha yillik harorat ko'tarilib bormoqda va prognozlarga ko'ra, bundan keyin ham o'sishda davom etadi. Iqlim o'zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalari quruq issiqlik davrining cho'zilishi, qor to'planishining pasayishi va muzliklar degradatsiyasi, tekisliklar va tog' etaklarida bug'lanishing ortishi, qurg'oqchilik va haddan ortiq suv taqchilligi hodisalarining ko'payishiga olib keldi. Mamlakatdagi ob-havo sharoiti yanada issiq va quruqroq bo'lishi kutilmoqda. Anomal jaziramaning tez-tez va shiddatli davrlari, qurg'oqchilik va yog'ingarchilik shakllarining o'zgarishi, sharros yomg'ir, suv toshqinlari va sel kabi ushbu o'zgarishlar bilan bog'liq ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishiga olib keladi. Iqlim o'zgarishi tuproq degradatsiyasi va cho'llanishni kuchaytiradi, shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda bioxilma-xillik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

• O'zbekiston aholisi hamda iqtisodiyotining sezilarli ravishda o'sishi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, rivojlanayotgan energetika infratuzilmasi o'sib borayotgan aholi soni, sanoatlashtirish va urbanizatsiya sur'atlaridan ortda qolmoqda.

• Qishloq xo'jaligida, shuningdek, sanoatda (paxta, to'qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo, metallurgiya sanoatlari va h.k.lar) o'rtacha yillik suv iste'moli yuqoriligidcha qolmoqda, qurg'oqchilikning davomiyligi va chastotasining ortishiga olib keluvchi suv tanqisligi esa iqlim o'zgarishi tufayli kuchayib bormoqda. Aholining o'sishi yuqori sifatli ichimlik suviga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi kutilmoqda. Suv havzalarining ifloslanishi (yer usti va osti) oqova suvlarni tozalash inshootlarining samarasiz ishlashi natijasida yuzaga keladi. Bunda, asosiy ifloslantiruvchi obyektlar sanoat, qishloq xo'jaligi va kommunal korxonalar hisoblanadi. Suv sarfini qisqartirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, shahar hamda qishloq aholisi uchun barqaror yechimlarni ilgari surish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda.

• Atmosfera havosining statsionar va ko'chma manbalardan ifloslanishi noqulay iqlim sharoiti tufayli kuchayib bormoqda. Bu, o'z navbatida, asosiy tarmoqlar: energetika, neft va gaz sanoati, metallurgiya, kimyo sanoati, qurilish sanoati faoliyati, shuningdek, avtotransport vositalari sonining o'sishi bilan bog'liq. Shu bilan birgalikda, kuzatuvlar olib borilgan shaharlarning aksariyatida asosiy ifloslantiruvchi moddalarning o'rtacha yillik konsentratsiyasi maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyadan (MRK) past bo'lib qolmoqda. Hozirda uglerod oksidi va uglevodorodlar tashlamalarining kamayishi kuzatilmoxda, biroq, ayni paytda azot oksidi va qattiq zarrachalar tashlamalari esa ortib bormoqda. Tashlamalarning eng katta hissasi energetika (76%) va qishloq xo'jaligi (18%) tarmoqlariga to'g'ri keladi.

• O'zbekistonda yer resurslarini boshqarishda ham salbiy, ham ijobiy tendensiyalar kuzatilmoxda. Salbiy tendensiyalar o'z ichiga tabiiy-iqlim omillari, shuningdek, antropogen faoliyat tufayli cho'llanish jarayonlarining rivojlanishini oladi. Ijobiy tendensiyalar sirasiga yashil maydonlar hududini ko'paytirish, paxta maydonlarini qisqartirish, don, sabzavot, meva va ozuqa ekinlari maydonlarini ko'paytirish, shuningdek, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etishni kiritish mumkin.

• Yerlarning degradatsiyasi va cho'llanishining sabablaridan biri, bu suv resurslaridan haddan ortiq foydalanishdir. Nooqilona sug'orish amaliyoti, shuningdek, keng ko'lAMDAGI qayta ta'mirlashga muhtoj bo'lgan eskirgan suv ta'minoti infratuzilmasi Orol dengizining qisqa vaqt ichida cho'llanishi va qurishiga olib keldi. Bir paytlar dunyodagi eng yirik ichki dengizlardan biri bo'lgan Orol dengizi, uning irmoqlaridan suvni boshqa yo'lga (o'zanga) burib yuborgan yirik sug'orish loyihalari tufayli keskin qisqardi. Ushbu ekologik falokat biologik xilma-xillikning yo'qolishi, baliq zaxiralarining keskin kamayishiga olib keldi hamda mahalliy aholining turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi..

• O'zbekistonda suv muammosi serqirra bo'lib, u jo'g'rofiy, iqlimi, iqtisodiy va boshqaruv omillarining uyg'unligi bilan bog'liq. Mamlakatning qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil iqlimi cheklangan suv resurslari bilan uyg'un ravishda suv resurslarini barqaror boshqarish uchun jiddiy muammo-larni keltirib chiqarmoqda. Markaziy Osiyoning qurg'oqchil mintaqasida geografik joylashuvi tufayli O'zbekiston surunkali suv tanqisligini o'z boshidan kechirmoqda. Suv resurslarining cheklanishi keng cho'l hududlarining mavjudligi va mamlakat suv resurslarini mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan bo'lishishi bois yanada murakkablashadi.

• Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi, biroq, u ko'p jihatdan irrigatsiya tizimi bilan bog'liq. Sug'orishning samarasiz usullari, shu jumladan eskirgan infratuzilma va texnika uskunalaridan foydalanish suvning ortiqcha sarflanishiga, bu esa, o'z navbatida, suv resurslarining isrof bo'lishi va kamayishiga olib keladi. Suv resurslarini kompleks boshqarishning mavjud emasligi, ularning notekis taqsimlanishi va haddan ortiq sarf bo'lishiga sabab bo'ladi.

• Sanoat tashlamalari, qishloq xo'jaligi oqovasi va oqova suvlarni yetarli darajada tozalamaslik suvning ifloslanishiga olib keldi, bu yer usti va yer osti suvlariha ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu ifloslanish inson salomatligi uchun ham, atrof-muhit uchun ham xavf tug'diradi.

• O'zbekiston iqlim o'zgarishi, jumladan yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi, haroratning ko'tarilishi va daryolarning yuqori oqimidagi muzliklarning erishi ta'siridan himoyasizdir. Ushbu o'zgarishlar suv ta'minotidagi murakkabliklarning ortishi va mavjud suv muammolarining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

• O'zbekistondagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning hozirgi holati va ushbu sohadagi zamonaviy tendensiyalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda mamlakatda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning soni va maydoni ortib bormoqda. O'rmon sohasida ham islohotlar olib borilmoqda, natijada mamlakatda o'rmonzorlar soni sezilarli darajada ortdi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi yerlarini o'zlashtirish va yer usti suvlari qayta taqsimlash, yaylov chorvadorligi, energetika va tog'-kon sanoatining rivojlanishi, tog'li hududlarda esa, infratuzilma va aholi punktlarining o'sishi kabi antropogen omillarning hayvonot va o'simlik dunyosining xilma-xilligiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri doimiy bo'lib qolmoqda yoki ortmoqda.

• 2017-yilda O'zbekiston o'zining Milliy darajada belgilangan taxmin qilingan hissasini (MDBTH) 2021-yilda esa yangilangan MDBH taqdim etdi. MDBHning maqsadi iqlim o'zgarishining oqibatlari va harakatlantiruvchi kuchlarini mamlakatning iqtisodiy konteksti hamda rivojlanishini hisobga olgan holda, shuningdek, Kengaytirilgan shaffoflik tizimiga (KShT) muvofiq bartaraf etishdir. Mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklari, xususan, MDBH «Moslashish» tarkibiy qismida aks etgan.

• 2021-yilda mamlakat o'zining Milliy darajada belgilangan taxmin qilingan hissasini qayta taqdim etdi. O'zbekistonda issiqxona gazlari (IG) tashlamalari 2013-yilga nisbatan 0,6 foizga kamaygan. 2017-yilda tashlamalar 189,2 mln. tonnani tashkil etdi va mamlakat energiya tejaydigan hamda ekologik toza texnologiyalarni, shuningdek, iqlim dasturlarini moliyalashtirish uchun resurslarni ilgari surish orqali 2030-yilga kelib YaIM birligiga issiqxona gazlari tashlamalarini 2010-yilga nisbatan 35 foizga kamaytirish majburiyatini oldi.

• Orolbo'yini mintaqasi xalqaro ahamiyatga ega. XX asrning ikkinchi yarmida Orol dengizi beqarorlik davriga kirdi. Antropogen ta'sir natijasida yuzaga kelgan ushbu davr suv hajmi va oqimining pasayishi, sho'rlanishning ortishi, baliqlar bioxilma-xilligining kamayishi va boshqa salbiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Qisqarib borayotgan Orol dengizi barcha qo'shni davlatlarning ekotizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, uning ekologik tang ahvoli bevosita Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekistonga, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlariga, bilvosita esa Tojikiston va Qirg'izistonga yoyilmoqda. Agar suv havzalari va tuproqlarning mavjud sho'rlanish tendensiyalari hozirgidek davom etsa, bir necha o'n yillardan so'ng Sirdaryo havzasidagi qishloq xo'jaligi yerlarining katta qismi sug'oriladigan dehqonchilik uchun yaroqsiz holga keladi (Amudaryo havzasida ham xuddi shunday holat yuzaga keladi), daryolarning ifloslanishi esa, hududning ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'nglab bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkin.

Ushbu maqlolada milliy bog'ning fazoviy ma'lumotlar tahlili yordamida yigirma yillik yog'ingarchilik o'zgarishlari xaritalari tuzilgan. Maqolaning maqsadi global iqlim o'zgarishining milliy bog'ning ekologik holatiga ta'sirini o'rnanishdir.

Geografik xususiyatlari.

Taxminan 5746 kvadrat kilometr maydonni egallagan Ugam-Chotqol milliy bog'i O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston bo'ylab cho'zilgan g'arbiy Tyan-Shan tog'larida joylashgan. Bog' Chotqol va Ugam tizmalarida joylashgan bo'lib, relyefi qo'pol, chuqur daryo vodiylari va baland cho'qilari bilan ajralib turadi. Mintaqaning balandligi dengiz

sathidan 800 dan 4372 metrgacha bo'lib, turli xil o'simlik va hayvonlar turlari uchun turli xil yashash joylarini ta'minlaydi [1-3]. 1-rasmida Ugam-Chotqol milliy bog'ining joylashuvi ko'rsatilgan.



1-rasm. Ugam-Chotqol milliy bog'ining xaritasi.

Natijalar.

Harorat: Bog' issiq yoz va sovuq qish bilan ajralib turadigan kontinental iqlimga ega. Yil davomida harorat o'zgarishi asosan balandlikka ta'sir qiladi. Vodiyning pastki qismi kabi pastroq balandliklarda yozda o'rtacha harorat 25°C dan 30° C gacha. Qishda harorat sezilarli darajada pasayishi mumkin, o'rtacha -5 °C dan -10 °C gacha. Balandlik oshgani sayin harorat pasayadi, natijada bog'ning yuqori qismlarida sovuqroq sharoitlar paydo bo'ladi [4].

Yog'ingarchilik: Ugam-Chotqol milliy bog'ida yog'ingarchilikning shakliga bog'ning geografik joylashuvi ham, atrofdagi tog'larning murakkab relyefi ham ta'sir qiladi. Bog' yog'ingarchilikning asosiy qismini bahor va kuz fasllarida oladi, yoz oylarida esa nisbatan kamroq yog'ingarchilik bo'ladi. Yillik o'rtacha yog'in miqdori 500 dan 1200 millimetrgacha, tog'li hududlarda esa ko'proq yog'in tushadi [5].

Mavsumiy o'zgarishlar: Bog' turli mavsumiy o'zgarishlarni namoyish etadi, ularning har biri bog'ning o'ziga xos jozi-basiga hissa qo'shami. Bahor martdan maygacha yumshoq harorat va bog' florasining uyg'onishini olib keladi. Yoz oylari iyundan avgustgacha, haroratning oshishi va alp o'tloqlarining gullashi bilan ajralib turadi. Sentabrdan noyabrgacha bo'lgan kuz, ko'katlar qizil, to'q sariq va oltinning jonli soyalarini o'zgartirganda, ranglarning g'alayonini taqdim etadi. Qish, dekabrdan fevralgacha bog'ni toza qor qatlami bilan qoplaydi va uni qishki mo'jizalarga aylantiradi [2].

O'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri: Ugam-Chotqol milliy bog'ining iqlim sharoiti uning xilma-xil flora va faunasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Harorat va yog'ingarchilikning o'zgaruvchanligi bog'dagi turli ekotizimlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pastki tog'larda archa o'rmonlari ustunlik qiladi, balandroqlarda esa alp o'tloqlari va subalp ignabargli o'rmonlari joylashgan. Bu o'ziga xos yashash joylari turli xil o'simlik va hayvonlar turlarining rivojlanishi uchun bir qator joylarni ta'minlaydi [3].

Bog'ning boy bioxilma-xilligi yog'ingarchilik va qor erishidan olingan suv resurslarining mavjudligi bilan qo'llab-quvvatlanadi. Harorat va yog'ingarchilikning mavsumiy o'zgarishi bog'dagi yovvoyi tabiatning reproduktiv sikllariga, migratsiya naqshlariga va qishki uyquga ta'sir qiladi. Qor qoploni, Qo'ng'ir ayiq, Buxoro bug'usi kabi turlar vaqt o'tishi bilan bog'ning iqlim sharoitiga moslashgan [5].

Tabiatni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlar: Ugam-Chotqol milliy bog'ining ekologik ahamiyatini e'tirof etgan O'zbekiston ushbu tabiiy boylikni muhofaza qilish va asrab-avaylash bo'yicha bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 2010-yilda bog' YUNESKOning biosfera rezervati sifatida belgilandi, bu uning biologik xilma-xillikni saqlash va barqaror rivojlanishni rag'batlantirishdagi ahamiyatini ta'kidladi. 2017-yilda qo'riqxona chegaralari uning noyob ekotizimlarini yanada himoya qilish uchun kengaytirildi [4].

Milliy bog'da yog'ingarchilik o'zgarish tendensiyasi.


Ugam-Chotqol milliy bog'i hududida yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishini aniqlash uchun biz yog'ingarchilik ma'lumotlari va Geoaxborot tizimlari yordamida 2000, 2010 va 2020-yillar uchun yog'ingarchilik xaritasini yaratdik.

2-rasmida ko'rsatilganidek, tadqiqot ishi 2000-yildan boshlanib oxirgi uchta o'n yillik uchun amalga oshirilgan. Olingan natijalarni esa yanada tushunarli bo'lishi uchun xarita va grafik ko'rinishida ko'rsatib o'tdik. Yog'ingarchilik miqdori 2000-yilda hududning shimoli-sharq qismida 610-630 mm atrofida, janubi-sharq qismida esa 630-650 mm atrofida bo'lgan va hududning aynan shu qismlari 2000-yilda eng ko'p yog'in miqdorini qabul qilgan. Hududning shimoli-sharqiy qismida yog'ingarchilik miqdorining keskin oshishi 2010 va 2020-yillarda ham kuzatildi. Hududning ushbu qismi 2010-yilga kelib qolgan hududlardan keskin farq qiluvchi 860-900 mm yog'in miqdorini qabul qilgan. Oxirgi yilda esa bu qismdagi yog'in miqdorida pasayish kuzatilagan bo'lsada, hududning boshqa qismlariga qaraganda ko'proq yog'inni qabul qilganligini yuqoridagi xarita va grafiklardan ko'rishimiz mumkin. Hududning janubi-g'arbiy qismida esa yog'in miqdori yildan-yilga kamayganini ko'rish mumkin. Dastlabki yilda ushbu hududdagi yog'in miqdori 560-570 mm ni tashkil etgan va bu ko'rsatkich boshqa qismlardagi yog'in miqdoriga qaraganda eng kam ekanligi xaritada aks etgan. Oxirgi yillarda ham yog'ingarchilik ushbu hududda 600-630 mm atrofida bo'lib, yana eng kam yog'inni qabul qilgan hudud bo'lib qoldi. Uchala yilni olib qaralsa, 2010-yil hudud unchun eng yog'inga boy yil bo'lganligini ko'rish mumkin.


Ugam-Chotqol milliy bog'ining gidrologik sharoiti.

Daryolar va ko'llar: Bog' daryo va ko'llarning keng tarmog'iga ega bo'lib, uning gidrologik boyligiga hissa qo'shami. Bog'dan oqib o'tadigan asosiy daryolarga Chotqol, Pskem va Ugam daryolari kiradi. Ushbu suv havzalari atrofdagi tog'lardan kelib chiqadi va bog'ning flora, faunasini va atrofdagi jamaolar uchun doimiy chuchuk suv manbai hisoblanadi [6].


Annual precipitation of the National park in 2000




Annual precipitation of the area in 2000




Annual precipitation of the National park in 2010




Annual precipitation of the area in 2010



Annual precipitation of the National park in 2020



Annual precipitation of the area in 2020



2-rasm. Ugam-Chotqol milliy bog'ida yog'ingarchilikning o'zgarishi.

Ugam-Chotqol milliy bog'ida ham bir qancha ko'llar joylashgan bo'lib, ular uning go'zalligi va ekologik ahamiyatini yanada oshiradi. Bog'dagi diqqatga sazovor ko'llarga Katta Qizilsu ko'li, Janto'rak ko'li va Yetti buloq ko'li kiradi. Bu ko'lllar nafaqat suv manbalari, balki suv turlari, ko'chmanchi qushlar va boshqa yovvoyi hayvonlar uchun muhim yashash joylarini ham ta'minlaydi. Muzliklar Ugam-Chotqol milliy bog'ining yana bir muhim gidrologik xususiyati hisoblanadi [7]. Bog'da ko'plab muzliklar joylashgan bo'lib, ularning aksariyati Tyan-Shan tog'larining baland cho'qqilarida joylashgan. Bu muzliklar yil davomida suvni muz va qor holida saqlaydigan tabiiy suv ombori vazifasini bajaradi. Muzliklar asta-sekin erishi bilan suvni chiqaradi, daryolar oqimiga hissa qo'shadi va qurg'oqchilik davrida bog'ning suv ta'minotini saqlab qoladi. Bog'dagi muzliklar nafaqat gidrologik muvozanat uchun, balki haroratni tartibga solish va mahalliy iqlim sharoitiga ta'sir qilish uchun ham zarurdir [2]. Muzliklarning erigan suvlari quyidagi turli xil ekotizimlarni qo'llab-quvvatlaydi, o'simliklar, yovvoyi tabiat va aholi punktlarini qo'llab-quvvatlaydi. Suvning mavjudligi va saqlanishi: Ugam-Chotqol milliy bog'ida suv resurslarining mavjudligi uning flora, faunasini va mahalliy hamjamiyatlarining omon qolishi va farovonligi uchun juda muhimdir [5]. Bog' rahbariyati suvni tejash muhimligini e'tirof etib, undan barqaror foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Suv sifatini nazorat qilish, ifloslanishning oldini olish, daryo va ko'llardan suv olishni boshqarish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ushbu tashabbuslar bog'ning gidrologik tizimlarining ekologik yaxlitligini saqlash, yashash joylarini muhofaza qilish va hayvonlar va inson ehtiyojlari uchun ishonchli suv ta'minotini ta'minlashga qaratilgan [6].

Insonlar o'rtasidagi munosabatlar va suvni boshqarish: Ugam-Chotqol milliy bog'i nafaqat toza tabiat hududi, balki uning suv resurslariga tayanadigan bir qancha mahalliy jamoalar ham yashaydi. Bog' rahbariyati suvni barqaror boshqarish amaliyotini targ'ib qilish uchun ushbu jamoalar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Hamkorlikdagi loyihibar suvni tejash haqida xabardorlikni oshirish, qishloq xo'jaligida

samarali sug'orish texnikasini joriy etish va suv resurslariga ta'siri kamaytiradigan mas'uliyatlari turizm amaliyotlarini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. Mahalliy manfaatdor tomonlarni jalb qilish orqali bog' inson ehtiyojlari va bog'ning nozik gidrologik tizimlarini saqlab qolish o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladi [7].

Tavsiyalar:

Global iqlim o'zgarishining Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'siri yildan-yilga keskinlashib bormoqda. Ushbu o'zgarishlar dinamikasini tahlil qilishda RS va GIS tizimlarining ahamiyati yildan-yilga kuchayib bormoqda.

- so'nggi 20 yil davomida milliy bog'da yashillik ko'rsatichi ortib bormoqda. Bu, asosan, mintaqaning shimoliy va sharqi qismlarida kuzatiladi.

- milliy bog' hududida so'nggi 20 yilda qor qoplaming qisqarishi kuzatildi, buning natijasida o'simliklarning o'sishi tezlashdi.

- yillik yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishi asosan shimoliy mintaqada ortishi, janubiy hududlarda kamayishi kuzatildi.

Xulosalar.

Ugam-Chotqol milliy bog'ining iqlim sharoiti uning geografik joylashuvi va uni o'rab turgan tog'li releflar bilan belgilanadi. Issiq yozdan sovuq qishgacha va bahorning yam-yashilligidan qishning qor bilan qoplangan landshaftlarigacha, bog'da iqlim o'zgarishlarining gobelenlari mavjud. Bu sharoitlar, o'z navbatida, turli xil ekotizimlarni va ko'plab o'simlik va hayvonlar turlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Daryolar, ko'llar va muzliklar bilan ajralib turadigan Ugam-Chotqol milliy bog'ining gidrologik sharoiti ushbu tabiiy maskanning qon tomirini tashkil etadi. Ular bog'ning ekotizimlarni qo'llab-quvvatlaydi, o'simlik va hayvonot dunyosini chuchuk suv bilan ta'minlaydi va mahalliy jamoalarning turmush tarzini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu gidrologik tizimlarni tushunish va saqlash bog'ning uzoq muddatli salomatligi va barqarorligini ta'minlash, uning tabiiy go'zalligi va ekologik boyligini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Juliev, A. Pulatov, S. Fuchs, and J. Hübl, 'Analysis of Land Use Land Cover Change Detection of Bostanlik District, Uzbekistan', Pol. J. Environ. Stud., vol. 28, no. 5, pp. 3235–3242, May 2019, doi: 10.15244/pjoes/94216.
2. M. Bekchanova, 'Mapping Cultural Ecosystem Services in Different Landscapes through the Perception of Tourists in Ugam Chatkal National Nature Park, Uzbekistan', International Journal of Environment and Sustainability, vol. 7, no. 2, Dec. 2018, doi: 10.24102/ijes.v7i2.908.
3. M. Juliev, A. Pulatov, and J. Hubl, 'Natural hazards in mountain regions of Uzbekistan: A review of mass movement processes in Tashkent province', IJSER, vol. 8, no. 2, pp. 1102–1108, Feb. 2017, doi: 10.14299/ijser.2017.02.013.
4. M. Juliev, M. Mergili, I. Mondal, B. Nurtaev, A. Pulatov, and J. Hübl, 'Comparative analysis of statistical methods for landslide susceptibility mapping in the Bostanlik District, Uzbekistan', Science of The Total Environment, vol. 653, pp. 801–814, Feb. 2019, doi: 10.1016/j.scitotenv.2018.10.431.
5. Khujanazarov, T., Ergashev, M., & Mamatkarimov, S. (2020). Assessment of Soil Erosion in the Ugam-Chatkal National Park (Uzbekistan) Using GIS Technology. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 579, No. 1, p. 012116). IOP Publishing.
6. Zonn, I. S., & Kostianoy, A. G. (Eds.). (2015). The Caspian Sea Encyclopedia. Springer.
7. Khasankhanov, M. M., Khoshimov, B. A., Juraev, A. I., & Kurbanov, E. S. (2018). Water Resources and Their Rational Use in the Ugam.

TOSHKENT VILOYATIDA ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHI TAHLILI

Imyaminova Shoxida Sunatullayevna, tayanch doktorant,
Buriyev Salimjan Samedjanovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.

Annotatsiya. Atmosfera havosining ifloslanishi tirk organizmlarga uzoq muddatli salbiy ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. XIX asrdan boshlab fan-texnikaning taraqqiy etishi, aholi sonining ortib borishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanimaganligi oqibatida atrof-muhitning, jumladan, atmosfera havosining ifloslanishi flora, fauna va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Toshkent viloyatida ko'plab sanoat korxonalari joylashganligi sababli turli xil ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga tashlanmoqda. Ushbu maqolada Toshkent viloyatining sanoat shaharlarida atmosfera havosining ifloslanish darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar, atmosfera ifloslanishi indeksi, inson salomatligiga ta'siri.

Аннотация. Загрязнение атмосферного воздуха является основным фактором негативно влияющий на живые организмы в долгосрочной перспективе. Начиная с 19 века, в результате прогресса науки и техники, ростом населения, нерационального использования природных ресурсов, а также загрязнения окружающей среды, в том числе атмосферного воздуха, негативно оказывается на флоре, фауне и здоровье человека. В Ташкентской области расположено множество промышленных предприятий, которые выбрасывают различные загрязняющие вещества в атмосферу. В данной статье анализируется уровень загрязнения атмосферного воздуха в Ташкентской области.

Ключевые слова: промышленные предприятия, загрязнители атмосферного воздуха, индекс загрязнения атмосферы, влияние на здоровье человека.

Abstract. Atmospheric air pollution stands as the primary factor detrimentally impacting living organisms over the long term. Since the 19th century, advancements in science and technology, coupled with population growth and the irrational utilization of natural resources, have led to environmental pollution, notably in the atmosphere, adversely affecting flora, fauna, and human health. The Tashkent region harbors numerous industrial enterprises emitting various pollutants into the air. This article delves into an analysis of the extent of atmospheric air pollution in the Tashkent region.

Keywords: Industrial Enterprises, Air Pollutants, Atmospheric Pollution Index, Impact on Human Health.

Kirish. Yer yuzi aholisining tez sur'atlarda ortib borayotganligi va xo'jalik faoliyatining rivojlanishi tabiatga antropogen ta'sirning kuchayishi va atrof-muhit ifloslanishining oshishiga olib kelmoqda. Barcha turdag'i ifloslanishlardan atmosfera havosining ifloslanishi insonlar uchun eng xavfli hisoblanadi. Insonlar nafas olganda havodagi zararli moddalarning inson tanasiga kirishi hisobiga turli og'ir kasalliklar ko'paymoqda. Atmosfera havosining intensiv ifloslanish manbalari nafaqat sanoat va kommunal-xo'jalik korxonalari, balki transport vositalari ham hisoblanadi.

Sayyoramizdagi ko'pchilik insonlar havoning ifloslanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda yashaydi. AQI ma'lumotlariga ko'ra, atmosfera havosining ifloslanish darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga Chad, Iraq, Pokiston kiradi. 2022-yil holatiga O'zbekiston atmosfera havosining ifloslanganligi darajasi bo'yicha 20-o'rinda qayd etilgan [13].

Atmosfera havosining ifloslanishi daromadi past va o'rtacha bo'lgan mamlakatlarda inson salomatligiga ta'sir qiluvchi asosiy ekologik omillardan biridir. Baholash ko'rsatkichlari ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda shaharlar-da, tabiiy ofatlar natijasida ham atrof-muhit havosining ifloslanishi dunyo bo'ylab 4,2 million kishining o'limga olib kelgan. Bu holatlар yurak qon tomir, nafas yo'li va

saraton kasalliklarining rivojlanishiga olib keladigan mayda dispers zarrachalarning shakllanishiga bog'liq.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi barcha o'limlarning 7% dan ortig'i atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog'liq. 2019-yilda havo ifloslanishi bilan bog'liq holatda o'limlarning qariyb 37 foizi yurak qon tomir kasalliklari va insult, 18 va 23 foizi o'pka kasalligi va nafas yo'llari kasalliklari natijasida, 11 foizi esa onkologik kasalliklarga to'g'ri kelgan [15].

Atmosfera havosida chang zarrachalari me'yordan ortiq bo'lgan havodan nafas olish oqibatida insonda turli xil surunkali kasalliklar ko'payib bormoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti atmosfera havosi tarkibidagi quyidagi modda va elementlarni majburiy nazorat qilish uchun tavsiya etadi: ozon, azot oksidi va azot dioksid, oltingugurt dioksid, uglerod oksidi, metan va uglevodorodlar [3].

Salomatlik uchun eng katta xavf bo'lgan mayda zarralar (o'lchami 2,5 mikrondan kam) (PM2,5) bronxiolalar va alveolalarga etib borishi mumkin, shuningdek, o'ta nozik zarralar (PM0,1), hajmi 0,1 mikrondan kam bo'lgan zarrachalar inson tanasidagi qon oqimiga kirib boradi. Og'ir zarralar turli organlarda to'planishi mumkin va tananing to'qimalariga va ichki organga ham salbiy ta'sir qiladi [3].

O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarining 11.6-vazifasida "2030-yilgacha shaharlar ekologiyasining aholiga salbiy ta'sirini kamaytirish, bunda havoning sifatiga hamda shahar chiqindilari va boshqa chiqindilarning chiqarib tashlanishiga alohida e'tibor qaratish" belgilangan [1].

Atrof-muhitga jadal antropogen ta'sir natijasida atmosfera havosining ifloslanishi aholi salomatligi bilan sanoat rivojlanishi manfaatlari o'rtaida qarama-qarshiliklarga olib kelmoqda. O'zbekiston sanoati rivojlanayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatning yalpi ichki mahsulotining 23 foizi iqtisodiyotning paxtani qayta ishslash, mashinasozlik, neftgaz, rangli metallurgiya, elektrotexnika, neftni qayta ishslash va boshqa yetakchi sanoat tarmoqlariga to'g'ri keladi [14].

Toshkent viloyatida turli xil sanoat korxonalari mavjud bo'lib, ular atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan turli ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Respublikada eng yirik ko'mir kompaniyasi bo'l mish "O'zbekko'mir" AJ ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning aniqlangan zahiralarini 1,8 milliard tonna qo'ng'ir ko'mir va 47 million tonna toshko'mir deb baholamoqda. Birgina Angren havzasining istiqbolli zaxiralari 2 milliard tonnadan ortiq deb baholanadi. So'nggi yillarda qo'ng'ir ko'mir qazib olish yiliga qariyb 4 million tonnagacha oshdi [3].

O'zbekistonda elektr energiyasining qariyb 75-80 foizi mamlakatda ishlab chiqariladigan tabiiy gaz hisobidan ishlab chiqariladi. Tabiiy gaz barcha qazib olinadigan yoqilg'ilarning eng tozasi hisoblanadi, chunki uning yonishi natijasida hosil bo'ladigan yon mahsulotlar asosan karbonat angidrid va suv bug'lari bo'lib, tarkibida azot oksidlari kam va muallaq zarrachalar deyarli yo'q. Tabiiy gazni yoqish orqali ma'lum miqdorda energiya ishlab chiqarish neftni yoqishdan taxminan 30% kamroq karbonat angidrid va ko'mirni yoqishdan ko'ra 45% kamroq karbonat angidrid hosil qiladi. Biroq, hatto gaz bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari ham zaxira yoqilg'i sifatida mazut (og'ir moy)dan foydalanimoqda. Ko'mir va gazda ishlaydigan Angren va Yangi Angren IESlari atmosferaga katta miqdorda tashlanmalarni chiqarish manbai hisoblanadi. Angren ko'miri yuqori kulli (48% gacha) hisoblanib, ikkita elektrstansiyada ham ko'mirdan foydalanimanda filtrlarda uchuvchi kul zarrachalarini ushlab qolishni qiyinlashtiradi.

O'zbekistondagi yagona mis ishlab chiqaruvchi Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) Toshkent viloyatida joylashgan. Toshkent viloyatidagi foydali qazilma konlari rudalarning murakkab tarkibi bilan ajralib turadi va ular tarkibida 170 dan ortiq foydali qazilmalar mavjud. OKMKda, shuningdek, metall rux, qo'rg'oshin konsentrati va boshqa mahsulotlar ham ishlab chiqariladi. OKMK tizimidagi korxonalardan atmosfera havosiga katta miqdorda tashlanmalar tashlanmoqda [2].

Sanoat korxonalari 9 ta ifoslantiruvchi moddalar: chang, oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi, azot dioksidi, vodorod sulfid, fenol, ftor vodorod, ammiak va umumiyligida uglevodorod miqdorini nazorat qiladi. Yangi Angren elektr stansiyasidagi

bitta kuzatuv postida oltingugurt va azot dioksidi kontsentratasiyasi muntazam ravishda o'lchanadi [2].

Tadqiqot uslubi. Tadqiqotlarni olib borishda statistik, grafik-analitik tahlil usullaridan foydalilanilgan.

"O'zgidromet" agentligi atmosfera havosi ifloslanishi monitoringini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-sentabrdagi №737-son "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 25 ta shahardagi 63 ta stasionar kuzatuv punkti, shu jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq, Angren, Bekobod, Chirchiq va Yangiyo'l shaharlarida amalga oshiradi. Kuzatuv punktlarida atmosfera havosidagi 12 ta ifoslantiruvchi modda nazorat qilinadi.

Shaharlarda atmosfera havosi sifatini monitoring qilish dasturi beshta asosiy ifoslantiruvchi modda: azot oksidi (NO), azot dioksidi (NO_2), oltingugurt dioksidi (SO_2), uglerod oksidi (SO), muallaq zarrachalar (chang), shuningdek, ammiak (NH_3) va ozon (O_3) ni o'z ichiga oladi. Sanoat korxonalari ko'p bo'lgan hududlarda statsionar manbalardan tashlanmalarning xususiyatlariga qarab dasturiy o'lchovlarga boshqa moddalar (ammiak, fenol, formaldehid, ozon, xlor, qattiq ftoridlar, ftorli vodorod, og'ir metallar) qo'shiladi.

Atmosfera havosi holati ustidan kuzatuvalar har kuni sutka davomida 3 marta (soat 7:00, 13:00, 19:00 da) amalga oshiriladi. "O'zgidromet" kuzatuv punktlarida havo namunalari aspirator usulida havoni Rixter yutgichlari va sorbsion naychalar orqali o'tkazib olinadi va markaz laboratoriyalarda tahlil qilinadi.

"O'zgidromet"ning atmosfera havosi ifloslanishini monitoring qilish postlari shartli ravishda shahar "fon"- turar joy massivlari ichida, "sanoat"- bevosita korxonalarga yaqin va "avto" - avtomobil yo'llari yaqinidagi postlarga ajratiladi.

Havodagi zararli moddalar konsentratsiyasi belgilangan davlat standartlari va qo'llanmalarga muvofiq aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari. Atmosfera tabiiy tarkibining inson faoliyati natijasida ro'y bergan o'zgarishlari havoning ifloslanishiga olib keladi, ushbu ifloslanish ko'lamenti faqat atmosfera havosini monitoring qilish yordamida aniqlash mumkin. Monitoring olib borish havo sifatini baholash, uning sifatini yaxshilash bo'yicha samarali choralar ishlab chiqishda juda muhimdir.

Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi – atmosfera havosi ifloslanishining o'tgan, hozirgi holatini baholash hamda kelajakdagagi holatini prognozlash maqsadida ma'lumot beruvchi vaqt va makondagi doimiy uzoq davom etadigan kuzatuvalar tizimidir. Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi ifoslantiruvchi moddalar mavjudligini qayd etish va ularning anomal konsentratsiyalarini aniqlash, shuningdek, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish hamda aholi salomatligiga zararli ta'sirni kamaytirish bo'yicha tezkor choralar qabul qilish uchun juda muhimdir.

Havoning ifloslanish darajasi atmosferadagi ifoslantiruvchi moddaning faktik aralashmalar konsentratsiyasi (mg/m^3 , mkg/m^3 da) bilan ruxsat etilgan konsentratsiyasi (REK) taqqoslab baholanadi.


1-jadval.

Atmosfera ifloslanishi indeksi orqali atmosfera havosining ifloslanishi darajasini baholash

Ifloslanish darajasi	Atmosfera ifloslanish indeksini
Past	0-4
Ko'p	5-6
Yuqori	7-13
Juda yuqori	>14

Manba: Индексы загрязнения атмосферы в городах Республики Узбекистан в 2009–2018 гг. Узгидромет, 2018 г.


Tadqiqotlar davomida O'zgidromet va Statistika agentliklari ma'lumotlaridan foydalangan holda 2009-2021-yillar davomida Toshkent viloyatining sanoat rivojlanchagan hududlarida atmosfera havosining ifloslanishi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. Jumladan, Olmaliq, Angren, Chirchiq, Bekobod va Yangiyo'l shaharlarida atmosfera havosiga tashlanmalar miqdori o'rGANIB chiqildi.



1-diagramma. Atmosferaning ifloslanish indeksi (AII) ko'rsatkichlari.

Yuqoridagi diagrammadan ko'rinish turibdiki, Toshkent viloyatining Angren, Olmaliq shaharlarida atmosfera havosining ifloslanishi yuqori darajada. Angren shahrida kuzatuvlardan davomida atmosfera ifloslanish indeksi 2010-yilda eng yuqori bo'lgan.

Toshkent viloyatida atmosfera havosiga tashlanayotgan 6 turdag'i tashlanmalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar 2-diagrammada keltirilgan.



2-diagramma. Tashlamalar hajmining o'zgarish dinamikasi.

Yuqorida nomlari keltirilgan ifoslantiruvchi moddalar ichida eng yuqori miqdor SO tashlanmalariga to'g'ri kelmoqda.


Uglerod oksidi (SO) – rangsiz, hidsiz, 4-xavfli sinfga mansub gaz.

Uglerod oksidi kislorod yetishmasligi sharoitlarida va past haroratlarda qazilma yoqilg'i (ko'mir, gaz, neft)ning to'liq yonmasligi natijasida hosil bo'ladi.

Uglerod oksidi tashlanmalarining 65 foizi transport, 21 foizi mayda iste'molchilar va maishiy sektor, 14 foizi sanoatga to'g'ri keladi. Ekstremal konsentratsiyalar ko'pincha atrof-muhitga antropogen yuklama yuqori – transport tizilinch yoki smog hosil bo'lishiga olib keluvchi inversiyalar (ya'ni kuchsiz havo almashinuvi sharoitlari) bo'lgan hududlarda kuzatiladi.

Nafas olganda is gazi inson qonidagi gemoglobin bilan mustahkam kompleks birikmalar hosil qiladi va bu bilan qonga kislorod kelishini to'sib qo'yadi. Bu esa bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, yuqori konsentratsiyalarda esa o'limga olib kelishi mumkin.

2010-2021-yillar davomida Toshkent viloyatidagi stationar kuzatuv punktlarida uglerod oksidi (SO) tashlanmalar miqdorining o'zgarishi 3-diagrammada aks keltirilgan.




3-diagramma. Uglerod oksidi (SO) tashlamalari hajmining o'zgarish dinamikasi.

Manba: Узгидромет, "Характеристики загрязнения по некоторым постам" 2015 – 2021 гг.

Azot dioksidi (NO_2) – qizg'ish-qo'ng'ir rangli, 2-xavfli sinfga mansub gaz. Issiqlik elektrostansiyalari, sanoat qurilmalari va avtomobil dvigatellarida turli xil yog'ilg'i (tabiyiy gaz, ko'mir, benzin, mazut)ning yuqori haroratda yonish jarayonlari asosiy antropogen manbalar hisoblanadi.

Azot oksidlarining insonga ta'siri o'pka va bronxlar faoliyatining buzilishiga, nafas yo'llari infeksiyalariga ta'sirchanlikning o'sishiga, astma xurujiga olib keladi. Azot oksidlarining ta'siriga ko'proq bolalar va yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rigan katta yoshli insonlar moyildir.



Manba: Узгидромет, "Характеристики загрязнения по некоторым постам" 2015 – 2021 гг.


Ammiak (NH_3) – o'ziga xos o'tkir hid (nashatir spirti hid) ga ega rangsiz, 4-xavfli sinfga mansub gaz. Tabiatda tarkibida azot bo'lgan organik birikmalar chiriganda hosil bo'ladi.

Sanoatda ishlab chiqarilgan ammiakning 80 foizi qishloq xo'jaligidagi o'g'it sifatida foydalilanildi. Ammiakdan shuningdek sovitish qurilmalarida, plastik, portlovchi moddalar, to'qimachilik, pestisidlar, bo'yoq moddalar ishlab chiqarishda foydalilanildi. U ko'pchilik maishiy va sanoat yuvish eritmalarini tarkibida mavjud.

Havodagi ammiakning yuqori konsentratsiyasi burun, tomoq va nafas olish yo'llarining achishiga olib keladi. Bu nafas yo'llarining shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Past konsentratsiyali ammiak bilan nafas olish yo'tal, burun va tomoqning qichishishini keltirib chiqaradi. Ammiakning hidi uning mavjudligi haqida erta ogohlantiradi, ammo shu bilan birga u hid sezish qobiliyatini susaytiradi, bu esa uning havodagi past konsentratsiyalarini sezish imkoniyatini kamaytiradi.

Ammiak teri, ko'z, og'iz, nafas yo'llari yuzasidagi nam havo bilan reaksiyaga kirishishi natijasida kimyoviy kuchishni keltirib chiqarishi mumkin.

2010-2021-yillar davomida Toshkent viloyatidagi stasionar kuzatuv punktlarida ammiak (NH_3) tashlanmalari miqdorining o'zgarishi 5-diagrammada keltirilgan.




5-diagramma. Ammiak (NH_3) tashlamalari hajmining o'zgarish dinamikasi.

Manba: Узгидромет, "Характеристики загрязнения по некоторым постам" 2015 – 2021 гг.

Oltingugurt dioksidi, oltingugurt angidrid (SO_2) – rangsiz, o'ziga xos o'tkir hidli (yonayotgan gugurt hidi), 3-xavfli sinfga mansub gaz hisoblanadi. Qora va rangli metalluriya korxonalari, sopol, kaprolaktam, linoleum, ruberoid, qoraqog'oz, pergamin, penoplast, mineral tolali plitalar ishlab chiqarish korxonalari tashlanmalari; oziq-ovqat, to'qimachilik va qog'oz sanoati, shuningdek, issiqlik energetikasi korxonalari – issiqlik elektrostansiyalari (TES, GRES, qozonxonalar) tashlanmalari tarkibida mavjud.

Ruxsat etilgan me'yordan yuqori konsentratsiyadagi oltingugurt dioksidi ta'siri turli xil nafas yo'llari kasalliklarining ortishiga olib kelishi, shilliq pardalarga ta'sir ko'rsatishi, tomoq-burun yallig'lanishi, bronxitlar, yo'tal, tomoq bo'g'ilishi va og'rishini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa nafas organlarining surunkali buzilishlari kuzatiladigan, astma kasalligi bor insonlar oltingugurt dioksiiga o'ta ta'sirchadir.

Oltingugurt dioksidining yuqori konsentratsiyalari o'simliklarning jiddiy shikastlanishiga olib keladi. Oltingugurt dioksidi yetkazgan jiddiy zarar keng bargli o'simliklar (ayniqsa ismalloq, salat, g'o'za, beda), shuningdek, qarag'ay ignalarida oqimtir dog'lar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. SO_2 tuproq unumdorligini pasaytiradi, chunki uning ta'sirida achish jarayoni ro'y beradi. Havo tarkibida oltingugurt dioksiidi miqdori yuqori bo'lsa metallar korroziyasi tezlashadi.



6-diagramma. Oltingugurt dioksidi (SO_2) tashlamalari hajmining o'zgarishi.

Manba: Davlat Statistika qo'mitasining yillik hisobotlari.

Yuqoridagi diagrammada Toshkent viloyati sanoat shaharlarida 2015-2021-yillar davomida atmosferaga tashlanigan SO_2 keltirilgan.

Xulosalar. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Toshkent viloyatining sanoat rivojlangan shaharlarida atmosfera havosining ifloslanishi darajalari yillar davomida o'zgarishi kuzatilmoqda. Keyingi yillarda Toshkent viloyati bo'yicha eng yuqori tashlanmalar uglerod oksidi (SO), azot oksidlari (NOx) va ammiak (NH_3) tashlanmalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, Angren shahrida chang, SO , NH_3 miqdorlari, Bekobod shahrida chang, NO_2 gazlari, Chirchiq shahrida esa NH_3 tashlanmalari miqdori ruhsat etilgan me'yordan yuqoriligi kuzatilgan.

Atmosfera havosi ifloslanishining inson salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida stansionar manbalardagi eski havo filtrlarni yangisi bilan almashtirish, zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha q'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 21-fevraldag'i 83-soni qarori.

2. Европейская экономическая комиссия организации объединенных наций. Обзор результативности экологической деятельности. Узбекистан Третий обзор. Организация объединенных наций. Женева, 2020 год.

3. Song C., He J., Wu L., Jin T., Chen X., Li R., Ren P., Zhang L., Mao H. Health burden attributable to ambient PM2.5 in China // Environ. Pollut. 2017. Vol. 223. P. 575-586.

4. Ambient air pollution: a global assessment of exposure and burden of disease. WHO, 2016. 121 p.
5. Индексы загрязнения атмосферы в городах Республики Узбекистан в 2009–2018 гг. Узгидромет, 2018 г.
6. Характеристики загрязнения по некоторым постам. 2015 – 2021 гг. Узгидромет.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2015-yilda Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning asosiy ko'rsatkichlari. Statistik byulleten, Toshkent – 2016.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2016-yilda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'rmonchilik va ovchilikning asosiy ko'rsatkichlari. Statistik byulleten, Toshkent – 2017.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2017-yilda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'rmonchilik va ovchilikning asosiy ko'rsatkichlari. Statistik byulleten, Toshkent – 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2018-yilda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'rmonchilik va ovchilikning asosiy ko'rsatkichlari. Statistik byulleten, Toshkent – 2019.
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2019-yilda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'rmonchilik va ovchilikning asosiy ko'rsatkichlari. Statistik byulleten, Toshkent – 2020.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2020-yilda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'rmonchilik va ovchilikning asosiy ko'rsatkichlari. Statistik byulleten, Toshkent – 2021.
13. iqair.com
14. uzintour.com
15. who.int
16. hydromet.uz

TOSHKENT BOTANIKA BOG'I GENOFONDIDAN RESPUBLIKAMIZNING TURLI TARMOQLARIDA FOYDALANISH UCHUN YANGI ASSORTIMENTNI TAVSIYA ETISH

Raximova Nargiza Kamiljanovna, biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim,
Temirov Eldor Ergashboyevich, PhD, katta ilmiy xodim,
O'zR FA Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog'i.

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda Toshkent Botanika bog'i genofondidagi yangi assortimentlarni respublikamiz turli tarmoqlarida foydalanishga tavsiya etish yuzasidan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Shuningdek, aynan Markaziy Osiyo eksposiziyasidagi assortimentlarning to'liq tahlil qilinishi natijasida o'rmon xo'jaligi hamda qishloq xo'jaligining bog'dorchilik, farmasevtika sohalarida qo'llash mumkin bo'lgan istiqbollari turlar, danakmevali va dorivor turlar yoki qurg'oqchil, issiq, cho'l hududlarida o'sishi mumkin bo'lgan turlar turli tarmoqlarga tavsiya etilgan.

Qo'llanilish sohalari va viloyatlar kesimida tavsiya etishda daraxt va butalarning biologik xususiyatlari, hududning tuproq-iqlim sharoitlari hamda qimmatli xo'jalik belgilariga qarab tavsiya etilgan. Eng ko'p assortimentlar Toshkent shahri va viloyati, Farg'ona, Andijon, Namangan hamda Samarqand viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, foydalanish bo'yicha esa ko'kalamzorlashtirish, o'rmon-yog'ochbop, farmasevtika sohalarining yetakchilik qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Toshkent Botanika bog'i, genofond, assortiment, introduksiya, manzarali daraxt va butalar.

Аннотация. В статье приводится информация о рекомендации нового ассортимента, имеющегося в генофонде Ташкентского ботанического сада для использования в различных отраслях нашей республики на сегодняшний день.

Кроме того, в результате полного анализа ассортимента из экспозиции Центральной Азии для различных отраслей рекомендованы перспективные виды, косточкоплодные и лекарственные виды или виды, которые могут произрастать в засушливых, жарких, пустынных регионах, которые могут быть использованы в области лесного хозяйства и садоводства, также фармацевтики.

При составлении рекомендаций по областям применения, виды рекомендованы исходя из их биологических особенностей, почвенно-климатических условий местности и ценных хозяйственных признаков. Определено, что наибольший ассортимент находится в Ташкент и Ташкентскую область, также Ферганскую, Андиканскую, Намангансскую и Самаркандскую области, при этом лидирующими областями использования видов являются озеленение, лесопромышленный комплекс и фармацевтика.

Ключевые слова: Ташкентский Ботанический сад, генофонд, ассортимент, интродукция, декоративные деревья и кустарники.

Abstract. The article provides information on the recommendation of a new assortment available in the gene pool of the Tashkent Botanical Garden for use in various industries of our republic today.

In addition, as a result of a complete analysis of the assortment from the Central Asian exposition, promising species, stone-fruit and medicinal species or species that can grow in arid, hot, desert regions that can be used in the field of forestry

and horticulture, as well as pharmaceuticals, are recommended for various industries.

When making recommendations on areas of application, species are recommended based on their biological characteristics, soil and climatic conditions of the area and valuable economic characteristics. It is determined that the largest assortment falls in Tashkent and the Tashkent region, as well as the Ferghana, Andijan, Namangan and Samarkand regions, while the leading areas of use of species are landscaping, forestry and pharmaceuticals.

Key words: Tashkent Botanical Garden, gene pool, assortment, introduction, decorative trees and shrubs.

Kirish.

Bugungi kunda respublikamizda yashil hududlarni kengaytirish, ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish hamda ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada Toshkent Botanika bog'ida ham o'simlik dunyosini muhofaza qilish, saqlash, yangi turdag'i daraxt va butalarni introduksiya qilish va iqlimlashtirish hamda ulardan tarmoqlarda samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Botanika bog'larida noyob va ekzotik o'simliklarni qo'riqlash va muhofaza etish, ko'kalamzorlashtirilgan hududlarda ekotizimlarni muhofaza etish va ilmiy o'rghanishdan tashqari barcha faoliyat turlari cheklanadi. Demak, Botanika bog'lar tabiatni muhofaza etuvchi noyob o'simlik turlarini introduksiya qiluvchi va ularni ilmiy o'rghanuvchi muassasalar hisoblanib, ularning asosiy maqsadiga quyidagilar kiradi:

- bioxilma-xillikni saqlash, mahalliy florani boyitish maqsadida maxsus o'simliklar dunyosi kolleksiyasini yaratish hamda ilmiy, ta'lim va targ'ibot ishlarini o'tkazish;
- botanika bog'larida floristik ob'yektlar muhofazasining buzilishiga olib keluvchi har qanday faoliyat turlarini ta'qiqlash;
- botanika bog'lar o'simliklar botanikasi, sistematikasi, qo'riqlash va agrotexnikasi sohasida boy tajriba egasi sifatida bioxilma-xillikni saqlash strategiyasini ishlab chiqishda qatnashish;
- introduksiya sharoitlarida uzoq yillar o'rganilgan o'simlik turlarini kelajakda mamlakatimizda turli sohalarida foydalanish istiqbollarini belgilab berish.

Bugungi zamonaviy Botanika bog'i - shahar sharoitlarida barpo etilgan alohida qo'riqlanadigan tabiiy ko'kalamzorlashtirilgan hudud bo'lib, uning resurslari asosida muassasa landshaft bog'lar barpo etadi va introduksiya qilingan o'simliklar kolleksiyasini yaratadi, bu esa ilmiy tadqiqotlar uchun noyob ob'yekt bo'lib hisoblanadi hamda bioxilma-xillikni saqlash, barqaror rivojlanish, turizm va rekreatsion faoliyat, aholi farovonligini oshirish uchun tovar va xizmat mahsulotlarini ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etadi.

Daraxt va butalarning manzaralari xususiyatlari, ko'paytirish va yetishtirish usullari hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha MDH davlatlarida ham ko'plab olimlar ish olib borishgan, jumladan, A.Yu. Limarenko va T.V. Paleyeva [1] lar tomonidan manzaralari, istiqbolli daraxt va butalarni parvarishlash hamda sug'orish ishlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar; I.E. Buchenkov [2] daraxt va butalarning biologik, ekologik va manzaralilik

xususiyatlari, shuningdek, ularning introduksiyasi, iqlimlashtirilishi, seleksiyada qo'llanilishi bo'yicha; Yu. Bajenov, A. Lisikov [3] manzaralari daraxt va butalardan turli bog'lar dizaynida foydalanish yuzasidan tavsiyalar berib o'tishgan. N.A. Shevireva, T.Yu. Konovalova [4] esa bog'bonlarga allaqachon ma'lum bo'lgan manzaralari daraxt va butalar, shuningdek, ularning yangi navlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirishgan.

Dunyoning ko'plab Botanika bog'larida introdusident daraxt-butalar hamda ma'lum bir hudud florasi Qizil kitobga kiritilgan turlarni saqlab qolish, iqlimlashtirish, *ex-situ* sharoitida ko'paytirish orqali ularni tabiiy areallariga qaytarish kabi tadqiqot ishlari olib borilmoqda [5, 6]. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ham O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan kamyob va yo'qolish arafasida turgan birpallali manzaralari geofit turlar, xususan, *Allium*, *Iris*, *Eremurus* kabi turkumlarga mansub birqancha turlarni introduksiya sharoitida saqlab qolish va natijada turlarni tabiiy o'sish areallariga qayta reintroduksiya qilish ishlari ham olib borilmoqda [7, 8, 9].

So'nggi yillarda mamlakatimizda ko'kalamzorlashtirish va manzaralari bog'dorchilik maqsadlarida manzaralari daraxt-but, gullovchi manzaralari o'simliklar introduksiyasi ko'lami oshib bormoqda. Mahalliy florani boyitish maqsadida ko'plab manzaralari, farmasevtika va o'rmon xo'jaligi sohasi uchun istiqbolli daraxt-but va o't o'simlik turlari introduksiya qilindi.

Manzaralari daraxt-butga o'simliklarining sanitari-gigiyenik ahamiyati nihoyatda yuqori bo'lib, ular havoni chang va boshqa zararli gazlardan tozalaydi. Yashil o'simliklar yer ustki havo qatlami harorati va nisbiy namligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yozgi mavsumda daraxt-butga o'simliklari mikroiqlimni yaxshilaydi, shu boisdan ham botanika bog'larini hududlarining havo harorati shahar havosidan +5-+6 °S ga past bo'ladi [10].

Tadqiqot ob'yekti bo'lib Toshkent Botanika bog'i genofondida saqlanayotgan mahalliy va xorij florasiga mansub 188 ta oila va 322 turkumga mansub 914 tur va 39 ta formalari hisoblanadi.

Ayni vaqtida Toshkent Botanika bog'ida introduksiya qilingan daraxt va butalarning 188 ta oila, 322 turkum, 914 tur va 39 ta formalari mavjud bo'lib, ushbu assortimentlar ichida yuqori manzaralari, iste'molbop, o'rmon-yog'ochbop hamda farmasevtika sohalarida keng foydalanish mumkin bo'lgan ulkan genofond saqlanib kelinmoqda.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

Respublikamiz turli tarmoqlarida foydalanish xilma-xillagini oshirish maqsadida Toshkent Botanika bog'ining Markaziy Osiyo ekspozisiyasidan 43 ta oila, 78 ta turkum,

138 ta tur hamda 8 ta formadan iborat assortimentlar tahlil qilindi.

Tahlil qilingan assortimentlardan o'rmon xo'jaligi, farmasevtika, ko'kalamzorlashtirish hamda obodonlashtirish sohalarida foydalanish mumkin. Tavsiya etilayotgan assortimentlar viloyatlar kesimida quyidagicha taqsimlandi, jumladan: Toshkent viloyati uchun 138 ta tur, 8 ta forma, Namangan viloyati uchun 137 ta tur, 8 ta forma, Farg'on'a viloyati uchun 138 ta tur, 8 ta forma, Navoiy viloyati 82 ta tur, 2 ta forma, Buxoro viloyati 82 ta tur, 2 ta forma, Andijon viloyati uchun 138 ta tur, 8 ta forma, Samarqand viloyati uchun 118 ta tur, 7 ta forma, Qashqadaryo viloyati uchun 104 ta tur, 5 ta forma, Surxondaryo viloyati uchun 103 ta tur, 5 ta forma, Sirdaryo viloyati uchun 98 ta tur, 2 ta forma, Jizzax viloyati uchun 117 ta tur, 6 ta forma, Xorazm viloyati uchun 74 ta tur, 2 ta forma va Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun 75 ta tur va 2 ta formalar tavsiya etildi (1-rasm).


Q'llanilish sohalari va viloyatlar kesimida tavsiya etishda daraxt va butalarning biologik xususiyatlari hamda hududning tuproq-iqlim sharoitlari hamda qimmatli xo'jalik belgilariga qarab tavsiya etildi. Tahlillardan dendrofloradagi ayrim turlardan uch-to'rtta sohada ham foydalanish mumkinligini ko'rish mumkin.

Assortimentlardan foydalanish sohalari bo'yicha Toshkent shahri va viloyati, Farg'on'a, Andijon, Namangan hamda Samarqand viloyatlari yetakchilik qilib, bunda eng ko'p assortimentlar ko'kalamzorlashtirish sohasiga – 95,2%, keyingi o'rinda o'rmonchilik va yog'och sanoati – 50%; melioratsiya – 35,6%; farmasevtika sanoatiga – 32,8%; kimyo sanoatiga – 19,8%; oziq-ovqat sanoatiga esa – 6,8%

hisobida to'g'ri keldi.

O'rmon xo'jaligi hamda qishloq xo'jaligining bog'dor-chilik, farmasevtika sohalarida qo'llash mumkin bo'lgan hamda foydalilanayotgan va yangi istiqbolli turlardan: *Juglans regia* L. (Juglandaceae), *Ribes saxatile* Pall. (Grossulariaceae), *Celtis caucasica* Willd. (Cannabaceae), *Ficus carica* L., *Ficus afganica* (Popov) Drobow (Moraceae), *Prunus davidiana* var. *davidiana*, *Prunus × vavilovii* (Popov) A.E. Murray, *Prunus armeniaca* L., *Malus sieversii* (Ledeb.) M. Roem., *Malus niedzwetzkyana* Dieck Ex Koehne, *Malus kirghisorum* Al. Fed. & Fed., *Malus domestica*, *Padellus mahaleb* (L.) Vassilcz., *Prunus sogdiana* Vassilcz., *Prunus divaricata* Ledeb., *Prunus persica* (L.) Batsch, *Prunus spinosa* L., *Prunus ferganica* O.A.Lincz., *Prunus silvestris* Garsault, *Prunus darvasica* Temberg., *Prunus pissardii* Carrière., *Prunus domestica* L., *Prunus cerasifera* Ehrh., *Pyrus regelii* Rehder, *Pyrus communis* L., *Pyrus asiae-mediae* Maleev, *Pyrus korshinskyi* Litv., *Cydonia oblonga* Mill., *Vitis vinifera* L., *Crataegus songarica* K. Koch., *Crataegus pontica* K. Koch., *Crataegus pseudoazarolus* Popov, *Cerasus jacquemontii* (Hook.f.) Buser, *Rubus sanguineus* Friv., *Rubus caesius* L., *Rubus turcomanicus* Freyn., *Rosa canina* L. (Rosaceae), *Ziziphus jujube* Mill. (Rhamnaceae), *Pistacia vera* L., *Pistacia atlantica* Desf. (Anacardiaceae) larni tavsiya etish mumkin.

Danakmevali va dorivor daraxtlardan 6 ta oila, 18 ta turkum, 43 ta tur tavsiya etildi. Assortimentlar kam tavsiya etilgan viloyatlar Navoiy, Buxoro, Xorazm hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidir. Shu bilan birga mahalliy terak turlaridan o'rmon xo'jaligi, yog'ochsuzlik hamda



1-rasm. Markaziy Osiyo dendroflorasiga mansub turlarning viloyatlar kesimida taqsimlanishi.

o'rmon melioratsiyasida foydalanish uchun quyidagi 14 ta turlar tavsiya etilmoqda: *Populus nigra f. italicica* (Münchh.) A.Andersen, *Populus alba* L., *Populus bollleana* Lauche., *Populus talassica* Kom., *Populus pruinosa* Schrenk., *Populus ariana* Dode., *Populus nigra* L., *Populus nivea* (Aiton) Willd., *Populus bachelieri* Wierzb. ex Rchb., *Populus densa* Kom., *Populus diversifolia* Shrenk., *Populus afghanica* (Aitch. & Hemsl.) C.K.Schneid., *Populus uzbekistanica* Kom., *Populus laurifolia* Ledeb. Terakning qurg'oqchilikka chidamli turi *Populus pruinosa* Schrenk. Navoiy, Surxondaryo viloyatlari uchun qurg'oqchilikka chidamli sifatida tavsiya etildi.

Qurg'oqchil, issiq, cho'l hududlari uchun tabiatida yovvoyi holda o'sayotgan *Tamarix ramosissima* Ledeb., *Tamarix florida* Bunge., *Tamarix arceuthoides* Bunge., *Paliurus spina-christi* Mill., *Acer semenovii* Regel & Herder., *Acer turkestanicum* (Pax.), *Ulmus androssowii* Litv., *Tamarix hohenackeri* Bunge., *Acer turcomanicum* Pojark. ex Cerniak., *Caragana acanthophylla* Kom., *Caragana turkestanica* Kom., *Cercis griffithii* Boiss., *Colutea arborescens* L. turlaridan foydalanish mumkin.

Shuningdek, yer osti suvlari yaqin bo'lgan joylarda Androssov qayrag'ochi (*Ulmus androssowii* Litv.) ni ekish tavsiya etildi.

Наряду с вышеуказанными действиями, ЕРА активно обеспечивает безопасность человека и окружающей среды через внедрение программ, таких как «Более безопасный выбор» и «Национальная система устранения выбросов загрязняющих веществ».

Важнейшими исполнителями экологической политики в Соединенных Штатах выступают различные организации и агентства, которые оперативно занимаются обеспечением экологической безопасности:

- Совет по качеству окружающей среды;
- Агентство по защите окружающей среды;
- Бюро управления земель, Служба национальных парков, Служба охраны рыб и диких животных, Геологическое наблюдение, Бюро рекламации в структуре Министерства внутренних дел;
- Служба охраны почв, Лесная служба в Министерстве сельского хозяйства;
- Национальное управление океанических и атмосферных исследований, включая Службу морских рыбных ресурсов и Отдел управления береговой зоной в Министерстве торговли;
- Береговая охрана Министерства транспорта;
- Атомная регулирующая комиссия, Управление земель и природных ресурсов США и другие в системе Министерства юстиции, а также и других ведомств.

Сотрудничество и координация между этими организациями способствуют эффективной реализации экологических мер и обеспечению более безопасной окружающей среды.

Значительные достижения в уменьшении выбросов загрязняющих веществ способствовали распространению среди граждан США мнения о лидерстве страны в вопросах экологии. Без сомнения, с высоким уровнем жизни, Соединенные Штаты занимают лидирующее положение среди мировых производителей и потребителей товаров и услуг, однако они также сталкиваются с проблемой высокой продукции отходов.

В США, наряду с системой налогообложения атмосферных загрязнений, функционирует механизм выдачи разрешений (квот) на допустимые выбросы. При превышении установленных норм компании подвергаются значительным финансовым штрафам, соответствующим избыточным выбросам. Но параллельно с этим, действует система торговли квотами между предприятиями. Те из них, чьи эмиссии ниже установленных лимитов или кто готов превентивно сократить выбросы, могут торговать своими квотами с компаниями, нуждающимися в компенсации за сверхнормативные выбросы.

Этот подход стимулирует предприятия искать инновационные способы снижения воздействия на окружаю-

шую среду, способствуя более экологически безопасной, устойчивой экономике и снижению загрязнения.

Таким образом, в Соединенных Штатах обсуждается широкий диапазон альтернативных подходов, начиная от возможности учреждения Экологического совета ООН для решения глобальных экологических проблем, до идеи создания Всемирной ассамблеи с непосредственным участием граждан и их организаций. Последняя могла бы прямо защищать права человека на здоровую среду обитания. Такие организации предполагаются как средства, способствующие более оперативной и эффективной обеспеченности экологической безопасности.

Целью этих предложений является ускорение и более эффективная защита окружающей среды. Это свидетельствует о стремлении обеспечить наилучшее состояние экологии и обеспечить сохранение здоровой среды для всех граждан, проживающих не только в данном регионе, но и во всем мире.

В заключении необходимо отметить, что опыт США в решении глобальных и региональных экологических проблем можно было бы широко использовать в условиях Узбекистана и в регионе Центральной Азии. Особенно в области экологического законодательства. Помимо общеправовых норм, в Соединенных Штатах действует специализированное законодательство, нацеленное на

регулирование общественных отношений, подпадающих под сферу экологического права.

Кроме этого, опыт Агентства по охране окружающей среды (EPA) по надзору за рядом программ, нацеленных на повышение энергоэффективности, разумное использование природных ресурсов, охватывающие такие области, как программа EPA Safer Choice (предыдущее название «Дизайн для окружающей среды») предоставляет маркировку для продуктов, которая позволяет потребителям выбирать безопасные химические продукты, не уступая по функциональности и качеству. Программа Energy Star помогает потребителям выбирать энергоэффективные приборы, способствующие экономии энергии и многие другие.

Наряду вышеуказанными действиями, EPA активно обеспечивает безопасность человека и окружающей среды через внедрение программ, таких как «Более безопасный выбор» и «Национальная система устранения выбросов загрязняющих веществ».

Было бы весьма полезным провести ? Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата совместно с ЭПА на тему «Региональные проблемы экологической безопасности в Центральной Азии» с использованием большого опыта США в области экологической политики.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Друкер П. Новые реальности в правительстве и политике, в экономике и бизнесе, в обществе и мировоззрении. – М., 1994.
2. Абрамов В.А., Мироненко И.Л. Мировая экологическая политика [Текст]: учебник для вузов / В.А. Абрамов – М.: «НАУКА» – 2008. – 389с.
3. Морозова В.Н. Мировая экологическая политика и международное экономическое сотрудничество [Текст]: Учебно-методическое пособие для вузов / В.Н. Морозова – М. – ЮНИТИ-ДАНА – 2007. – 326с.
4. Гардаш С.В. Структура топливно-энергетического баланса США и проблемы энергетической безопасности // США – Канада. Экономика, политика, культура. 2006. №8. С. 21-39.
5. Николас А. Робинсон. Правовое регулирование природопользования и охраны окружающей среды в США, М., 2006.
6. Шадиметов Ю.Ш., Айрапетов Д.А. Экологическая дипломатия в центральной Азии [Электронный ресурс]// Экономика и социум.-2022.№9(100). URL: https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_d1d5afdd11d9469fa991d4a83bc198db.pdf?index=true
7. Дмитриева, И. А. Экологическая безопасность как часть международных отношений: учебное пособие: [16+] / И. А. Дмитриева, О. В. Шипелик ; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Южный федеральный университет, Инженерно-технологическая академия. – Ростов-на-Дону; Таганрог: Южный федеральный университет, 2018. – 74 с.
8. Экологическая политика США и Канады [Электронный ресурс] <https://txtb.ru/23/18.html>
9. Шадиметов Ю.Ш., Айрапетов Д.А. Актуальные вопросы ресурсосбережения в сфере автомобильного транспорта путем утилизации автомобильных шин // POLISH JOURNAL OF SCIENCE № 52, 2022 С. 3-7.
10. Шадиметов Ю.Ш., Айрапетов Д.А. Устойчивый транспорт, важнейший аспект современной транспортной политики (Sustainable transport, an essential aspect of modern transport policy) // The scientific heritage No 98 (2022) С. 6-10
11. Лютов А.А. Государственная политика США по охране окружающей среды [Текст] / А.А. Лютов // США – Канада: экономика, политика, культура – 2008. – №4 – С.117-128
12. Ярыгин Г.О. Проблемы экологической безопасности в политике США, Канады и Европейского союза [Электронный ресурс] <https://www.dissercat.com/content/problemy-ekologicheskoi-bezopasnosti-v-politike-ssha-kanady-i-evropeiskogo-soyuza>
13. Шадиметов Ю.Ш., Айрапетов Д.А. Влияние промышленности на окружающую среду и здоровье населения // Наукосфера. №4 (2), 2023 С.76-81

11-yanvar — Qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni

Sayyoramizning florasi va faunasi turfa xil. Ularni asrab-avaylash dolzab masalalardan biri hisoblanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, xususan, qo'riqxonalar va milliy bog'lar noyob, yo'qolib ketish arafasida turgan jonivor-u o'simliklarni saqlab qolish va ko'paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ilk qo'riqxonalar XVI asrda paydo bo'la boshlagan. Birinchi milliy bog' esa AQSHda 1872-yili tashkil etilgan Yellostoun milliy bog'i bo'lib, bu bog' vaqtiga qatnashdi. O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarixi 1926-yilda Jizzax viloyatida G'o'ralas tog'-archa qo'riqxonasining ta'sis etilishi bilan boshlangan, 1960-yilda mazkur qo'riqxona Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi deya qayta nomlangan.

Afsuski, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurlardan nooqilona foydalanish hamda o'simlik va hayvonot dunyosining yashash (o'sish) muhiti buzilishi oqibatida sayyoramizda biologik xilma-xillikning yo'qolib va kamayib ketishi hanuz davom etmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatini jiddiy xavotirga soladi.

1997-yilda Yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish markazi va Jahon yovvoyi tabiat jamg'armasi tashabbusi bilan 11-yanvar sanasini — Qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni sifatida nishonlash qabul qilingan.



Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – yaxlit ekologik tizim bo'lib, biologik, landshaft xilma-xilligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlashga mo'ljallangan. Ular belgilangan maqsadi va rejimiga qarab: davlat qo'riqxonalar, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'ları, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar kabi toifalarga bo'linadi.

Hozir mamlakatimizda 7 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, 12 ta tabiat bog'i, 1 ta milliy bog', 11 ta tabiat yodgorligi, 2 ta biosfera rezervati, 12 ta buyurtma qo'riqxonasi, 1 ta Buxoro ixtisoslash-tirilgan "Jayron" pitomnigi mavjud. Mazkur hududlarda O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan umurtqali hayvonlarning 102 turi, o'simliklarning 280 turi uchraydi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiiy muvozanatni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

13-14-yanvar — Suv-botqoq qushlarining xalqaro sanoq kunlari

Suv-botqoq qushlarining xalqaro sanoq kuni (IWC) qushlar soni hamda ularning yashash va qishlash joylarining holati to'g'risida axborot yig'ishga yo'naltirilgan uzoq muddatli monitoring dasturi hisoblanadi. Bizning mintaqamizda suvda suzuvchi qushlarni hisobga olish har yili yanvar oyining ikkinchi haftasida — dam olish kunlari o'tkaziladi.

1967-yilda Wetlands International xalqaro tashkiloti Yevropa, Osiyo va Afrikaning ayrim mamlakatlarida Suv-botqoq qushlarining xalqaro sanoq kuni dasturini ishlab chiqdi. 1987-yilda Osiyo suv-botqoq qushlarini ro'yxatga olish dasturi ishlashdi. Hozirgi vaqtida ro'yxatga olishda 100 dan ziyod mamlakat qatnashib, har yili 30 milliondan ortiq suv-botqoq qushlari hisobga olinadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida ornitolog-mutaxassislar bilan birga havaskor va ko'ngillilar ham ushbu tadbiriga jalb qilinadi. Ro'yxatga olish natijalari xalqaro ma'lumotlar bazasida to'planib, suvda suzuvchi hamda suv havzalari yaqinida yashovchi qushlar populyasiyasi



holatini baholash, ularning sonidagi o'zgarishlarni qayd qilish va yetarli miqdorda suv-botqoq hududlarini ajratishda foydalilanildi.

Suv-botqoq qushlarini qishki hisobga olish muzlamaydigan suv havzalarida o'tkaziladi.

20-yanvar – Pingvinlar haqida xabardorlik kuni

Jahon hamjamiyati shu sanada dunyodagi eng noodatiy qushlardan biri – Pingvinlar haqida xabardorlik kuni (Penguin Awareness Day) sharafiga ekologik bayramni nishonlaydi. Bundan ko'zlangan maqsad – odamlarning pingvinlar haqidagi bilimlarini oshirish va ushbu qushlarning soni va yashash joylarini saqlashga e'tiborni qaratishdan iborat.

Pingvinlar (*lat. Spheniscidae*) uchmaydigan dengiz qushlari oilasiga mansub bo'lib, ular suvda yaxshi suzadi. Imperator pingvinlari ancha katta – bo'yи 100-120 santimetр, og'irligi 40-50 kilogramm keladi. Pingvinlarning eng kichik turi balandligi esa odamning tizzasidan yuqori bo'lmaydi va uning vazni 2,5 kilogrammdan oshmaydi.

Pingvinlar faqat Janubiy yarim sharning ochiq dengizida yashaydi: Antarktida qирг'oqlarida, Yangi Zelandiya, Avstraliyaning janubiy qismida, Janubiy Afrikada, Folkland orollaridan Perugacha bo'lgan Janubiy Amerikaning butun qирг'oqlarida, ekvator yaqinidagi Galapagos orollarida. Ularning eng katta to'dalari Antarktida va unga tutash orollarda yig'iladi. Pingvinlar o'n minglab juft yoki undan ko'p bo'lgan yirik koloniyalarda joylashadi. Bu qushlarning umri o'rtacha 25 yilni tashkil etadi.

Pingvinlar har kuni muzli suvda suzishi va muz ustida usoq masofani bosib o'tishi kerak bo'ladi. Ularning tanasida issiq qon tashuvchi arteriyalar bilan birga sovuqni qaytaruvchi venalar mavjud. Tanadagi issiq almashinvi vena va arteriyalardagi qon haroratining tenglashuviga olib keladi. Bu issiqlikning umumiy yo'qotilishini kamaytiradi.

26-yanvar – Xalqaro toza energiya kuni

Bu yil ushbu ekologik sana birinchi marta nishonlandi. BMT Bosh Assambleyasi 2023-yil avgustda qabul qilgan rezolyusiyada xalqaro hamjamiyat vakillari dunyo aholisining arzon va zamonaviy energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, issiqlixona gazlari chiqindilarni kamaytirishi zarurligi qayd etilgan.

"Toza energiya – bu tugamaydigan tuhfa. Uning yordamida ifloslangan havoni tozalashi... va milliardlab odamlarni arzon elektr energiyasi bilan ta'minlash mumkin", — dedi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 675 million kishi elektr energiyasidan umuman foydalanish imkoniga ega emas, ulardan 80 foizi Afrika mamlakatlarda yashaydi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan hamma joyda foydalanish va shuning hisobiga butun dunyo aholisini elektr energiyasi bilan ta'minlash mumkin.

A.Guterrish zdilik bilan toza energiya manbalaridan foydalanishga o'tish iqlim o'zgarishining eng yomon oqibatlari oldini olish imkonini berishini alohida ta'kidlab o'tdi.

"Mening ishonchim komilki, qazib olinadigan yoqilg'idan voz kechish nafaqat zarur, balki muqarrardir. Shuning uchun dunyo mamlakatlari toza energiyaga o'tish



Imperator pingvinlari tuxum qo'yib, uni ochishni, bolarli qishgacha ulg'ayib kuchga kirishi va qishning qahraton sovug'iga bardosh beradigan bo'lishi uchun Antarktida "yozi" qisqalik qiladi. Shuning uchun urg'ochi pingvin avji qishda og'irligi 500 gramm keladigan bitta tuxum qo'yadi va uni erkak pingvinga qoldiradi, o'zi shimol tomonga — dengizga ovqat izlab ketadi. Erkak pingvin tuxumni tumshug'i bilan avaylab surib oyoqlari orasiga oladi va panjalari bilan qisib ushlab bag'riga bosadi. Yurganida uni bir oyog'idan ikkinchisiga yumalatib o'tkazib yuradi.

Ikki oydan keyin "bahor" boshlanishi oldidan tuxumdan "jo'ja" chiqadi. Shu paytda ona pingvin ham yetib keladi va oshqozonida bolasiga ozuqa keltiradi. Pingvinchalar ulg'aya boshlagach, ularga ovqat ko'proq kerak bo'ladi, ota ham, ona ham ovqat izlab ketadi, pingvinchalar esa "bog'cha"da qoldirishadi.

Muxtasar aytganda, Pingvinlar haqida xabardorlik kuni bu ajoyib qushlar va ularning yashash joylariga oid ko'proq ma'lumot olishga imkon beradi.



jarayonini tezlashtirish choralarini ko'rishi va atmosferaga issiqlixona gazlari chiqindilarini eng ko'p chiqarayotgan davlatlarga o'rnak bo'lishi kerak", — dedi BMT Bosh kotibi.

"Bu iqlimga oid faoliyatni moliyalashtirishni sezilarli darajada oshirish zarurligini anglatadi... Bu shuni anglatadiki, 2025-yilgacha mamlakatlар ekologik toza energetikaga to'g'ri va adolati o'tishni belgilovchi yangi milliy iqlim rejalarini ishlab chiqishi kerak", — deb qo'shimcha qildi A.Guterrish.

Bugungi kunda ko'mir, neft va gaz global karbonat angidrid chiqindilarining qariyb 90 foizini tashkil etadi. Qazib olinadigan manbalar hali ham dunyo bo'yicha elektr energiyasi ishlab chiqarishda ustunlik qiladi, biroq qayta tiklanadigan manbalar allaqachon sayyoramizdagи elektr energiyasining taxminan 29 foizini ta'minlamoqda.

| 2-fevral – Butunjahon suvli-botqoqli yerlar kuni

Har yili 2-fervalda Butunjahon suvli-botqoqli yerlar kuni munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlardan ko'zlangan maqsad dunyo jamoatchiligi va hukumatlari e'tiborini sayyoramizning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun suvli-botqoqli yerlarining ahamiyatiga qaratishdan iborat.

Bu sana tasodifan tanlanmagan, 1971-yil 2-fevral kuni Eronning Ramsar shahrida suvli-botqoqli yerlar to'g'risidagi konvensiya imzolangan, bugungi kunda 150 dan ortiq davlat mazkur konvensianying ishtirokchisi hisoblanadi.

Ramsar konvensiyasi suvli-botqoqli hududlarni nafaqat suv va suv havzalari yaqinida uchraydigan qushlarning yashash muhiti sifatida muhofaza qilishni, balki havzadan chorvachilik, dehqonchilik va xalq xo'jaligining turli sohalari da foydalanish nuqtai nazaridan va umuman inson hayotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda kompleks o'rghanish va muhofaza qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu konvensiya zamонавиј мағомга ко'ра, suv havzalari bioxilma-xilligini va butun ekotizimni saqlab qolishga qaratilgan sa'y-harakatga aylandi. Buni Ramsar konvensiyasi tarafdarlarining 1990-yil Shveysariya (Montre)da bo'lib o'tgan IV konferensiyasida qabul qilingan, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq hududlarini aniqlab olish mezonlarida ko'rish mumkin.

O'zbekistondan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Ramsar suvli-botqoqli yerlar ro'yxatiga 5 ta obyekt kiritilgan: Dengizko'l ko'li, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, To'dako'l va Quyimozor suv havzalari, Sudochye ko'llar tizimi hamda



Jiltirbas ko'li. Bu hududlarning umumiy maydoni 674,4 ming hektarni tashkil etadi.

Suvli-botqoqli yerlar kislороднинг eng muhim manbai bo'lib, suvni to'plab, uning sifatini yaxshilaydi. Ular yer yuzasidan chuqurlikka oqib tushuvchi va ichimlik suvining muhim manbai bo'lgan yer ostini to'ldiradigan suv uchun tabiiy filtr vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, botqoqlar ko'plab hayvonlarning va birinchi navbatda suv qushlarining yashash joyidir. Ular dunyoning bir qismidan ikkinchisiga ko'chib o'tish orqali suvli-botqoqli yer tizimlarining global birligini ta'minlaydi. Shu sababli suvli-botqoqli yerlarni himoya qilish birinchi navbatda suv havzalari yaqinida yashaydigan qushlarni saqlashga yordam beradi.

Mamlakatimiz umumiy maydonining deyarli 70 foizi tekisliklar va asosan cho'llar hissasiga to'g'ri keladi. Bunday sharoit, tabiiyki suvga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib kelgan. Suv havzalari tirik organizmlarning, jumladan, suvda suzuvchi qushlarning yashash muhiti, inson hayotidagi ahamiyati bilan boshqa ekotizmlardan ajralib turadi. Bunday joylarni muhofaza qilish va ularning barqarorligini ta'minlash dolzarb vazifalardan sanaladi.



Ma'lumot uchun, bugungi kunda yurtimizda jami 487 turdag'i qushlar mavjud. Bulardan 52 turdag'i qushlar Qizil kitobga kiritilgan, ya'ni noyob qushlar hisoblanadi. Uchrash xususiyatiga ko'ra, qushlarning 86 turi o'troq, 122 turi uyalovchi, uchib o'tuvchi, 63 turi faqat uchib o'tuvchi, 80 turi uchib o'tuvchi, qishlovchi, 16 turi qishlovchi, 54 turi uyalovchi, uchib o'tuvchi va qishlovchi, 55 turi tasodifan uchib keluvchi (kamdan-kam holda uchrovchi) qushlar hisoblanadi. Umumlashtirib aytganda, yurtimizda uchrovchi qushlarning 320 turi migratsiyada ishtirok etadi.

| 3-fevral – Xalqaro qushlarni oziqlantirish kuni

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan 3-fevral — Xalqaro qushlarni oziqlantirish kuniga bag'ishlab "Qishda qushlarga ko'mak" aksiyasi o'tkazildi. Toshkent Botanika bog'idagi tadbirda 200 ga yaqin yosh ekofaollar, volontyorlar qatnashdi.

"Ekologiya vazirligi tomonidan har yili qishning sovuq kunlarida hayvonlarni, jumladan, qushlarni sovuqdan asrash, bioxilma-xillikni saqlab qolish maqsadida respublikamizdag'i barcha muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda biotexnik tadbirlar o'tkaziladi. Bu yil ham muhofaza hududlaridagi qushlar, hayvonlar ko'p to'planadigan joylarga yem, don, xashak kabi ozuqa vositalari qo'yib chiqildi, — dedi Ekologiya vazirligining bioxilma-xillik siyosati bo'limi boshlig'i Abdurashid Sadikov. — Bugungi aksiyamiz ham biotexnik tadbirlarning davomi hisoblanadi. Maqsadimiz nafaqat qushlarni asrab qolish, balki kelajak avlodda, yoshlarda qushlarga, hayvonlarga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usini, ularni saqlab qolishga daxldorlik hissini shakllantirishdir".

Aksiya davomida ishtirokchilar bog'dagi daraxtlarga qush inlarini o'rnatib, unga ozuqalarini qo'yib chiqishdi. Shuningdek, bog'ning turli hududlariga ham ozuqalar tarqatildi.

19-fevral – Butunjahon dengiz sute Mizuvchilarini muhofaza qilish kuni (Kitlar kuni)

Paleontologik tadqiqotlarga ko'ra, kit va tyulenlar qariyb 26 million yil avval ham mavjud bo'lgan. Kitsimonlar oila-siga mansub kitlar, delfinlar va dengiz cho'chqalari dengiz sute Mizuvchilarini hisoblanadi.

Kitlar barcha sute Mizuvchilar kabi bolalarini sut bilan boqadi, atmosfera havosidan nafas olgani sababli tez-tez suv yuzasiga suzib chiqadi. Kitlarning nafas oladigan a'zosi boshining ustida joylashgan va u qisqa nafas olib chiqarish paytidagina ochiladi. Salqin havoda nafas chiqarishda suv bug'i favvora hosil qilib 5 metr balandlikkacha ko'tarilib tushadi.

Butunjahon dengiz sute Mizuvchilarini muhofaza qilish yoki Kitlar kuni 19-fevralda nishonlanadi. Hozirgi vaqtida nafaqat kitlar, balki barcha dengiz jonivorlari himoyaga muhtoj. Ushbu sana Kitlar bo'yicha xalqaro komissiya tomonidan mazkur jonzotlarni ovlashga joriy qilingan to'lovlardan muddatini uzaytirish to'g'risidagi hujjat kuchga kirgan va 1986-yilda ta'sis etilgan.

Bu hujjat hozirga qadar amalda va butun dunyoda kitlarни ovlash hamda kit go'shti savdosi taqilangan. Ayni paytda Kitlar bo'yicha xalqaro komissiyaning maxsus ruxsati bilan kitlar faqat tub aholi tomonidan ovlaniishi va ulardan faqatgina ilmiy maqsadlarda foydalanimishi mumkin.

27-fevral – Xalqaro qutb ayig'i kuni

Har yili 27-fevralda butun dunyoda Xalqaro qutb ayig'i kuni (International Polar Bear Day) nishonlanadi. Uni o'tkazish oq ayiqlarini muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkiloti — Polar Bear International (PBI) tashabbusi bilan boshlangan.

Oq ayiq suvda suzishni, to'yib ovqatlanishni va ko'p uxlashni xush ko'radi. U qishki uyquga ketmaydi. Agar biror xavf tug'ilsa, yuzlab kilometr masofaga suzishi mumkin. Bu quruqlikdagi katta yirtqich hayvon Shimoliy qutbdagi yashaydi, tyulen va baliqlar bilan oziqlanadi. Tanasining uzunligi uch metrga, vazni 800 kilogrammga yetadi.

Aslini olganda, uning mo'ynasi oq emas, shaffof bo'lib, vizual effekt esa quyosh nurlarining aks etishi bilan yaratiladi. Oq ayiq mavsumga, ovqatlanish tartibi va yoshiga bog'liq holda sariq, kulrang yoki jigarrangda ko'rinishi mumkin.

Oq ayiq tanasini qoplagan pigmentsiz tuklar Arktikaning og'ir sharoitlarida katta yordam beradi. Ular faqat ultrabinafsha nurlarini o'tkazib, issiqlik izolatsiyasini ta'minlashga hissa qo'shadi. Qalinligi to'rt santimetrgacha bo'lgan teri osti yog' qatlami eng past haroratda ham muzlashga yo'l qo'ymaydi. Hatto qor bo'ronlarida oq ayiqlar o'zini qulay his etishadi. Ular qor yog'ayotgan paytda ochiq havoda qorga ko'rpgaga



Kitlar kuni, eng avvalo, jamoatchilik, qolaversa, butun insoniyat diqqat-e'tiborini sayyoramizda ayni paytda atigi 119 turi saqlanib qolgan dengiz sute Mizuvchilarini muhofazasiga qaratish maqsadida ta'sis etilgan. Qariyb 200 yildan buyon dengiz sute Mizuvchilarini, xususan, kitlarni shafqatsizlarcha qirish davom etmoqda. Ushbu jonivorlarning ba'zi turlari yo'q bo'lib ketish arafasida turgani dunyo hamjamiyatini xavotirga soladi.

Ma'lumki, kit yog'i oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi, jigaridan qimmatbaho tibbiyot vositalari tayyorlashda foydalilaniladi. Terisiga qayta ishlov berilib, texnik maqsadlarda ishlataliladi.

Ko'plab mamlakatlarda dengiz sute Mizuvchilarini ovlash taqiqlangan bo'lismiga qaramasdan, ular ayovsizlarcha yo'q qilinmoqda. Masalan, okeanlarning plastik chiqindilar, neft qoldiqlari bilan ifloslanishi natijasida dengiz jonivorlari qirilib kelmoqda.

Dengiz sute Mizuvchilarini hayotini muhofaza qilish maqsadida qator mamlakatlarda dengiz qo'riqxonalari tashkil etilgani e'tiborga molikdir.



o'ranga dek uxlashadi. Ba'zan qor bo'roni tinmaguncha bir necha kun qor ostida qolib ketishadi.

Urg'ochi oq ayiqlar har uch yilda bittadan uchtagacha bola tug'adi. Yangi tug'ilgan ayiqchaning vazni bir kilogramm atrofida bo'ladi. Oradan besh yil o'tib, u quruqlikdagi katta yirtqich hayvonga aylanadi.

Oq ayiqlar populyatsiyasiga global isish tufayli qutb muzlarining erishi, neft konlarini o'zlashtirish natijasida atrof-muhit ifloslanishi jiddiy tahdid soladi. Bu ularning soni sezilarli darajada kamayishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtida dunyo hamjamiyati chaqirig'iga binoan Shimoliy qutbga chegaradosh mamlakatlarni tomonidan oq ayiqlarini asrash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoxda.

1


IQLIM O'ZGARISHI SABABLI DARAXTLARNING "NAFAS OLISHI" QIYINLASHMOQDA

Daraxt to'qimalari haqida global ma'lumotlar to'plamini tahlil qilgan AQSHning Pensilvaniya universiteti olimlari guruhi issiqroq iqlim sharoitida, ayniqa, suvdan foydalanish imkoniyati cheklanganda daraxtlarning "nafas olish" tezligi ikki baravar oshishini aniqladi.

Milliy Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, issiqroq va quruqroq iqlim sharoitida daraxtlar karbonat angidridni (CO_2) "ushlab qolishda" kam samarali bo'lib, buning o'rniga uni qaytadan atmosferaga chiqara boshlaydi. "Fotonafas olish" deb ataladigan bu hodisa o'zgaruvchan iqlim sharoitida o'simliklardagi stressning kuchayishi bilan bog'liq.

"Biz issiqroq va quruqroq iqlim sharoitida o'sayotgan daraxtlar nafas olishini emas, yo'talayotganini aniqladik, — dedi Pensilvaniya universiteti geofanlari dotsenti va tadqiqotning yetakchi muallifi Maks Lloyd. — Ular sovuqroq va namroq hududlardagi daraxtlarga solishtirganda atmosferaga qaytadan birmuncha ko'p CO_2 yuboradi".

Tadqiqot natijalar o'simliklar va iqlim o'rtaсидаги о'заруqroq iqlim sharoitida o'sayotgan daraxtlar nafas olishini emas, yo'talayotganini aniqladik, — dedi Pensilvaniya universiteti geofanlari dotsenti va tadqiqotning yetakchi muallifi Maks Lloyd. — Ular sovuqroq va namroq hududlardagi daraxtlarga solishtirganda atmosferaga qaytadan birmuncha ko'p CO_2 yuboradi".



Tadqiqot usullari, jumladan, yog'ochdagi izotoplarni tahlil qilish tadqiqotchilarga o'tmishdagি fotonafas olish tezligini aniqliqroq baholash imkonini beradi, bu o'simliklarning qadimda ro'y bergan iqlim o'zgarishiga qanday javob qaytargani va kelajakda ushbu jarayonga qay tarzda javob qaytarishi mumkinligi haqida tushuncha beradi.

Atmosferadagi karbonat angidrid konsentratsiyasining ortishi sayyoramiz duchor bo'layotgan noodatiy o'zgarishlar tezligidan dalolat beradi. Tadqiqotchilar o'simliklar va umuman ekotizimlar duch keladigan muammolarni yaxshiroq tushunish uchun o'simliklar va o'zgaruvchan iqlim o'rtaсидаги муносабатларни o'rganish ustida ilmiy izlanishni davom ettirish niyatida.

Manba: psu.edu

2

AFRIKADAGI YIRTQICH QUSHLAR SONI KAMAYIB BORMOQDA

Nature Ecology & Evolution jurnalida chop etilgan tadqiqotga ko'ra, so'nggi 20-40 yil mobaynida Afrika yirtqich qushlarining 42 turi 88 foiziga kamaygan. Shu bilan birga, kichik turlarga nisbatan yirik yirtqich qushlar sonining qisqarishi birmuncha keskin ro'y bergani kuzatilgan.



Umurtqali hayvonlar bilan oziqlanadigan yirtqich, etxo'r qushlar oziq-ovqat zanjirida ham muhim ekologik rol o'ynaydi, boshqa turlar populyatsiyasini nazorat qiladi, shuningdek, o'laksaxo'r sifatida kasalliklar tarqalishini cheklaydi. Burgut, jo'rchi va boshqa yirtqich qushlarning ko'p turlari uzoq umr ko'rishi va keng tarqalganiga qaramasdan sekin ko'payadi. Tadqiqotda qayd etilishicha, yashash joylarini yo'qotish ularning omon qolishi uchun eng katta tahdid hisoblanadi. Shuningdek, yirtqich qushlar sonining kamayishiga brakonyerlik, zaharlanish, elektr uzatish liniyalarining elektr tokidan shikastlanish, shamol turbinasi urishi va iqlim o'zgarishi ham sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot muallifi, Peregrine Fund tabiatni muhofaza qilish notijorat guruhining Afrika dasturi rahbari Darsi Ogadaning so'zlariga ko'ra, yangi tadqiqotning eng xavotirli natijalaridan biri qushlarning yo'qolishi hatto milliy bog'larning ichida ham sezilarli darajada kuzatilgani bo'lgan. Aslini olganda, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan tashqarida yirtqichlar sonining kamayishi milliy bog'lardagiga qaraganda ikki baravar ko'p bo'lsa-da, milliy bog'lar ichidagi ko'plab turlar hali ham «sezilarli darajada kamaymoqda», deb xabar beradi D.Ogada The New York Times nashrida.

Olimlar Sahroi Kabirdan janub tomonga yo'llar bo'ylab harakatlanib, duch kelgan har bir yirtqichni qayd qilib, yuzlab tadqiqotlar o'tkazdilar. Ular ma'lumotlarni 1969 yilda o'tkazilgan shunga o'xshash tadqiqot natijalarini bilan solishtirdi. Tadqiqotchilarining xulosasiga ko'ra, faqat beshta turning, masalan, Afrika pastbo'yli lochinlari va rangsiz qarchig'aylari populyatsiyasi ko'paygan.

Manba: ecoportal.su

3

YER OSTI SUVLARINING KAMAYISHI DUNYONING KO'P HUDUDLARIDA TEZLASHMOQDA

Yangi tadqiqotga muvofiq, fermer xo'jaliklari, uylar, sanoat va shaharlarni obihayot bilan ta'minlaydigan yer osti suvlari butun dunyo bo'yicha ko'p joylarda avvalgi 40 yilga qaraganda tezroq kamayib bormoqda, bu o'z navbatida muammolarni hal etsh uchun shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladi.

Nature jurnalida ilmiy ishlari chop etilgan tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, yer osti suvlarining kamayishi keng ekin maydonlariga ega bo'lgan qurg'oqchil hududlarda ko'proq kuzatilgan. Shu bilan bir vaqtida ular suvli qatlamlarning bir nechta namunalarini aniqlagan.

Santa-Barbara shahridagi Kaliforniya universitetining suv resurslari bo'yicha professori Skott Yasechkonging so'zlariga ko'ra, ushbu tadqiqotning yangiligi uning global miqyosda o'tkazilganida namoyon bo'ladi.

S.Yasechko va uning hamkasblari 40 dan ortiq mamlakatlardagi 170 000 quduq va 1 700 ga yaqin suvli qatlamlardan olingan yer osti suvlari ma'lumotlarini tahlil qilib, jami yer osti suv havzalarining 75 foizini qamrab oldi. Tadqiqotchilar suvli qatlamlarning uchdan bir qismini xaritaga tushirish orqali XXI asrdagi yer osti suvlari darajasining o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish va ularni 1980 va 1990-yillardagi darajalari bilan solishtirishga muvaffaq bo'ldi.



Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, yer osti suvlari dunyoning istalgan nuqtasida chuchuk suvning eng katta manbalaridan biri hisoblanadi, suvli qatlamlarning kamayishi esa jiddiy xavotir uyg'otadi. Suvli qatlamlarning haddan tashqari pasayishi yerning cho'kishi va quduqlarning qurib qolishiga olib kelishi mumkin. Bu suv resurslaridan foydaladigan turar-joylar, fermer xo'jaliklari va ularning dalalarini suvi bilan ta'minlashga tahdid soladi.

O'rganiqan suvli qatlamlarning taxminan 20 foizida tadqiqotchilar XXI asrda yer osti suvlari sathining pasayish tezligi o'tgan asrning 80-90-yillariga solishtirganda sekin-lashganini aniqlashdi.

Manba: "Eko-info"

4

GUARDIAN: TABIIY BOYLIKLARINI QAZIB OLİSHNING ORTISHI HALOKATLI OQIBATLARGA OLIB KELADI

Dunyoda foydali qazilmalarni qazib olish 2060-yilga kelib 60 foizga oshishi kutilmoqda, bu esa atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot mualliflari tabiiy resurslarni qazib olishni kengaytirishga emas, balki iqtisodiyotning barcha sohalarida mavjud resurslardan samarali foydalanishga chaqiradi.

Bu haqda The Guardian gazetasi BMTning chop etilmagan hisobotiga tayanib xabar berdi.



Ma'ruba mualliflarining qayd etishicha, 1970-yildan beri dunyoda foydali qazilmalarni qazib olish Yer shari aholi sonining o'sishi va jahon iqtisodiyotining sanoatlashuvi natijasida qariyb to'rt baravar oshdi. "Bu dunyoda iqlim isishi va atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Prognoz qilingan yillar oralig'ida bu ko'rsatkichning yanada oshishi, shubhatsiz, atrof-muhit uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi, tez-tez sodir bo'ladigan kuchli bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy ofatlarni keltirib chiqaradi", deb ta'kidladi ma'ruzani tayyorlagan tahlilchilar guruhi hamraisi Yanez Potochnik.



«Tabiiy resurslarni qazib olishning yuqori ko'rsatkichlari yanada jiddiy oqibatlarga olib keladi, — dedi u. — Aslini olganda Yerda xavfsiz joylar qolmadi. Favqulodda tabiiy hodisalar shunchaki yanada tez-tez sodir bo'ladi».

Tadqiqot mualliflari tabiiy boyliklarni qazib olishni kengaytmaslikka, iqtisodiyotning barcha jabhalarida mavjud resurslardan yanada samaraliroq foydalanishga chaqiradi.

Manba: tass.ru

5

AMAZONKA EKOTIZIMI “KESKIN O’ZGARISH NUQTASI”GA YETISHI MUMKIN

Nature jurnalida chop etilgan yangi xalqaro tadqiqot shuni ko’rsatdiki, 2050-yilga kelib Amazonka tropik o’rmonlarining qariyb yarmi suv tanqisligi, daraxtlarning kesilishi va iqlim o’zgarishi tufayli ekotizim halokatiga uchrashi mumkin. Buning oldini olish uchun esa degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklash va o’rmonlar barqarorligini oshirish bo'yicha choralar ko'rish talab etiladi.



Amazonka o’rmonlari 65 million yil davomida iqlim o’zgarishiga nisbatan chidamli bo’lib kelgan. Hozir ushbu mintaqaga haroratning isishi, kuchli qurg’oqchilik, daraxtlarning kesilishi va yong’inlar natijasida misli ko’rilmagan stressga duchor bo’lmoqda. Olimlarning hisob-kitoblariga ko’ra, 2050-yilga borib Amazonka o’rmonlarining 10 foizidan 47 foizigacha qismi kompleks buzilishlarga uchrashi, bu ekotizimning kutilmagan o’zgarishlarini keltirib chiqarishi va mintaqaviy iqlim o’zgarishini kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqotning yetakchi muallifi, Santa-Katarina federal universiteti (Braziliya)da faoliyat yuritayotgan Bernardo Flores avval kutilgan o’rmonlarning sekin yo’qolishidan tezroq yo’qolishga o’tishini bashorat qiladigan natijalarдан hayratda qolganini aytdi. “2050-yilga borib bu jarayon sur’ati tezlashadi. Keskin o’zgarish nuqtasidan o’tgandan keyin biz ekotizim o’zini qanday tutishi ustidan nazoratni yo’qotamiz”, dedi u The Guardian nashriga bergen intervusuda.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, Amazonkaning markaziy va janubiy qismida quruq mavsumdagagi harorat 40 yil avvalgisiga solishtirganda 2°Cyuqoriligi aniqlangan. Prognozlash modellari 2050-yilga kelib quruq kunlar hozirgiga qaraganda 10–30 kun ko’proq bo’lishini va yillik maksimal harorat 2–4°C ga oshishini taxmin qilmoqda. Bu o’rmon produktivligini va uglerodni saqlash qobiliyatini pasaytiradi. Yog’ingarchilik xarakteri o’zgaradi.

O’tgan asrning 80-yillari boshidan beri Amazonka o’rmonlarining markaziy va chetki qismi quruqlashdi. Bolivianing janubidagi Amazonkada yillik yog’ingarchilik deyarli 20 mmga kamaydi. Aksincha, g’arbiy va sharqiy hududlarda namgarchilik ko’proq kuzatildi. Olimlarning fikricha, bu tendensiyalar davom etsa, ekotizimning chidamliligi o’zgaradi. Ba’zi hududlar savannaga aylanadi, ammo aksariyat hududlar degradatsiyalangan holatda qoladi.

Manba: www.theguardian.com

6


POPULYATSIYANING QISQARISHI: KO’CHIB YURUVCHI YOVVOYI HAYVONLARNING 1189 TURIDAN 44 FOIZI XAVF OSTIDA

BMT Atrof-muhit dasturining Butunjahon tabiatni muhofaza qilish monitoringi markazi zoologlari dunyo bo’ylab tarqalgan ko’chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar turlari haqida hisobot taqdim etdi.

“Dunyodagi ko’chib yuruvchi turlarning holati” deb nomlangan ushbu hisobotda xavotirli tendensiya qayd etilgan: ko’chib yuruvchi hayvonlar turlarining populyasiyasi 44 foizga qisqargan, ularning 22 foizi esa yo’qolib ketish xavfi ostida. Hisobotda Yovvoyi hayvonlar turlarining tarqalishi to’g’risidagi Bonn konvensiyasi bo’yicha 1189 ko’chib yuruvchi hayvonlar turlari qamrab olingan.



Ko’chib yuruvchi hayvonlarning halokatli vaziyatga tushib qolishining asosiy sabablari sifatida odamlar tomonidan haddan ziyod ovlanishi, yashash joylarining degradatsiya va fragmentatsiyaga uchrashi ko’rsatilgan. Bu muammolar Bonn konvensiyasi ro’yxatiga kiritilgan hayvonlarga tegishli bo’lib, ulardan o’ntasidan yettitasi va to’rt turidan uchtasi aziyat chekadi. Bunday turlar uchun juda muhim hisoblangan yashash joylarining 51 foizi muhofaza qilish maqomiga ega emas va 58 foizi odamlar tomonidan me’yordan ziyod ishlataladi. Mualliflar boshqa tahdidlar qatorida iqlimning antropogen o’zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishini ham keltirib o’tgan.



Hisobot mualliflari ko’chib yuruvchi turlarni saqlash bo’yicha harakatlarni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi, chunki ular ekotizimlarda asosiy rol o’ynaydi va insoniyat uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Manba: ecosphere.press

"EKOLOGIYA XABARNOMASI" – IJTIMOIY-IQTISODIY, ILMIY-AMALIY JURNALI MAQOLALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

"EKOLOGIYA XABARNOMASI" ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnali tahririysi umumiy sharhdan va axborot shaklidagi ilmiy maqolalarini nashr uchun qabul qilmaydi. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo'lyozma bo'yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining yo'llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi bo'lishi kerak.

Maqolaning yozilish tili, tuzilishi va tarkibi. Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Maqola keng omma uchun tushunarli tilda, grammatika qoidalariga amal qilgan holda yozilgan bo'lishi kerak. Maqola o'zida muayyan ilmiy-tadqiqotning tugal yechimlarini yoki uning bosqichlarini ifodalashi zarur. Sarlavha maqolaning mazmuni to'g'risida axborot bera olishi, imkon qadar qisqa bo'lishi va umumiy so'zlardan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Odatda ilmiy maqolada quyidagilar bo'lishi kerak: universal o'nlik tasnifi (UDK), maqolaning sarlavhasi (uch tilda), annotatsiyasi (uch tilda), tayanch so'zlar (uch tilda), kirish, ko'rib chiqilayotgan muammoning hozirgi holatining tahlili va manbalarga havolalar, masalaning qo'yilishi, yechish usuli, natijalar tahlili, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, muallif(lar) to'g'risida ma'lumot.

Maqolada odatda qabul qilingan atamalardan foydalanish, yangi atama kiritganda, albatta uni aniq asoslab berish kerak. Fizik kattaliklarning o'lchov birliklari Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ga mos bo'lishi kerak. Maqolada muallif o'zining ishlariga havolalar soni 20 foizdan oshmasligi kerak.

Maqolaga qo'yiladigan texnik talablar. Maqolaning sarlavhasi, muallif (lar) va u(lar)ning lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi, annotatsiya, tayanch so'zlar (uch tilda) bir ustunda yoziladi. Maqolaning qolgan matnlari ikki ustunda yoziladi. Maqola MS Word 2003–2010 matn muharririda yozilishi va quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq qat'iy rasmiy lashtirilishi kerak: - A4 formatda, matn sahifasining barcha chekkalarida 2 sm dan joy qoldiriladi, Times New Roman shriftida, maqola uchun shrift hajmi - 12 pt (jadvallar bundan mustasno), jadvallar uchun shrift kattaligi - 10 pt, qator oralig'i - 1,15 interval, matn sahifa kengligi bo'yicha tekislanadi, xat boshi - 1 sm («Tab» yoki «Probel» tugmalaridan foydalanmasdan).

Quyidagilarga ruxsat etilmaydi: sahfalarni raqamlash, matnda sahfani avtomatik bo'lisdan foydalanish, matnda avtomatik havolalardan foydalanish, avtomatik bo'g'in ko'chirish, kamdan-kam hollarda ishlatiladigan yoki qisqartma harflarni qo'llash.

Grafikli materiallar (rangli rasmlar, chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar) o'zida tadqiqotning umumlashtirilgan materiallarini ifodalashi kerak. Grafikli materiallar yuqori sifatlari bo'lishi kerak, agar zarurat tug'ilsa, tahririyat ushu materiallarni alohida faylda 300 dpi dan kam bo'lмаган o'lchamda jpg formatda taqdim etishni talab qilishi mumkin. Grafikli materialning nomi va tartib raqami pastki qismida keltirilishi zarur.

Formularlar va matematik belgilar MS Wordda o'rnatilgan formatli muharrirda yoki MathType muharriri yordamida bajarilishi kerak.

Annotatsiya (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – annotatsiya hajmi 100-250 ta so'zdan iborat bo'lishi va maqolaning tuzilishini qisqacha ifodalovchi, axborot shaklida berilishi kerak.

Tayanch so'zlar (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – 8-10 ta so'z va iboralardan iborat bo'lishi kerak.

Kirish. Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbliji va ob'yekti tavsiflanadi. Mavjud ilmiy maqolalarning tahlili keltiriladi. Chop etilgan adabiyot manbalarida qo'yilgan ilmiy izlanishlarning ko'rsatilgan holda muallifning ilmiy ishlari yo'nalishi ko'rsatiladi.

Muammoning yechimlari. Bunda tanlangan usul batasfil tavsiflanadi. Olib borilgan tadqiqotlar, ular ichidan tanlab olingan optimal natijalar keltiriladi.

Natijalar. Natijalarni asosan jadvallar, grafiklar va boshqa ko'rinishida keltirilishi mumkin. Ushbu bo'lim olingan natijalarni tahlil qilish, ularni sharhlash, boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirishni o'z ichiga oladi. Natijalar tadqiqotning ob'yekti parametrlari o'rtaсидagi munosabatlar mualliflar tomonidan belgilangan maqolaning asosiy ilmiy natijalarini umumlashtiruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Ilmiy tadqiqotlar doirasida olingan natijalar umumlashtiriladi, maqbul sharoitlari tanlanadi, ilmiy yangiligi keltiriladi va amaliyotda qo'llanishga tavyiyalar berilishi mumkin.

Adabiyotlar. Adabiyotlar ro'yxati 15 tadan kam bo'lмаган manbalardan iborat bo'lishi kerak, Adabiyotlar ro'yxatiga darsliklar, o'quv qo'llanmalarini kiritish mumkin emas. Barcha manbalarga matnda havolalar berilishi zarur.

Muallif (lar) haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi. Ushbu ma'lumotlar maqola taqdim etilgan o'zbek/rus tilida ham, ingliz tilida ham keltirilishi hamda maqolaning oxirida – adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtirilishi kerak. Yuqoridaq talablarga javob bermaydigan maqolalar ko'rib chiqishga qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga muallif(lar) javobgardir.

Murojaat uchun telefonlar: +998 71 277-89-22; +998 71 277-69-83; +998 90 946-22-42



EKOLOGIYA

XABARNOMASI | SINCE 1995

Tahririyat manzili: Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,
100043, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a-uy.



www.ecoilm.uz



@ecoilm



eco_nii@exat.uz